Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 17.02.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.1./KHCQ9011
UDC: 34.01:004(045)(575.1)

NORMA IJODKORLIGINI AXBOROT BILAN TA'MINLASH: HUQUQIY MUNOSABAT VA VOSITALAR TAHLILI

Sodikov Akmal Shavkat o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Davlat va huquq nazariyasi kafedrasida
dotsenti, y.f.f.d. (PhD)
ORCID: 0000-0001-6453-1327
e-mail: akmalsodikov81@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlashga doir huquqiy munosabatlar va vositalar tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi norma ijodkorligi huquqiy munosabatlari va vositalarini tadqiq etish orqali O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga doir takliflar, tavsiyalar va xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot predmetini O'zbekiston Respublikasida norma ijodkorligiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, ilmiy-nazariy yondashuvlar hamda huquqiy kategoriyalar tashkil etadi. Tadqiqotda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, mantiqiy, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish va statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanilgan. Maqolaning ilmiy ahamiyati uning ilmiy-nazariy xulosalari, takliflari va tavsiyalarida namoyon bo'ladi. Ushbu xulosalar norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash samaradorligini oshirishga, normativ-huquqiy hujjatlarning tegishli normalarini sharhlashga, milliy qonunchilikni takomillashtirishga, davlat va huquq nazariyasi, norma ijodkorligi hamda yuridik texnika bo'yicha ta'lim berishga va mazkur sohalarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlash faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni hamda huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Kalit so'zlar: huquqiy munosabat, huquqiy vositalar, axborot, norma ijodkorligi, norma ijodkorligini raqamlashtirish, normativ-huquqiy hujjatlar, axborot aylanishi

ИНФОРМАЦИОННОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ НОРМОТВОРЧЕСТВА: АНАЛИЗ ПРАВОВЫХ ОТНОШЕНИЙ И СРЕДСТВ

Соди́ков Акмал Шавкат угли,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
доцент кафедры «Теория государства и права»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье анализируются правовые отношения и средства, связанные с информационным обеспечением национального нормотворчества. Цель исследования заключается в разработке предложений, рекомендаций и выводов, направленных на

совершенствование законодательства и правоприменительной практики Республики Узбекистан, путём изучения правовых отношений и средств нормотворчества. Предметом исследования являются нормативно-правовые акты, правоприменительная практика, научно-теоретические подходы и правовые категории, связанные с нормотворчеством в Республике Узбекистан. В исследовании использованы исторический, системно-структурный, логический, индуктивный, дедуктивный, сравнительно-правовой методы, а также комплексное изучение научных источников и анализ статистических данных. Научная значимость статьи проявляется в её научно-теоретических выводах, предложениях и рекомендациях. Эти выводы способствуют повышению эффективности информационного обеспечения процесса нормотворчества, толкованию соответствующих норм нормативно-правовых актов, совершенствованию национального законодательства, обучению теории государства и права, нормотворчеству и юридической технике, а также обогащению этих областей с научно-теоретической точки зрения. Практическая значимость результатов исследования определяется возможностью их использования для совершенствования нормативно-правовых документов, регулирующих деятельность по информационному обеспечению нормотворчества, а также правоприменительной практики.

Ключевые слова: правовые отношения, правовые средства, информация, нормотворчество, цифровизация нормотворчества, нормативно-правовые акты, информационный обмен

INFORMATIONAL SUPPORT FOR RULEMAKING: ANALYSIS OF LEGAL RELATIONS AND MEANS

Sodikov Akmal Shavkat ugli,

Associate Professor of the Department of
Theory of State and Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. This article analyzes the issues of legal relations and means related to providing information to national rulemaking. The aim of the research is to develop relevant proposals, recommendations, and conclusions on improving the legislation and law enforcement practice of the Republic of Uzbekistan in this regard by studying the legal relations and means of rulemaking. The subject of the study is normative-legal documents related to rulemaking in the Republic of Uzbekistan, law enforcement practice, as well as scientific and theoretical conceptual approaches and legal categories. The research applied methods such as historical, systematic-structural, logical, induction, deduction, comparative-legal, comprehensive study of scientific sources, and analysis of statistical data. The scientific significance of the article is manifested in its scientific and theoretical conclusions, proposals, and recommendations. These conclusions serve to increase the effectiveness of information support for the rule-making process, interpret the relevant norms of regulatory legal acts, improve national legislation, provide education in the theory of state and law, rule-making, and legal technique, and enrich these areas from a scientific and theoretical point of view. The practical significance of the research results is determined by the possibility of their use in improving regulatory legal acts and law enforcement practice regulating the activities of providing information for rule-making.

Keywords: legal relation, legal means, information, rulemaking, digitization of rulemaking, normative legal documents, information circulation

Kirish

Norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash mexanizmini tadqiq etish,

avvalo, mazkur jarayonda axborot bilan ta'minlash munosabatlari hamda muayyan vositalarni tahlil etishni taqozo etadi.

Y.V. Skurkoning fikricha, norma ijodkorligi subyektlarining vakolati xususiyatlaridan kelib chiqib, axborot bilan ta'minlashni ichki va tashqi munosabatlarga ajratish mumkin.

Bunda ichki – qonun ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlovchi maxsus subyektlar o'rtasidagi munosabatlar, tashqi – ommaviy axborot vositalari hamda jamoatchilik bilan aloqalar natijasida yuzaga keladigan munosabatlar [1].

Albatta, olimaning fikrlarini e'tirof etish mumkin, biroq masala faqat qonun ijodkorligi faoliyati bilan cheklanib qolganligi hamda axborot manbalari mezonidan kelib chiqmaganligi sababli mazkur fikrga to'liq qo'shilishga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, ichki va tashqi munosabatlardan tashqari aralash ko'rinishdagi munosabatlarni ham inobatga olish masala mohiyatiga kompleks yondashishga yordam berar edi. Shu nuqtayi nazardan bu boradagi huquqiy munosabatlarni tahlil etish, tasniflash kategoriyalarini ishlab chiqish, axborot bilan ta'minlash vositalarining xususiyatlarini tadqiq etish talab etiladi.

Material va metodlar

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, mantiqiy, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish va statistik ma'lumotlar tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasi norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan ta'minlash borasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti O'zbekiston Respublikasida norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlashga oid normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, rivojlangan xorijiy mamlakatlar qonunchiligi hamda ilmiy-nazariy konseptual yondashuvlar va huquqiy kategoriyalar hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot ishi norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan ta'minlash me-

xanizmini rivojlantirish borasidagi istiqbolli yo'nalishlarni ishlab chiqishni ilgari suradi.

Tadqiqot natijalari

Norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash samaradorligini oshirish, avvalo, huquqiy munosabat tarkibi hamda mazkur munosabatda qo'llanadigan vositalarni tahlil etishni talab etadi. Norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash samaradorligini oshirish maqsadidan kelib chiqib, mazkur jarayondagi huquqiy munosabatlar zaruriy axborotni shakllantirish, qabul qilish, topshirish, hisobga olish, qayta ishlash, saqlash, to'plash, tizimlashtirish, yangilash, tarqatish, foydalanish yoki xavfsizligini ta'minlashni o'z ichiga olgan ichki va tashqi qayta aloqalarni qamrab oladi.

Norma ijodkorligi jarayonini proaktiv va reaktiv shaklda axborot bilan ta'minlash munosabatlarini ma'lum bir subyekt doirasida tadqiq etish, shu asosida ularning xususiyatlarini tahlil etish mazkur tadqiqot ishi qamrovini cheklab qo'yishi mumkin. Shu sababli bunday shakllarda axborot ta'minoti munosabatlarini norma ijodkorligi tizimiga to'liq tatbiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash vositalariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, avvalo, axborot yetkazish shakli, albatta, yozma, og'zaki yoki elektron ko'rinishda amalga oshirilishini ta'kidlash zarur. Ammo ularni yetkazish, to'plash, tahlil etish, qayta ishlashni amalga oshirish uchun muayyan vositalarni qo'llashni talab etadi.

Olimlarning ilmiy ishlari hamda ilg'or xorijiy tajribani kuzatish orqali norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlashda natijalar olish uchun quyidagi vositalardan foydalaniladi: moddiy yoki jismoniy vositalar, texnik vositalar, dasturiy vositalar, kriptografik vositalar, ma'muriy (tashkiliy) vositalar.

Shu bilan birga, "O'zbekiston – 2030" strategiyasining 80-maqsadi sifatida norma ijodkorligi faoliyatining islohotlar bilan uyg'unligini ta'minlash va davlat huquqiy siyosatining institutsional asoslarini rivojlan-

tirish masalasi keltirilgan. Shuningdek, qonunchilik hujjatlarini maqbullashtirish natijasida tartibga solish yukini kamida 30 foizga qisqartirish, to'g'ridan to'g'ri amal qiladigan qonunlarni qabul qilish amaliyotini kengaytirish va ularning ulushini kamida 60 foizga yetkazish, normativ-huquqiy hujjatlar ijrosining samarali monitoringini 100 foizga yetkazish, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining tartibga solish ta'sirini baholash hajmini kamida ikki baravarga oshirish, huquq tizimi raqobatbardoshligini oshirish hamda aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun qulay, sodda va ixcham qonunchilik tizimini yaratish kabi 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlari belgilangan. Bu esa mavzuning dolzarbligini ta'minlaydi.

Fikrimizcha, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiyo-ti, axborot almashinuvining tezligi va sifatini oshirish, ortiqcha tranzaksion sarf-xarajatlarni (vaqt, moddiy ta'minot va boshqa sa'y-harakatlarni) kamaytirish maqsadida moddiy yoki jismoniy ta'minot vositalaridan bosqichma-bosqich voz kechish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Axborot manbalarini yaratish va ulardan foydalanish munosabatlari yuzasidan M. Krzesajning fikri o'rinli bo'lib, uning ta'kidlashicha, norma ijodkorligida foydalani-ladigan axborot bo'yicha dastlabki muammo bu turli manbalardan olingan bir xil axborotning turli ta'sirga ega ekanligidir [2, 328-b.]. I.V. Kurtyak va A.P. Kurtyaklarning fikricha, norma ijodkorligida axborot almashinuvi "vertikal" va "gorizontal" munosabatlarni qamrab oladi [3].

Fikrimizcha, olimlarning bu boradagi fikrlari ma'muriy-huquqiy munosabatlar mezonidan kelib chiqishi axborot bilan ta'minlovchi mustaqil subyektlarni (ekspert, mutaxassis, jamoatchilik muhokamasi ishtirokchilari va boshqalar) chetlab o'tishga sabab bo'lishi mumkin.

V. Shany [4] va K.J. Strandburg [5] normativ-huquqiy hujjatlarning yuridik kuchidan kelib chiqib, birlamchi (primary legislation) va ikkilamchi (secondary legislation) qonunchilik jarayonini axborot bilan ta'minlashga ajratish mumkinligini ilgari surishadi. Bunda qonun ijodkorligi (oliy vakillik organi bo'lgan parlament tomonidan qabul qilinadigan qonunchilik hujjatlari) hamda boshqa vakolatli subyektlar tomonidan amalga oshiriladigan norma ijodkorligi faoliyati (acts of secondary legislation) [6] nazarda tutiladi.

Birlamchi norma ijodkorligi odatda qonun normalarini yaratish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda bekor qilish jarayonlarini axborot bilan ta'minlashni nazarda tutadi. Ikkilamchi norma ijodkorligi esa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan boshqa organlar (masalan, prezident, ijro hokimiyati, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari yoki mansabdor shaxslar) tomonidan amalga oshiriladigan norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlashni nazarda tutadi.

T. Garveyning fikricha, norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash "qayta aloqa"ga asoslangan bo'lishi, normativ-huquqiy hujjat bilan keng jamoatchilikni tanishtirish va aholining fikr-mulohazalarini o'rganish lozimligini qayd etib o'tadi [7, 9-b.]. Olim tomonidan qayd etilgan "qayta aloqa" tushunchasi AQSh va Buyuk Britaniya amaliyotida prinsip sifatida samarali qo'llanib kelmogda.

Xususan, Buyuk Britaniya parlamenti palatalari (House of Commons, House of Lords) ning idoraviy normativ-huquqiy hujjatlari qabul qilingan sanadan boshlab 40 kun ichida berilgan aholining fikr-mulohazalaridan kelib chiqib, "qayta aloqaga javoban" bekor qilinishi mumkin [8, 42-b.]. AQShda esa qonunosti hujjatlari qabul qilinganidan 30 kunlik mud-dat o'tgach kuchga kirishi belgilangan.

Ushbu amaliyot "regulatory sandboxes" (qum idishlari orqali tartibga solish) deb

nomlanadi. Mazkur amaliyot “qayta aloqa” prinsipini kuzatishga imkon berib, norma ijodkorligi uchun ijtimoiy fikr, aholining munosabati, tartibga solish ta’sirini baholashga doir axborot to’plashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi huquqshunos olimlarning tadqiqotlarini hamda ilg’or xorijiy tajribalarni tahlil etish orqali norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta’minlash munosabatlari zaruriy axborotni shakllantirish, qabul qilish, topshirish, hisobga olish, qayta ishlash, saqlash, to’plash, tizimlashtirish, yangilash, tarqatish, foydalanish yoki xavfsizligini ta’minlashni o’z ichiga olgan ichki va tashqi qayta aloqalarni qamrab olishi to’g’risida xulosaga kelish mumkin.

Ichki va tashqi munosabatlarga mamlakatimiz norma ijodkorligidan misol keltiradigan bo’lsak, ichki munosabat norma ijodkorligi subyekti o’z faoliyati natijasida zaruriy axborotni to’plashi, ya’ni boshqa tashqi manbalarga murojaat etmasligi bilan tavsiflanadi. Tashqi munosabat esa O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasida ko’rsatilgan qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari tomonidan O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qonun loyihalari va ularga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarni kiritish, shuningdek, mutaxassislar va jamoatchilik muhokamasini o’z ichiga oladi.

Shuningdek, norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta’minlash munosabatlarida ta’minlash shakllarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish zarur.

Turkiya parlamenti Tadqiqot markazi boshlig’i E. Hurma, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti bosh ilmiy xodimi J. Xudoberganov [9], TDYU ilmiy izlanuvchisi X. Botirovlar [10] tegishli axborot bilan ta’minlovchi subyektlar tomonidan jahon parlament tadqiqotlari markazlari o’z faoliyatini proaktiv va reaktiv shaklda olib borishini ta’kidlaydilar (forms of proactive and reactive information support). Bunda

proaktiv shakl tadqiqot markazi tashabbusi bilan amalga oshirilsa, reaktiv shakl tadqiqotlar parlament a’zolari yoki boshqa tashkilotlar so’rovi, topshirig’i yoki talabi asosida olib boriladi.

Bu masalada xorijiy olimlar tomonidan, xususan, E. Balmer prezident tomonidan qonun ijodkorligi jarayonini proaktiv yoki reaktiv shaklda axborot bilan ta’minlashini qonunchilik tashabbusi hamda veto huquqi asosida ko’rsatadi [11, 17-b.], L.B. Rasmussen esa proaktiv va reaktiv shakllarni vaqt birligi asosida tavsiflaydi (proaktiv – biror voqea sodir bo’lishidan avval, reaktiv – voqea sodir bo’lgandan so’ng) [12, 585-b.], A. Devis va D. Litviklar AQSh, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Meksika, Finlandiya, Hindiston va Yangi Zelandiya mamlakatlari qonunchiligi misolida davlat tomonidan fuqarolarni proaktiv shaklda axborot bilan ta’minlash masalasini tadqiq etganlar [13, 23-b.].

Fikrimizcha, proaktiv va reaktiv shaklda axborot bilan ta’minlash munosabatlarini ma’lum bir subyekt doirasida tadqiq etish, shu asosida ularning xususiyatlarini tahlil etish mazkur tadqiqot ishi qamrovini cheklab qo’yishi mumkin. Shu sababli bunday shakllarda axborot ta’minoti munosabatlarini norma ijodkorligi tizimiga to’liq tatbiq etish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta’minlash vositalariga to’xtalib o’tadigan bo’lsak, avvalo, axborot yetkazish shakli, albatta, yozma, og’zaki yoki elektron ko’rinishda amalga oshirilishini ta’kidlash zarur. Ammo ularni yetkazish, to’plash, tahlil etish, qayta ishlashni amalga oshirish uchun muayyan vositalarni qo’llashni talab etadi. Bu borada turli olimlarning o’ziga xos yondashuvlari mavjud.

O. Axmedova va X. Xasanovlar qaror qabul qilishda kriptografik vositalardan foydalanish afzalliklarini [14], A. Miriam davlat idoralari o’rtasida kriptografik axborot almashtiruvchi sifat darajasini oshirishga xizmat qilishini [15, 1057-b.], D. Richardson esa AQSh

parlamentiga davlat idoralari ma'lumotlarni asosan qog'oz (konsultatsiyalar, hisobotlar va taqdimnomalar) vositasida yetkazishini [16, 173-b.], B. Foks axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ma'lumotlarni taqqoslash imkoniyati yuzaga kelganligini [17, 90-b.], G.L. Pedrasa-Farinya va R. Uelenlar qaror qabul qilishda "tarmoq tizimlari" orqali axborot bilan ta'minlashning ahamiyatini [18, 67-b.], L. Rodrigues esa algoritmlarga asoslangan dasturiy ta'minotlar muhim bo'lib, subyektiv omillarni kamaytirishi mumkinligini [19, 1860-b.], A. Gudman esa kompyuter dasturlari yordamida ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash samaradorligini (computer-assisted review) oshirishga xizmat qilishini qayd etib o'tishadi [20, 23-b.].

Shuningdek, L. Tomson og'zaki nutq shaklini [21, 117-b.], Y.A. Selivanova axborot-texnologiya resurslardan norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlashda muhim vosita ekanligini [22, 165-b.], Sh.H. Fayziyev AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, GFR va Kanada mamlakatlari kabi mamlakatimizda qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari tomonidan qonun loyihalari moddiy yoki jismoniy vositalar yordamida taqdim etilishini bildirib o'tishadi [23, 240-b.].

Olimlarning fikr-mulohazalarini ilg'or xorij tajribasi bilan davom ettiradigan bo'lsak, GFR Bundestagi faoliyatini zaruriy axborot bilan ta'minlash dasturiy va texnik vositalarga tayanishi normativ-huquqiy hujjatlarining elektron bazasida kuzatiladi. GFR Konstitutsiyasining 91s-moddasiga ko'ra, Federatsiya va Lander (federatsiya subyekti) o'zlarining axborot texnologiyalari tizimlari orqali ma'lumotlar almashinish uchun zarur bo'lgan standartlar va xavfsizlik talablarini belgilashga kelishib olishlari zarur [24, 140-b.].

Mazkur norma boshqa ko'plab mamlakatlarda konstitutsiyaviy xarakterda emasligi ajablanarli hisoblansa, GFRda esa axborot almashinuviga qay darajada e'tibor qaratilganligini anglash qiyin emas.

Shvetsiyada norma ijodkorligi jarayonini huquqiy axborotdan samarali foydalanish uchun zaruriy ma'lumotlar bazasi [25] yaratilgan bo'lib, mazkur ma'lumotlardan keng jamoatchilik ham foydalanish imkoniyatiga ega. Shuningdek, XVI–XVIII asrlardagi qonunchilik ma'lumotlarini [26] ham olish imkoniyati berilganligi ilmiy tadqiqotchilarga onlayn rejimda tegishli axborotni tadqiq etishga zamin yaratadi.

Bu borada olimlarning ilmiy qarashlariga e'tibor beradigan bo'lsak, T. Kerikmya, T. Xofman va A. Chochialar [27] tomonidan axborot texnologiyalari amaliyotni boshqarish, katta miqdordagi ma'lumotlar (big data), elektron kashfiyotlar, bashoratli tahlillar, boshqarish va hujjatlarni saqlashda yordam berish vositasi sifatida e'tirof etiladi.

M.B. Styuartning fikricha, elektron norma ijodkorligini ishlab chiqish tashabbusi (e-rulemaking initiatives) iqtisodiy foydasidan ko'ra, axborot olish va baholash imkonini yaratish nuqtayi nazaridan yuqori baholanishi mumkin [28].

H.T. Odilqoriyevning qayd etishicha, bu boradagi faoliyatni ratsional tashkil etishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi [29, 73-b.].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-avgustdagi "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5505-sonli Farmonining 2-bandida norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida norma ijodkorligi jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish belgilangan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash zarur ekanligini ta'kidlab o'tishi [30] ham bu masalaga alohida e'tibor qaratishni talab etadi.

Odatda elektron hujjatlar bilan ishlash va elektron hujjat aylanishi tizimini yaratish dunyo mamlakatlarida maxsus qonun hujjat-lari bilan tartibga solinadi. Jumladan, mam-lakatimizda bu borada “Elektron hujjat ay-lanishi to‘g‘risida”gi va “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi qonunlar hamda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilingan.

Ammo mamlakatimizda norma ijodkorli-gi jarayonini axborot bilan ta‘minlash tizimi-ni raqamlashtirish masalasi e‘tibordan biroz chetda qolmoqda.

Ko‘plab xorijiy mamlakatlarda norma ijodkorligi jarayonini axborot almashinuvi allaqachon elektronlashtirish strategiyalari qabul qilinib, amalda sinovdan o‘tib ulgurgan. Xususan, Avstriyada “E-Recht” – “Electronic Law” [31], AQShda E-Government Act [32], Avstraliyada “ParlWork” [33], Daniyada “De-bureaucratisation Programm [34]” dasturla-rini misol tariqasida keltirib o‘tish mumkin.

Shuningdek, E. Shveyxoferning tadqiqot-lari asosida [35] Avstriyada “Konterm” – nor-mativ-huquqiy hujjatlar hajmi va tarkibini avtomatik ravishda tahlil etish (automatic representation of document structure and contents) tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, undan tegishli hujjatdagi so‘zlarni lingvistik tahlil etishda foydalanib kelinadi.

Yevropa Ittifoqi Parlamentining “E-Parlia-ment” dasturi [36] 2019-yildanoq axborot al-mashinuvini to‘liq elektronlashtirishni amal-ga oshirdi va bu bilan boshqa mamlakatlarga namuna vazifasini o‘tab berdi.

Bu borada mamlakatimiz qonunchili-gi o‘rganiladigan bo‘lsa, avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi “Davlat huquqiy siyosatini amal-ga oshirishda adliya organlari va muassasa-lari faoliyatini yanada takomillashtirish cho-ra-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5997-son Far-monida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda innovatsion usullarni norma ijodkorligi jarayoniga joriy etish orqali normativ-huquqiy hujjatlar loyi-halarini ishlab chiqish va kelishishning yago-

na elektron tizimini (<https://project.gov.uz>) yanada takomillashtirish vazifasi Adliya va-zirligiga yuklatilgan.

Mazkur yagona elektron tizim O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-av-gustdagi “Norma ijodkorligi faoliyatini ta-komillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5505-son Farmonining ijro-si yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish va-zirligi bilan birgalikda 2019-yil 1-yanvardan boshlab internet jahon axborot tarmog‘ida pilot loyihasi sifatida “Normativ-huquqiy huj-jatlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishish-ning yagona elektron tizimi” sinov tariqasida ishga tushirilgan.

Yagona elektron tizimdan O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respub-likasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublika-si Hukumati hujjatlari loyihalarini elektron ko‘rinishda ishlab chiqish, kelishish va ki-ritish jarayonida yagona elektron tizimdan majburiy foydalaniladi.

Shu bilan birga, dasturiy ta‘minot vosi-talaridan foydalanishga Vazirlar Mahkama-sining 2020-yil 14-apreldagi “Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qa-bul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, ke-lishish va ro‘yxatdan o‘tkazishning yagona elektron tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 218-son qarori misol bo‘lishi mumkin. Unga ko‘ra, bu sohada ham yagona elektron tizimni (<https://e-qaror.gov.uz>) jo-riy etish nazarda tutiladi. Mazkur qarorning 5-bandiga muvofiq, 2021-yil yanvar-may oylarida Qashqadaryo viloyatida “E-qaror” elektron tizimini aprobat-siya qilish bo‘yicha huquqiy eksperiment o‘tkazildi. Ushbu eks-periment natijalariga asoslanib, 2021-yil 1-iyuldan boshlab “E-qaror” elektron tizimi respublikaning barcha darajadagi mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida joriy etili-shi belgilandi.

Ammo milliy qonunchilikda qonun loyiha-larini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi-

ning Qonunchilik palatasiga real vaqt rejimida kiritish hamda qonunlarning xronologik tarixini kuzatish imkoniyatini taqdim etuvchi dasturiy ta'minotni yaratishga ehtiyoj mavjud.

Bunday dasturiy ta'minot vositalari na-faqat norma ijodkorligi faoliyatida ma'lumot almashish, to'plash va qayta ishlash uchun, balki keng jamoatchilikni axborot olishga bo'lgan huquqlarini ta'minlashga ham xizmat qilishi mumkin. Qonunchilik hujjatlari-ning statistikasi, xronologik tarixini izchil va to'laqonli yuritish bo'yicha AQSh tajribasini milliy qonunchiligimizda e'tiborga olish maq-sadga muvofiq deb bilamiz. Chunki AQShning GovTrack.us platformasi [37] orqali Kong-ressning qonunchilik faoliyati statistikasini hamda xronologik tarixini batafsil kuzatish mumkin hamda ilmiy tadqiqotlar olib borish-da keng qamrovli, ochiq ma'lumotlar ham taqdim etiladi.

Qarorlar qabul qilish sifatini yaxshilash uchun ishlab chiqilgan elektron demok-ratiya rasmiy sayti (E-democracy site to improve quality of rulemaking decisions) ma'lumotlariga qaraganda elektron norma ijodkorligi tufayli 94 million dollar miqdo-ridagi mablag' tejashga erishilgan [38, 1-b.]. Bunday natijaga erishishning asosiy sababi sifatida onlayn hujjat tizimlarining joriy eti-lishi (online docket systems), qog'oz sarfini kamaytirish va boshqa ma'muriy xarajatlarni qisqartirish keltirib o'tiladi.

Shuning uchun ham AQSh Boshqarish va budget idorasi (Office of Management and Budget) boshqa davlat organlarini elektron hujjat aylanmasini rivojlantirishga qaratil-gan axborot tizimi va resurslarini yaratishni rag'batlantiradi.

Buyuk Britaniyada ham norma ijod-korligi uchun zaruriy axborotlar bazasi shakllantirilgan bo'lib, u keng jamoatchi-lik uchun ochiqdir. Masalan, www.data.gov.uk portalida 5000 dan ortiq ma'lumotlar bazalari shakllantirilgan. 2000-yilda qa-bul qilingan "Axborot erkinligi to'g'risida"gi (Freedom of Information Act) qonunga mu-

vofiq davlat hokimiyati va boshqaruvi or-ganlari muntazam ravishda o'z faoliyatiga oid ma'lumotlarni keng jamoatchilik uchun e'lon qilishi lozim. Mamlakatda statistik ma'lumotlarni ham norma ijodkorlari uchun, ham jamoatchilik uchun Milliy statistika byu-rosi (The Office for National Statistics) [39] e'lon qilib boradi.

Darhaqiqat, bunday dasturiy ta'minot ti-zimlarini yaratish dastlab katta resurslarni talab etadi. Misol uchun, bu borada A. Singx dasturiy ta'minot tizimlari axborot xavfsiz-ligiga e'tiborni kuchaytirishini ta'kidlagan bo'lsa-da [40], bizningcha, bunday tizimlar norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnolo-giyalar vazirligi hamda "UZINFOCOM dav-lat axborot xizmatlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator" MChJ bilan birgalikda internet jahon axborot tarmog'ida pilot loyiha sifatida qonun loyi-halarini ishlab chiqish, O'zbekiston Respub-likasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish hamda uning tadrijiy xronologiyasini yuritish bo'yicha "E-qonun" yagona elektron tizimini ishga tushirish lozim.

Mazkur yagona elektron tizimning ustuvor vazifalari sifatida O'zbekiston Respubli-kasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qonun va palata qarorlari loyihalarini real vaqt rejimida onlayn kiritish imkoniyatini yaratish, qonun loyiholari va palata qarorla-rining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majli-sining Qonunchilik palatasiga kiritilishidan boshlab, rasmiy e'lon qilinishigacha bo'lgan tadrijiy xronologik bosqichlarni real vaqt re-jimida aks ettirib borish, boshqarish, moni-toring va nazorat qilish, axborot olish, foyda-lanish, saqlash, qayta ishlash, qonun loyihasi bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarga sarfla-nadigan vaqt, sarf-xarajat va mehnat resurs-larini sezilarli tejash kabilar belgilanishi lo-zim.

Bu borada ilmiy tadqiqotchilarning tahlillariga e'tibor qaratamiz. Jumladan, R.A. Abdusalomov axborotni qayta ishlashda "bulutli" va "tumanli" texnologiyalardan foydalanish odatdagi tizimlarning qotib qolishi, aloqani yo'qotish kabi muammolarga chek qo'yib, bir nechta shaxslar tomonidan istalgan hududda axborot ustida turli amallarni amalga oshirish imkonini yaratishini ta'kidlagan [41, 172-b.]. L.V. Magdilova esa "yangi ommaviy boshqaruv" (new public management) konsepsiyasining amalga oshirilishi axborot almashinuvini takomillashtirishga xizmat qilishini aytib o'tgan [42, 178-b.], J.S. Angeyo va P. Jexopiolar esa norma ijodkorligi jarayonida maqbul yechimni topish ishonchli axborotlardan foydalanishni talab qilishini, ma'lumotlarni izlash, ularning maqsadga muvofiqligi va ko'rib chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjat loyihasiga mosligini aniqlash axborot tizimlarida modellash va amalga oshirishni talab etishini qayd etgan [43, 55-b.].

AQShlik huquqshunos olim P. Frank bu boradagi zaruriy axborotlarni tasniflashda sun'iy intellekt algoritmlarini qo'llash lozimligini [44, 1927-b.], S.I. Nosov AQSh, XXR, Yaponiya, GFR, Koreya Respublikasi, Hindiston kabi davlatlar allaqachon sun'iy intellektdan qarorlar qabul qilishda samarali foydalanish bo'yicha huquqiy bazaga ega ekanligini ta'kidlashadi [45, 11-b.].

Zero, norma ijodkorligi jarayonida sun'iy intellekt yordamida zaruriy axborot ustida muayyan amallarni bajarishga ham maxsus vosita sifatida qarash mumkin.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish borasida sun'iy intellektdan foydalanish masalalari ham ilgari surilgan. Jumladan, 2019–2023-yillarga mo'ljallangan "Yevropa elektron adolat" harakatlari rejasini ("2019–2023 Action Plan of European e-Justice") [46] ishlab chiqilgan bo'lib, unda sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha

ma'lumotlarni o'rganish va hisobot tayyorlash masalasi tartibga solinadi.

Shuningdek, sun'iy intellektdan sud-huquq sohasida, sud qarorlarini tahlil qilishda ("artificial intelligence tool") [47, 24-b.] foydalanish rejalashtirilgan. Qayd etish joizki, sun'iy intellektdan norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlashda samarali foydalanish mumkin. Biroq neyron tarmoqlari (neural networks), ma'lumotlarni shakllantirish (data mining), ekspert tizimlari (expert systems)dan keng ko'lamda foydalanish imkoniyati mavjud.

"Data mining" tushunchasi axborotni qabul qilish, yozib olish va saqlash uchun texnik vositalarning takomillashtirilishi, shuningdek, dasturiy ta'minot yordamida axborot bazalarini mutaxassislar tomonidan shakllantirish jarayonlarini o'z ichiga oladi. "Data mining"dan foydalanish orqali axborot-huquqiy tizimlar (masalan, lex.uz, regulation.gov.uz va boshqalar)ning ma'lumotlar bazasini tahlil qilish, takroriy hujjatlarni topish, turli normativ-huquqiy hujjatlarda takrorlangan yoki aksincha, o'zaro kollizion normalarni aniqlash imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, norma ijodkorligi faoliyatining samaradorligini oshiradi.

Neyron tarmoqlarga (neural networks) to'xtaladigan bo'lsak, avvalo, unutmazlik joizki, norma ijodkorligi qaror qabul qilishning murakkab jarayoni bo'lib, normativ-huquqiy hujjatni yaratishda norma ijodkoridan katta mahorat va bilimlarni talab qiladi. Shu ma'noda, "neural networks" norma ijodkorligi jarayonini zaruriy axborot bilan ta'minlashda ko'plab ekspertizalarda foydalanish mumkin. Jumladan, normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasini amalga oshirishda to'g'ridan to'g'ri foydalanish mumkin. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2023-yil 30-oktabrdagi 17-maxsus son buyrug'i bilan tasdiqlangan normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalaridan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omil-

larni aniqlash hamda uslubiyatini tekshirish jarayonlari tegishli tartibda adliya organlari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Bunda neyron tarmoqlarni qo'llash mehnat samaradorligini oshirish, ekspertiza muddatini qisqartirishga xizmat qiladi. Neyron tarmoqlardan normativ-huquqiy hujjat loyihalaridagi korrupsion omillarni aniqlashda foydalanish, axborot ta'minotini soddalashtirish imkoniyatini ham taqdim etadi.

Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish metodikasi bo'yicha huquqni qo'llovchi subyektlarga asossiz ravishda ko'rib chiqishning keng doirasini yoki umumiy qoidalardan chiquvchi istisnolarni asossiz qo'llash imkoniyatini belgilovchi korrupsiyaviy omillar soni 29 tadir. Ularni aniqlash adliya organi xodimidan katta tajriba, bilim va mahoratni talab etadi. Agar qayd etilgan sun'iy intellekt dasturiy ta'minotlaridan foydalanish yo'lga qo'yilsa, bu xodimlarning mehnat faoliyati unumdorligini oshirishga, normativ-huquqiy hujjatlarning sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Nyu-York universiteti olimlari S. Undavia, A. Meyers, J.E. Orteglar tomonidan 2018-yilda amalga oshirilgan tajriba shuni ko'rsatganki, neyron tarmoqlar bilan ishlovchi Oliy Sud hujjatlarining tasnifi (Supreme Court Classifier) tizimi 15 kategoriyadagi hujjatlarni tegishliligi bo'yicha tasniflashda 72,4 % aniqlik ko'rsatgan [48, 522-b.].

Shunday qilib, norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlash munosabatlari ichki va tashqi "qayta aloqa" tizimlariga asoslanib, samarali qaror qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish katta resurslarni talab etadi, ammo mehnat samaradorligini oshirishga, ortiqcha xarajatlarni tejashga, axborot almashinuvining tezkorligi hamda sifatiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir etadi.

Xulosalar

Milliy norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlash munosabatlari hamda vositalarini tahlil etish orqali bir qancha xulosalar berildi hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlash munosabatlari ishtirokchilari (subyektlari) turidan kelib chiqib: ichki, tashqi va aralash; axborot bilan ta'minlash tashabbusi mezoniga ko'ra: faol, sust va aralash kabi turlarga tasniflash mumkin.

Norma ijodkorligi faoliyatini zaruriy axborot ma'lumotlari hamda materiallari bilan ta'minlashda sun'iy intellekt vositalarini ("artificial intelligence tool") qo'llashning qulayliklari asoslab berildi. Qayd etish joizki, sun'iy intellektidan norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlashda samarali foydalanish keng tushuncha bo'lib, sun'iy intellektning ayrim turlaridagina axborot ta'minotida samarali foydalanish mumkin deb hisoblaymiz. Jumladan, neyron tarmoqlar (neural networks), ma'lumotlarni shakllantirish (data mining), ekspert tizimlaridan (expert systems) keng ko'lamda foydalanish imkoniyati asoslanadi.

Olimlarning ilmiy ishlari hamda ilg'or xorijiy tajribani kuzatish orqali norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlashda quyidagi vositalardan foydalanish to'g'risidagi quyidagi natijalar olindi:

1) moddiy yoki jismoniy vositalar – ma'lum harakatlar natijasida vujudga keladigan yozishmalar, ilova hujjatlari, axborot-tahliliy materiallar va boshqa muayyan moddiy shaklga ega bo'lgan jismoniy manbalar orqali axborot almashish chora-tadbirlari;

2) texnik vositalar – axborot bilan ta'minlashda moddiy ko'rinishdagi texnik, aloqa, axborot-kommunikatsiya vositalari orqali axborot almashish chora-tadbirlari;

3) dasturiy vositalar – moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan, maxsus algoritmlar asosida ishlovchi, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari va boshqa dasturiy ta'minot vositalari orqali axborot almashish chora-tadbirlari;

4) kriptografik vositalar – maxfiy yoki maxsus ma'lumotlarni yaratish, o'zgartirish kiritish, bekor qilish, uzatish, qayta ishlash mumkin bo'lgan, alohida himoya qilish maqsadida foydalaniladigan axborot almashish chora-tadbirlari;

5) ma'muriy (tashkiliy) vositalar – tegishli axborotni olish, yaratish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va boshqa amallarni bajarish vakolatli subyektlarning tarkibiy tuzilmalari, bo'ysunuvdagi tashkilotlarning tegishli tartib-taomillar doirasidagi harakatlari asosida axborot almashish chora-tadbirlari.

Qonun ijodkorligini axborot bilan ta'minlash bo'yicha internet jahon axborot tarmog'ida pilot loyiha sifatida qonun loyihalarini ishlab chiqish, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish hamda uning tadrijiy xronologiyasini

yuritish bo'yicha "E-qonun" yagona elektron tizimini ishga tushirish zarur.

Mazkur yagona elektron tizimning ustuvor vazifalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qonun va palata qarorlari loyihalarini real vaqt rejimida onlayn kiritish imkoniyatini yaratish, qonun loyihalari va palata qarorlarining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritilishidan boshlab, rasmiy e'lon qilinishigacha bo'lgan tadrijiy xronologik bosqichlarni real vaqt rejimida aks ettirib borish, boshqarish, monitoring va nazorat qilish, axborot olish, foydalanish, saqlash, qayta ishlash, qonun loyihasi bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarga sarflanadigan vaqt, sarf-xarajat va mehnat resurslarini sezilarli tejash kabilar belgilanishi lozim.

REFERENCES

1. Skurko Ye.V. Informatsionno-pravovoye obespecheniye zakonodatel'noy deyatel'nosti v Rossiyskoy Federatsii [Information and legal support for legislative activity in the Russian Federation]. Moscow, RGB, 2003, pp. 35–36.
2. Krzesaj M. Information quality problems on websites. Silesian University of Technology, 2019, vol. 136, pp. 323–337.
3. Kurtyak I.V., Kurtyak A.P. Normotvorcheskiye otnosheniya v sisteme administrativnykh pravootnosheniy [Norm-making relations in the system of administrative legal relations]. *Sociology and Law*, 2012, vol. 1 (12), pp. 91–92.
4. Shany W. Extraordinary policymaking powers of the executive branch: a new approach. *Virginia Environmental Law Journal*, 2019, vol. 37/3, pp. 207–271.
5. Strandburg K.J. Rulemaking and inscrutable automated decision tools. *Columbia Law Review*, 2019, vol. 119/7, pp. 1851–1886.
6. Mortenson J.D. Article II Vests the executive power, not the royal prerogative. *Columbia Law Review*, 2019, vol. 119/5, pp. 1169–1272.
7. Garvey T. A brief overview of rulemaking and judicial review. *Congressional Research Service*, 2017, vol. 7-5700, pp. 1–17.
8. The legislative process: the delegation of powers. Select committee on the constitution 16th report of session 2017-2019. The Authority of the House of Lords Publ., 2019, pp. 1–42.
9. Hurma E., Xudoberganov J. Turkiya Buyuk Millat Majlisi tadqiqot bo'limining asosiy yo'nalishlari [Main areas of research of the Turkish Grand National Assembly.]. Tashkent, KMPTI Publ., 2021, pp. 14–18.
10. Botirov X. Parlament tadqiqot xizmatlari faoliyatini takomillashtirish: xalqaro amaliyot tahlili [Improving the activities of parliamentary research services: an analysis of international practice]. Tashkent, KMPTI Publ., 2021, pp. 47–52.

11. Bulmer E. Presidential legislative powers. Stockholm, International IDEA Publ., 2017, vol. 2, pp. 1–41.
12. Rasmussen L.B. From reactive to proactive approach of interactive leadership. in *The Ambivalent Character of Participation: New Tendencies in Worker Participation in Europe*, 2010, vol. 20/1, pp. 585–612.
13. Davies A., Lithwick D. Government 2.0 and Access to Information: 2. Recent Developments in Proactive Disclosure and Open Data in the United States and Other Countries. Ottawa, Canada. Library of Parliament, 2010, pp. 1–23.
14. Xasanov X., Axmedova O. Axborot xavfsizligi uchun kriptografik vositalar [Cryptographic tools for information security]. Tashkent, DBA, *Society and Management*, 2015, vol. 2, pp. 45–51.
15. Miriam A. Blockchain technology for environmental compliance: towards a 'choral' approach. *Environmental Law*, 2020, vol. 50/4, pp. 1055–1103.
16. Richardson D. Congressional control of agency expertise. *Virginia Law Review*, 2019, vol. 105/1, pp. 173–261.
17. Fox B. Closing the information gap: informing better medical decisionmaking through the use of post-market safety and comparative effectiveness information. *Food and Drug Law Journal*, 2012, vol. 67/1, pp. 83–101.
18. Pedraza-Fariña L.G., Whalen R. A network theory of patentability. *The University of Chicago Law Review*, 2020, vol. 87/1, pp. 63–144.
19. Rodriguez L. All data is not credit data: closing the gap between the fair housing act and algorithmic decisionmaking in the lending industry. *Columbia Law Review*, 2020, vol. 120/7, pp. 1843–1884.
20. Goodman A. Predictive coding: a better way to deal with electronically stored information. *Litigation*, 2016, vol. 43/1, pp. 23–27.
21. Thompson L. Making British law. Committees in action. University of Surrey, UK, Palgrave Macmillan, 2015, p. 161.
22. Selivanova Ye.A. Informatsionnoye obespecheniye deyatel'nosti Gosudarstvennoy Dumy Federal'nogo Sobraniya Rossiyskoy Federatsii: opyt, problemy, perspektivy [Information support for the activities of the State Duma of the Federal Assembly of the Russian Federation: experience, problems, prospects]. Moscow, 2008, p. 229.
23. Fayziev Sh.H. Qonun ijodkorligi jarayonini takomillashtirish: milliy va xorijiy tajriba [Improving the lawmaking process: national and foreign experience]. Tashkent, Adolat Publ., 2020, p. 240.
24. Tomuschat C., David P., Donald P., Raymond K. The basic Law of Federal Republic of German. Berlin: Language Service of the German Bundestag, 2019, p. 140.
25. The official web page of Sweden Riksdag. Available at: <http://data.riksdagen.se/data/dokument/>
26. Riedl J. Uncovering legislative pace in Germany: A methodical and computational application to answer temporal questions of law-making. *Government Information Quarterly*, 2019, vol. 36, pp. 1–12.
27. Kerikmäe T., Hoffmann T., Chochia A. Legal technology for law firms: Determining roadmaps for Legal Technology for Innovation. *Croatian International Relations Review*, 2018, vol. 24 (81), pp. 91–112.
28. Stuart M.B. Evaluating e-rulemaking: public participation and political institutions. *Duke Law Journal*, 2006, vol. 55, pp. 893–941.
29. Odilqoriev X.T. O'zbekiston davlati va jamiyatining innovatsion rivojlanishining huquqiy jihatlarlari [Legal aspects of the innovative development of the state and society of Uzbekistan]. Tashkent, Innovative Development Publ., 2019, p. 73.
30. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi [Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis]. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/3324>

31. The official webpage of the Austrian system E-Recht. Available at: www.ris.bka.gv.at
32. Public law. Available at: <https://www.congress.gov/107/plaws/publ347/PLAW-107publ347.pdf>
33. The official platform of the Australian Parliament. Available at: <https://parlwork.aph.gov.au>
34. Better Regulation in Denmark. Better regulation in Europe: an assessment of regulatory capacity in 15 member states of the European Union. Paris. OECD, 2009, p. 33. Available at: <https://www.oecd.org/denmark/43325733.pdf>
35. Schweighofer E. Legal expert system KONTERM – automatic representation of document structure and contents. *DEXA*, 1993, vol. 720, pp. 486–497.
36. EU official webpage. Available at: <https://europa.eu/digitec/news/eparliament-project>
37. Find your representative and senators. Available at: <https://www.govtrack.us>
38. E-democracy site to improve quality of rulemaking decisions. U.S. Newswire Publ., 2003, p. 1.
39. The Office for National Statistics. Available at: <https://www.ons.gov.uk>
40. Singh A. Data protection: India in the information age. *Journal of the Indian Law Institute*, 2017, vol. 59/1, pp. 78–101.
41. Abdusalomov R.A. Problemy sovershenstvovaniya natsional'nogo oblachnogo zakonodatel'stva [Problems of improving national cloud legislation]. *Law and Right*, 2019, vol. 10, pp. 169–172.
42. Magdilova L.V. Pravovyye osnovy informatsionnogo vzaimodeystviya organov gosudarstvennoy vlasti i grazhdan pri okazanii publichnykh uslug [Legal basis for information interaction between government bodies and citizens in the provision of public services]. *Law and Right*, 2019, vol. 10, pp. 177–179.
43. Angeyo J.S., Jehopio P. An artificial neural network model for regulating legislative drafting practices in Uganda. pp. 51–67.
44. Frank P. Data-informed duties in AI development. *Columbia Law Review*, 2019, vol. 11/7, pp. 1927–1940.
45. Nosov S.I. Pravo i informatizatsiya [Law and informatization]. *Lawyer Publ.*, 2019, vol. 4, pp. 6–13.
46. Official webpage of the EU Legislative Database. Available at: [https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=CELEX:52019XG0313\(02\)&rid=6](https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=CELEX:52019XG0313(02)&rid=6)
47. Action Plan European e-Justice 2019-2023. *Official Journal of the European Union*, 2019, vol. 96/9, pp. 1–24.
48. Undavia S., Meyers A., Orteg J.E. A comparative study of classifying legal documents with neural networks. Proceedings of the federated conference on computer science and information systems. *ACSIS*, 2018, vol. 15, pp. 515–522.

Kelib tushgan / Получено / Received: 14.11.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 03.02.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 17.02.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.1./VINX6590

UDC: 347:004.8(045)(575.1)

SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARI OSHIQCHA XAVF MANBAYI SIFATIDA: FORS-MAJOR HOLATI

Isanov Xolmurod Ruziyevich,
Toshkent davlat agrar universiteti
Huquqshunoslik kafedrası dotsenti,
yuridik fanlar doktori
ORCID: 0009-0003-2313-4730
e-mail: isanov59x@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada oshiqcha xavf manbayı bo'lgan sun'iy intellekt tizimlarida yuzaga keladigan fors-major holatining fuqarolik-huquqiy xususiyatlari ilmiy tahlil qilingan. Jumladan, fors-major holati tushunchasi, huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari xohish-irodasi va xatti-harakatlariga bog'liq bo'lmagan oldindan bashorat qilish, muayyan sharoitlar oqibatining oldini olish yoki bartaraf etish mumkin bo'lmagan favqulodda va muqarrar hodisa natijasida majburiyatlarning buzilishi hamda aybsiz zarar yetkazilishiga olib kelgan holatlar muhokama qilingan. Xususan, sun'iy intellekt tizimlari bilan insonlar o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanib borayotganligi ba'zan mazkur tizimlarning insonga zarar yetkazishi va bunday zararlar turli-tuman tasodifiy hodisalar yoki sun'iy intellekt tizimlarida vujudga keladigan texnologik nosozliklar, dasturiy xatolar tufayli yuzaga kelishi tahlil qilingan. Shu bilan birga, huquqshunos olimlar va amaliyotchilarning sun'iy intellekt tizimlari huquqiy maqomi to'g'risida bildirgan fikrlari o'rganilgan. Sun'iy intellekt tizimlari jarayonlari ustidan amalga oshiriladigan nazoratning mutlaq emasligi va mazkur tizimlarda yuzaga keladigan texnologik nosozliklar, dasturiy xatolar yoki to'satdan sodir bo'lgan tasodiflar tufayli insonlarga yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni belgilashda fors-major holatining fuqarolik-huquqiy xususiyatlari ochib berilgan. Maqolada, shuningdek, fors-major holatida sun'iy intellekt tizimlari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni istisno etishning asoslari bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt tizimlari, oshiqcha xavf manbayı, fors-major holati, texnologik nosozlik xatolari, dasturiy xatolar, sun'iy intellekt tizimlari egasi, zarar yetkazgan shaxs, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, javobgarlikni istisno etish asosi

СИСТЕМЫ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА КАК ИСТОЧНИК ПОВЫШЕННОЙ ОПАСНОСТИ: ФОРС-МАЖОРНЫЕ ОБСТОЯТЕЛЬСТВА

Исанов Холмурод Рузиевич,
доктор юридических наук, доцент кафедры «Правоведение»
Ташкентского государственного аграрного университета

Аннотация. В данной статье проведён научный анализ гражданско-правовых характеристик форс-мажорных обстоятельств, возникающих в системах искусственного интеллекта, являющихся источником повышенной опасности. Рассмотрены понятие

форс-мажорных обстоятельств, при которых нарушение обязательств и причинение вреда происходит без вины, вследствие чрезвычайного и неизбежного события, не зависящего от воли и действий участников правоотношений, которое невозможно было предвидеть, предотвратить или устранить при определённых условиях. Особое внимание уделено развитию взаимодействия между системами искусственного интеллекта и человеком, что иногда приводит к причинению вреда человеку. В статье анализируются различные случайные события, технологические сбои и программные ошибки, возникающие в системах искусственного интеллекта, которые могут становиться причинами такого вреда. Также рассматриваются мнения учёных-правоведов и практиков о правовом статусе систем искусственного интеллекта. Показано, что контроль над процессами, протекающими в системах искусственного интеллекта, не является абсолютным. Выявлены гражданско-правовые особенности форс-мажора при определении ответственности за вред, причинённый человеку вследствие технологических сбоев, программных ошибок или случайных непредвиденных событий, происходящих в таких системах. Кроме того, в статье предложены основания для освобождения от ответственности за вред, причинённый системами искусственного интеллекта в условиях форс-мажорных обстоятельств.

Ключевые слова: системы искусственного интеллекта, источник повышенной опасности, форс-мажорные обстоятельства, технологические сбои, программные ошибки, владелец системы искусственного интеллекта, причинитель вреда, гражданско-правовая ответственность, основания освобождения от ответственности

ARTIFICIAL INTELLIGENCE SYSTEMS AS A SOURCE OF EXCESSIVE RISK: FORCE MAJEURE SITUATION

Isanov Kholmurod Ruziyevich,

Associate Professor of the Department of Jurisprudence,
Tashkent State Agrarian University,
Doctor of Science in Law

Abstract. This article scientifically analyzes the civil law features of force majeure arising in artificial intelligence systems, which are a source of increased danger. The concept of force majeure, circumstances that do not depend on the will and actions of the participants in the legal relationship and lead to the breach of obligations and unlawful damage as a result of an extraordinary and inevitable event, the consequences of which cannot be prevented or eliminated under certain circumstances, is also discussed. In particular, the development of relations between artificial intelligence systems and humans has been analyzed; sometimes these systems cause harm to humans, and such losses occur due to various random events or technological failures, software errors that occur in artificial intelligence systems. At the same time, the opinions of legal scholars and practitioners on the legal status of artificial intelligence systems were analyzed. The non-absolute control over the processes of artificial intelligence systems and the civil-legal features of force majeure in determining responsibility for damage caused to people due to technological failures, software errors, or sudden accidents occurring in these systems are revealed. The article also developed proposals on the grounds for excluding liability for damage caused by artificial intelligence systems in the event of force majeure.

Keywords: artificial intelligence systems, source of increased risk, force majeure, technological malfunction, software errors, owner of an artificial intelligence system, person who caused damage, civil liability, grounds for excluding liability

Kirish

Sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada keng qo'llanishi insonlar uchun ulkan imkoniyatlarni yaratib berish bilan bir qatorda, o'z navbatida, ayrim muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Bularni bevosita sun'iy intellekt tizimlarining o'ziga xos xususiyatlarga egaligi, ya'ni texnologiyalarning keyingi rivojlanishi bilan mazkur tizimlarning yanada kuchliroq va murakkabroq bo'lib borishi natijasida o'z-o'zini o'rganish, avtonom, aqlli harakat qilishga, hatto mustaqil ravishda qarorlar qabul qilishga qodir bo'lishi bilan izohlash mumkin. Xususan, bugungi kunda sun'iy intellekt tizimlarining huquqiy maqomi masalasi nihoyatda munozarali bo'lib, bu ular tomonidan favqulodda holatlarda yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni belgilashda fors-major holatining fuqarolik-huquqiy xususiyatlarini ilmiy-nazariy tadqiq etishni taqozo etadi.

Tadqiqotning dolzarbligi

Butun dunyoda, jumladan, anglo-sakson, roman-german va islom huquqi tizimi mamlakatlarida fors-major holati ham ilmiy kategoriya, ham qonunchilik segmenti, ham sud amaliyoti kategoriyasi sifatida mavjud bo'lib, u barcha mamlakatlarda kutilmagan vaziyatlar taqozosiga ko'ra mushkul ahvolga tushib qolgan subyektlarni adolat hamda insof asosida himoya qilish funksiyasini muvaffaqiyatli bajarib kelmoqda. Shu bilan birga, huquqni qo'llash amaliyotida sun'iy intellekt tizimlari tomonidan favqulodda holatlarda yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni belgilashda, fors-major holatining mavjudligini aniqlash va uni javobgarlikni istisno etishning asosi sifatida qo'llash bo'yicha turlicha yondashuvlar mavjud.

Respublikamizda davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyot, sanoat, ijtimoiy himoya, ta'lim, tibbiyot, bandlik, qishloq xo'jaligi, mudofaa, xavfsizlik, turizm va boshqa sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan tobora kengroq foydalanilmoqda. Jumladan, ushbu maqsad-

larda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-sonli qarori 1-ilovasi ko'ra, "sun'iy intellekt – insonning bilim va ko'nikmalariga taqlid qilish imkonini beruvchi (shu jumladan, mustaqil ravishda o'rganish va yechimlarni izlash) hamda aniq vazifalarni bajarishda inson aqliy faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan natijalarni olish imkonini beradigan texnologik yechimlar majmui" ekanligi ta'kidlangan hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani xalqaro tajriba asosida ishlab chiqish va milliy qonunchilikni takomillashtirish nazarda tutilgan.

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalarining yanada murakkablashib borayotganligi sun'iy intellekt tizimlari tomonidan boshqariladigan jarayonlarga insonning har qanday aralashuvini kuzatish yoki ko'rishni deyarli imkonsiz qilmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari qanchalik murakkab va mustaqil bo'lsa, ushbu tizim harakatlarining oqibatlarini insonlarga bog'lash shunchalik murakkab bo'ladi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt tizimlarida ayrim obyektiv ta'sirlarning mavjudligi, ularning tevarak-atrofdagilar uchun xavfsizligini to'liq ta'minlash imkoniyatlari cheklanganligi ularning oshiqcha xavf manbai ekanligini ko'rsatmoqda. Masalan, sun'iy intellekt boshqarayotgan "avtonom avtomobil" ishtirokidagi yo'l-transport hodisasi yuz berganda, ushbu hodisaning (obyektiv va subyektiv) sabablarini aniqlash va aybdorlik masalasini adolatli hal etish, jumladan, avtomobil egasi yoki uni ishlab chiqaruvchi kompaniya yoxud yo'l harakati qoidalarini buzgan piyoda, yoxud uchinchi shaxslarning yetkazilgan zarar uchun javobgarligini aniq belgilab berish muhim hisoblanadi. Jumladan, "avtonom avtomobil" ishtirokidagi yo'l-transport hodisasi favqulodda holatlarda yuz berganda sun'iy intellekt tizimlari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni bel-

gilashda fors-major holatining mavjudligini aniqlash yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, M.P. Redinning fikricha, “oshiqcha xavf manbayidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik yuridik shaxslar va fuqarolarning ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanishda kelib chiqqan salbiy oqibatlar uchun to’lovidir” [1]. Bundan ko’rinadiki, oshiqcha xavf manbayi sifatida sun’iy intellekt tizimlari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni belgilashda fors-major holatining mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash bilan birga, uni javobgarlikni istisno etishning asosi sifatida to’g’ri qo’llash ham nihoyatda muhim.

Mamlakatimiz milliy huquq doktrinasida, jumladan, sivilistika nazariyasida ham sun’iy intellekt tizimlarida fors-major holatining huquqiy tabiati tadqiq etilmagan, shuningdek, huquqni qo’llash amaliyotida fors-major holatiga nisbatan yagona yondashuvlar shakllanmagan. Bizning fikrimizcha, mamlakatimizning yaqin kelajakdagi taraqqiyoti ko’p jihatdan sun’iy intellekt tizimlari bilan bog’liq munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarning samaradorligiga bog’liq. Ko’rsatib o’tilganlar fors-major holatiga oid huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bilan bog’liq ilmiy-nazariy va amaliy muammolar dolzarbligi hamda mazkur muammolarni hal etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar, tavsiyalar ishlab chiqish zarurati borligidan dalolat beradi. Ushbu tadqiqot ishi bunday vazifani bajarishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Material va metodlar

Tadqiqotda huquqshunos olimlarning sun’iy intellekt tizimlari, ularning huquqiy maqomi, javobgarligi to’g’risidagi ilmiy-nazariy qarashlari va Yevropa ittifoqi qonunchilik normalaridan foydalanildi hamda qiyosiy-huquqiy, mantiqiy-yuridik va tizimli tahlil, sintez, umumlashtirish metodlari qo’llandi.

Tadqiqot natijalari

Sun’iy intellekt tizimlariga oid ilmiy adabiyotlarda “sun’iy intellekt tizimlari rivojlanib borishi bilan birga, kelajakda jamiyatni

boshqarishda inson ishtiroki har doim ustun bo’lishi kerakligi va har qanday yakuniy qarorni qabul qilish insonning o’zida qolishi kerak”ligi ta’kidlanadi [2]. Ayrim tadqiqotchilar esa sun’iy intellekt tizimlarining huquqiy maqomi ularning maqsadi va imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanishi kerak, deya ta’kidlaydilar. Jumladan, P.N. Biryukovning ta’kidlashicha, “yaqin-yaqin vaqtlargacha mashinaning harakatlari uchun javobgarlikni belgilash masalasi aniq va bir tomonlama hal qilingan. Har qanday mashina boshqaruvchining qo’lidagi asbobga o’xshaydi va shundan kelib chiqib, agar to’g’ridan to’g’ri sun’iy intellekt to’g’risida gapiradigan bo’lsak, sun’iy intellekt tushunchasiga vosita sifatida (*AI-as-tool*) qaraladi. Unga ko’ra, tizim o’z xohishirodasiga ega emas, qarorlarni insonlar qabul qiladi va shunga mos ravishda uning egasi yoki ishlab chiqaruvchi bunday tizim faoliyati natijalari uchun javobgardir” [3]. P.M. Morxatning fikricha, “sun’iy intellektning funksional maqsadi va imkoniyatlariga qarab, u inson vositasi sifatida yoki “elektron shaxs” maqomiga ega bo’lishi mumkin va ba’zi holda kelajakda to’liq yuridik shaxs maqomiga ega bo’lishi mumkin” [4]. Boshqa tadqiqotchilarning fikricha, “agar sun’iy intellektning yanada jadal rivojlanishi uni aqlli insonga o’xshash robot sifatida e’tirof etish mumkin bo’lgan darajaga ko’tarishga imkon beradigan bo’lsa, u holda albatta qonunchilikka tegishli o’zgartirishlar kiritish talab etiladi” [5].

Ba’zi olimlar “sun’iy intellekt tizimlarini suiiste’mol qilishga inson manipulyatsiyasining oldini olish uchun ularni intellektual mulk huquqi obyekt deb hisoblab, ularga alohida huquqiy maqom bermaslik”ni taklif qiladilar” [6]. Fikrimizcha, agar sun’iy intellekt intellektual mulk huquqi obyekt sifatida tan olinsa ham, yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxs qat’iy ravishda aniq ko’zga tashlanib turmaydi. Boshqa tadqiqotlarda esa “sun’iy intellekt tizimlari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni ularning ishlab chiqaruvchilari yoki dasturiy ta’minotchilari

yoxud egasi hisoblanuvchi yuridik va jismoniy shaxs zimmasiga yuklash lozim”ligi ta’kidlanadi [7]. Shuningdek, “zarar yetkazish vaqtida sun’iy intellekt tizimlarini bevosita boshqargan shaxslar (operatorlar) yoki o’z-o’zini o’qitish tizimlarida tyutor vazifasini bajaruvchi shaxslar javobgar bo’lishi lozim”ligi to’g’risida fikrlar bildirilgan [8]. Bizning fikrimizcha, sun’iy intellekt tizimlari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni belgilashda har doim va har qanday vaziyatda ham bunday yondashuv to’g’ri bo’lavermaydi. Chunki sun’iy intellekt tizimlari faoliyatida yuz beradigan va eng muhimi, ularning harakatlariga bog’liq bo’lmagan, oldindan bashorat qilish, muayyan sharoitlarda oqibatlarining oldini olish yoki bartaraf etish mumkin bo’lmagan favqulodda va muqarrar hodisalar ham borki, bunday hodisalar natijasida aybsiz zarar yetkazilishi mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, sun’iy intellekt tizimlari bilan bog’liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish muammolari, “yakuniy mahsulot” sifatida ularning yaratuvchisi hisoblangan ishlab chiqaruvchilar mas’uliyatini birinchi o’ringa qo’ymoqda. Zero, masalaning bunday qo’yilishi mavjud muammolarni, birinchi navbatda, sun’iy intellekt tizimlarining javobgarligini huquqiy tartibga solishdagi bo’shliqlar, jumladan, zarar yetkazilgani uchun javobgarlik masalasini to’g’ri va adolatli hal etishdan iborat.

Yevropa parlamenti tomonidan “Robot texnikasi to’g’risida fuqarolik huquqi normalari” bo’yicha 2017-yilda qabul qilingan rezolyutsiyada javobgarlikning boshqa turlariga qo’shimcha ravishda robotlarga “elektron shaxs” maxsus huquqiy maqomi berilishi taklif etilgan va mazkur hujjatda aniq qilib ko’rsatilmagan bo’lsa-da, lekin robotlarning yetkazilgan zarar uchun mustaqil ravishda javob bera olishi ko’rsatib o’tilgan [9]. Shuningdek, Yevropa parlamenti tomonidan “Sun’iy intellekt texnologiyasidan foydalanishda yuzaga keladigan fuqarolik javobgarligi” bo’yicha 2020-yilda qabul qilingan rezol-

yutsiyada aniq qilib sun’iy intellekt tizimlari yuridik shaxs maqomi va inson ongiga ega emasligi, aynan sun’iy intellekt inson yordamchisi sifatida ko’rsatilib, texnik jihatdan sun’iy intellekt tizimlari tomonidan boshqariladigan harakatlar va jarayonlar yetkazilgan zararining bevosita yoki bilvosita sababi bo’lishi mumkinligiga qaramay, tizimning ishlashiga qandaydir doimiy ravishda xalaqit beradigan shaxs mavjudligi ta’kidlangan [10]. Fikrimizcha, Yevropa parlamentining sun’iy intellekt tizimlari uchun yagona qoidalarini belgilovchi va Yevropa Ittifoqining ayrim qonun hujjatlariga o’zgartirishlar kirituvchi rezolyutsiyalari sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanishni tartibga solishning huquqiy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega va shu bilan birga, ushbu hujjatlarni fuqarolarning huquq va erkinliklari himoya qilish, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni xavfsizlik va qonuniylik tamoyillari asosida tartibga solishning vositasi sifatida yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Ko’rinib turibdiki, sun’iy intellekt tizimlarining to’liq yoki qisman yuridik shaxs maqomiga ega emasligi (huquq va majburiyatlarga ega bo’la olmasligi va o’z harakatlari uchun javobgar ham bo’la olmasligi), ya’ni ular oshiqcha xavf manbayi sifatida yetkazilgan zarar uchun ularning egalari (ishlab chiqaruvchilar, operatorlar va boshqalar) javobgar bo’lishini talab etadi. Biroq qonun chiqaruvchi tomonidan sun’iy intellekt yoki sun’iy intellekt tizimlari oshiqcha xavf manbayi sifatida tan olingan holda uning tushunchasi mazmun-mohiyati ochib berilmagan. A.A. Antonovning fikricha, “qonun chiqaruvchi sun’iy intellektning oshiqcha xavf manbayi sifatida tushunchasi mazmunini bermaganligi huquqni qo’llash amaliyotiga salbiy ta’sir ko’rsatadi” [11]. Shuningdek, “oshiqcha xavf manbayi moddiy olam obyektlarini o’z ichiga olgani holda: a) ulardan foydalanish jarayonida doimiy nazoratni amalga oshirib bo’lmaydi; b) fuqarolarning jismoniy yoki texnik nuqsonlari bilan bog’liq ravishda

ularning shaxsiy va mulkiy huquqlariga zarar yetkazadi” [12]. A.A. Antonov fikrlariga to’liq qo’shilgan holda shuni ta’kidlash kerakki, sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanish jarayonida nafaqat doimiy nazoratni, balki mutlaq nazoratni ham amalga oshirishning imkoni yo’q. Bu esa, o’z navbatida, ular tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni belgilashda ayrim muammolarni vujudga keltiradi. Bular bevosita yuqorida ko’rsatib o’tilgan sun’iy intellekt tomonidan boshqariladigan “avtonom avtomobil” ishtirokida sodir bo’lgan yo’l-transport hodisasi to’satdan va favqulodda yuz bergan hollarda, yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni belgilashda fors-major holati mavjudligi yoxud boshqa sabablar mavjudligini aniqlash bilan bog’liq. Shulardan kelib chiqib, oshiqcha xavf manbai sifatida sun’iy intellekt tizimlarida yuzaga kelgan fors-major holatlarining fuqarolik-huquqiy xususiyatlarini har tomonlama va chuqur o’rganish muhim hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Hozirgi zamon qonunchiligiga ko’ra, odatda qonunlar yoki shartnomalarda qoida tariqasida quyidagilar fors-major holatlari sifatida ko’rsatiladi:

1. Halokatli tabiat hodisalari, jumladan, suv toshqinlari, yong’inlar, zilzilalar, epidemiyalar, shuningdek, harbiy harakatlar, inqiloblar, ommaviy tartibsizlik, ish tashlashlar (zabastovkalar), terroristik harakatlar, texnogen ofatlar, xalqaro sanksiyalar, davlat organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi natijasida majburiyatlarni bajarishning imkoniyatsizligi kabi holatlar.

2. Xalqaro amaliyotda ishlab chiqilgan fors-major holatlari bo’yicha hozirgi zamon yondashuvlariga ko’ra, fors-major holatlariga umumiy tartibda “e’lon qilingan yoki qilinmagan urushlar, fuqarolik urushi, tartibsizliklar va inqiloblar, qaroqchilik harakatlari va turli sabotajlar, tabiiy ofatlar, dovul, tornado, sunami, yong’inlar, suv toshqinlari, zilzilalar, qo’poruvchilik, portlashlar, yong’inlar, boykotlar, ish tashlashlar (zabastovkalar), loka-

utlar, korxonalarda ishni to’xtatish kabilar, shuningdek, hokimiyatlarning qonuniy yoki noqonuniy xatti-harakatlari kabilar” kiritilgan [13].

3. Umumiy qoidaga ko’ra, “fors-major holati – huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari xohish-irodasi va xatti-harakatlariga bog’liq bo’lmagan va oldindan bashorat qilish, muayyan sharoitlar oqibatining oldini olish yoki bartaraf etish mumkin bo’lmagan favqulodda va muqarrar hodisa natijasida majburiyatlarning buzilishi va aybsiz zarar yetkazilishiga olib kelgan holat” [14].

4. Sun’iy intellekt tizimlarida qo’llanayotgan zamonaviy texnologiyalar va yuridik fanlar taraqqiyoti fors-major holatlari to’g’risidagi tasavvurlarni o’zgartirmoqda. Buni bevosita insonning tabiat hodisalarining oldini olish va ularga ta’sir o’tkazish imkoniyatlari kengayib borayotganligi, ya’ni halokatli tabiat yoki texnogen hodisalarining sodir bo’lishini oldindan prognoz qilish imkoniyatlari yaratilganligi va buning natijasida inson xohish-irodasiga bog’liq bo’lmaydigan hodisalar doirasi kamayib borayotganligi bilan izohlash mumkin. Odatda sun’iy intellekt tizimlari tomonidan boshqariladigan jarayonlar bevosita insonning jismoniy ishtirokisiz boshqarilishi sababli, yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni belgilashda fors-major holati mavjudligini tasdiqlash uchun asos bo’ladigan halokatli tabiat hodisalari bilan bir qatorda tizimda yuzaga keladigan ayrim texnologik nosozliklar, jumladan, dasturiy xatolar yoki boshqa texnik muammolar, agar bunday muvaffaqiyatsizliklar muqarrar bo’lsa va ularning paydo bo’lishi insonlarning xohish-irodasiga bog’liq bo’lmasa, fors-major holati sifatida qo’llanishi mumkin. Bunda sun’iy intellekt tizimlarida yuz bergan hodisani fors-major holati deb topish uchun uni oldindan ko’rishning imkoni bo’lmaganligi va yuzaga kelgan holat jarayonlarga bevosita ta’sir qilganligi isbotlanishi lozim. Ayniqsa, sun’iy intellekt tizimlari va insonlar o’rtasidagi munosabatlarning rivojlanib borayotgani bilan bir

paytda, baʼzan mazkur tizimlarning insonlarga moddiy zarar yetkazish xavfi saqlanib qolayotganligi va bunday zararlar turli-tuman tasodifiy hodisalar yoki sunʼiy intellekt tizimlarida vujudga kelgan texnologik nosozliklar, yaʼni dasturiy xatolar tufayli kelib chiqishi mumkinligini hisobga olsak, yetkazilgan zararni toʻliq qoplash masalasi, jumladan, uni zarar yetkazgan shaxs yoki jabrlangan shaxs yoxud uchinchi shaxslar tomonidan toʻlanishi adolatli hal etilishi kerak.

Fuqarolik huquqi nazariyasiga koʻra, “yetkazilgan har qanday zarar fuqarolik huquqbuzarligining tarkibiy elementi sifatida qabul qilingan holda zarar yetkazuvchi shaxs tomonidan toʻliq qoplanishi kerak” [15]. Ushbu nazariya Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 985-moddasida oʻz aksini topgan boʻlib, unga koʻra, gʻayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqaroning shaxsiga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, shuningdek, yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, shu jumladan, boy berilgan foyda zararni yetkazgan shaxs tomonidan toʻliq hajmda qoplanishi lozim. Qonun hujjatlarida yoki shartnomada jabrlanuvchilarga zararni toʻlashdan tashqari tovon toʻlash majburiyati belgilab qoʻyilishi mumkin. Zarar yetkazgan shaxs, agar zarar oʻz aybi bilan yetkazilmaganini isbotlasa, zararni toʻlashdan ozod qilinadi. Qonunda zarar yetkazgan shaxsning aybi boʻlmagan taqdirda ham zararni toʻlash nazarda tutilishi mumkin. Qonuniy harakatlar tufayli yetkazilgan zarar qonunda nazarda tutilgan hollarda toʻlanishi lozim. Agar zarar jabrlanuvchining iltimosi yoki roziligi bilan yetkazilgan boʻlsa, zarar yetkazgan shaxsning harakatlari esa jamiyatning axloqiy tamoyillarini buzmasa, zararni toʻlash rad etilishi mumkin.

Xulosalar

Hozirda turli amallarni bajarishga moʻljallangan sunʼiy intellekt tizimlari yaratilayotgan boʻlishiga qaramasdan, ularning oshiqcha xavf manbayi ekanligi va mazkur tizimlar jarayoni ustidan amalga oshiriladi-

gan nazoratning mutlaq emasligi, shuningdek, ushbu tizimda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan texnologik nosozliklar, dasturiy xatolar yoki favqulodda vujudga kelgan tasodif hodisalar tufayli insonlarga zarar yetkazilishi xavfi saqlanib qolayotganligidan kelib chiqqan holda sunʼiy intellekt tizimlari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni belgilashda, uni istisno etishning asosi sifatida fors-major holatining quyidagi fuqarolik-huquqiy xususiyatlari eʼtiborga olinishi lozim. Jumladan:

birinchidan, sunʼiy intellekt tizimlari yetkazgan zararni, agar zarar yengib boʻlmaydigan kuch (fors-major holati) yoki jabrlanuvchining qasddan qilgan harakatlari oqibatida yuzaga kelganligini mazkur tizim egalari (ishlab chiqaruvchilar, operatorlar va boshqalar) isbotlay olmasalar, toʻlashlari shart yoki ushbu zararni toʻlash majburiyati sunʼiy intellekt tizimlariga boshqa har qanday qonuniy asosda egalik qiluvchi shaxslarga yuklatiladi;

ikkinchidan, sunʼiy intellekt tizimlari tomonidan yetkazilgan zarar, agar yengib boʻlmaydigan kuch (fors-major holati) yoki jabrlanuvchining qasddan qilgan harakatlari-dan tashqari har qanday holatda kelib chiqqan boʻlsa, unda aybning boʻlishi talab etilmaydi, yaʼni oshiqcha xavf manbayi sifatida sunʼiy intellekt tizimlarining aybi boʻlmagan hollarda, jumladan, tasodifan yetkazilgan zarar uchun ham ular javobgar boʻladi;

uchinchidan, sunʼiy intellekt tizimlarining javobgarlik chegarasi fors-major holatini yuzaga keltirgan kuch doirasi chegarasigacha borishi va shu sababli ular tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik oshirilgan javobgarlik ekanligi hisobga olinadi;

toʻrtinchidan, agar sunʼiy intellekt tizimlari tomonidan yetkazilgan zarar holatini fors-major holati ekanligi toʻgʻrisida yetarli asoslar mavjud boʻlsa, uni tasdiqlash boʻyicha toʻplangan dalillar sudga taqdim etilishi va manfaatdor shaxs tomonidan fors-major holati deb topish toʻgʻrisida talab qoʻyiladi;

bashinchidan, agar sun'iy intellekt tizimlari tomonidan yetkazilgan zarar faqat jabrlanuvchining qasddan qilgan harakatlari yoki yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major hola-

ti) tufayli kelib chiqqan bo'lsa, ushbu holatlar sun'iy intellekt tizimi egalari javobgarligini istisno etishning asosi sifatida qabul qilinishi lozim.

REFERENCES

1. Redin M.P. Ponyatiye istochnika povyshennoy opasnosti i pravovaya priroda (sushchnost') obyazatel'stva iz prichineniya vreda yego deystviyem [The concept of a source of increased danger and the legal nature (essence) of the obligation from causing harm by its action]. *Russian justice*, 2008, vol. 2, p. 26.
2. Fedorina A.A. K voprosu o pravovom statuse robototekhniki i iskusstvennogo intellekta [On the Legal Status of Robotics and Artificial Intelligence]. *Business and Law*, 2018, vol. 4, pp. 3–8.
3. Biryukov P.N. Otvetstvennost' za vred, prichinennyi tekhnologiyami s iskusstvennym intellektom: podkhod Yevropeiskogo soyuza [Liability for harm caused by artificial intelligence technologies: the European Union approach]. Available at: <https://science.vvsu.ru/files/C123CF05-2D67-41EA-91EA-F52066C0EA28.pdf>
4. Morkhat P.M. Pravosub'yektnost' iskusstvennogo intellekta v sfere prava intellektual'noy sobstvennosti: grazhdansko-pravovyye problemy [Legal personality of artificial intelligence in the field of intellectual property law: civil law issues]. Moscow, 2019.
5. Čerka P., Grigienė J., Širbikytė G. Liability for Damages Caused by Artificial Intelligence. *Computer Law and Security Review*, 2015, vol. 31, iss. 3, pp. 376–389.
6. Chesterman S. Artificial intelligence and the limits of legal personality. *International and comparative law quarterly*, 2020, vol. 69/4, p. 819.
7. Mel'nichuk M.A., Chentsova D.V. Grazhdansko-pravovaya otvetstvennost' iskusstvennogo intellekta [Civil liability of artificial intelligence]. *Law and Right*, 2020, vol. 6, pp. 66–67.
8. Iriskina Y.N., Belyakov K.O. Pravovyye aspekty grazhdansko-pravovoy otvetstvennosti za prichineniye vreda deystviyami Robota kak kvazisub'yekta grazhdansko-pravovyx otnosheniy [Legal aspects of civil liability for harm caused by the actions of a Robot as a quasi-subject of civil law relations]. *Humanitarian Informatics*, 2016, vol. 10, pp. 63–72.
9. Normy grazhdanskogo prava o robototekhnike [Civil Law Rules on Robotics]. Available at: <https://robotrends.ru/pub/1725/normy-grazhdanskogo-prava-o-robototekhnike-i-hartiya-robototekhniki>
10. European Parliament resolution of 20 October 2020 with recommendations to the Commission on a civil liability regime for artificial intelligence. Available at: https://www.europarl.europa.eu/doceo/document/TA-9-2020-0276_EN.html
11. Antonov A.A. Artificial intelligence as a source of increased danger. *Lawyer*, 2020, vol. 7, p. 70.
12. Autonomous and subordinate artificial intelligence. Available at: <https://postnauka.ru/video/47828>
13. Novyye ogovorki ICC o fors-mazhore i sushchestvennom izmenenii obstoyatel'stv [New ICC Force Majeure and Material Change of Circumstances Clauses]. 2020. Available at: <https://journal.arbitration.ru/news/mezhdunarodnaya-torgovaya-palata-icc-obnovila-ogovorki-o-fors-mazhore-i-sushchestvennom-izmenenii-ob/>
14. Isanov X.R. Fors-major holatlari fuqarolik-huquqiy toifa sifatida: nazariya va amaliyot [Force majeure as a civil law category: theory and practice]. Tashkent, 2024.
15. Belov V.A. Grazhdanskoye pravo [Civil law]. Moscow, JSC "Center YurInfor" Publ., 2003, p. 339.

Kelib tushgan / Получено / Received: 13.12.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 03.02.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 17.02.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.1./BJGH2174

UDC: 343.233(045)(575.1)

OXIRGI ZARURAT HOLATIDA YETKAZILISHIGA YO'L QO'YILGAN ZARARNING CHEGARASINI ANIQLASH MUAMMOLARI

Jumanazarova Marjona Botir qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya, korrupsiyaga
qarshi kurashish kafedrası o'qituvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0001-9413-7777
e-mail: botirqizi@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlardan biri bo'lgan oxirgi zarurat holati amalda mavjud bo'lishi uchun shaxs tomonidan yetkazilishi mumkin bo'lgan zararga qo'yiluvchi talablarga bag'ishlangan. Mavzuning dolzarbligi shundaki, amaliyotda oxirgi zaruratni qo'llash borasida bo'shliqlarning mavjudligi fuqarolarning ushbu normalardan foydalanish huquqlari cheklanishiga sabab bo'lmoqda. Lekin shu kunga qadar oxirgi zarurat holatida yetkazilgan zararning doirasi, uning chegarasi bilan bog'liq nazariy muammolar olimlarimiz tomonidan ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmagan. Maqolada G'arb va MDHning qator olimlari, jumladan, B. Grant, J. Herring, G.M. Gexfenbaum, V.N. Vinokurov, A.V. Nikulenko va boshqalarning oxirgi zaruratda zararni baholashga qaratilgan fikrlari nazariy jihatdan o'rganildi. Zararni baholash uchun jinoyat huquqi nazariyasida uchraydigan ikki xil tamoyil, ya'ni zaruriyat va mutanosiblik tamoyillari tahlil etildi. Shuningdek, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi ilg'or xorijiy davlatlarning tajribasiga murojaat etilgan holda mazkur davlatlarda mavjud sud amaliyoti materiallari tahlil qilingan. Nafaqat milliy va xorijiy olimlarning nazariy qarashlari, balki yuzdan ortiq huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari o'rganilib, yakunda xulosa qilindi. Shu bilan birga, jinoyat qonunchiligimizdagi ayni normalarni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Oxirgi zarurat normalarini takomillashtirishga qaratilgan nazariy g'oyalarga "Quad necessitas non habet legem" va "Necessitas vincit legem" tamoyillari asos sifatida olindi.

Kalit so'zlar: oxirgi zarurat, zarar, xavf, zaruriyat, mutanosiblik, obyektiv mezon, subyektiv mezon

ПРОБЛЕМЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПРЕДЕЛОВ ДОПУСТИМОГО ВРЕДА В СОСТОЯНИИ КРАЙНЕЙ НЕОБХОДИМОСТИ

Жуманазарова Маржона Ботир кизи,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
преподаватель кафедры «Уголовное право,
криминология и борьба с коррупцией»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются требования, предъявляемые к ущербу, который может быть причинён в состоянии крайней необходимости – одном из обстоятельств, исключающих преступность деяния. Актуальность темы обусловлена тем, что существующие пробелы в правоприменительной практике ограничивают возможность граждан ссылаться на данную норму. Однако до настоящего времени объём допустимого ущерба в состоянии крайней необходимости, а также вопросы, связанные с его пределами, не стали предметом глубоких научных исследований в юридической науке Узбекистана. В статье теоретически изучены мнения западных учёных и исследователей СНГ, в частности Б. Гранта, Дж. Херринга, Г.М. Гехфенбаума, В.Н. Винокурова, А.В. Никуленко и других, посвящённые вопросам оценки ущерба в состоянии крайней необходимости. Проведён анализ двух ключевых принципов, встречающихся в теории уголовного права при оценке вреда – принципа необходимости и принципа соразмерности. Также рассмотрен судебный опыт таких стран, как США, Великобритания и Германия, в контексте правоприменения норм о крайней необходимости. В исследовании использованы не только теоретические взгляды отечественных и зарубежных учёных, но и результаты опроса более ста сотрудников правоохранительных органов. На основании проведённого анализа сделаны выводы и выработаны предложения по совершенствованию уголовного законодательства Узбекистана в части норм о крайней необходимости. В качестве теоретической основы для усовершенствования данных норм использованы принципы «*Quod necessitas non habet legem*» и «*Necessitas vincit legem*».

Ключевые слова: крайняя необходимость, ущерб, опасность, необходимость, соразмерность, объективный критерий, субъективный критерий

PROBLEMS OF DETERMINING THE LIMITS OF DAMAGE PERMITTED IN THE CASE OF EXTREME NECESSITY

Jumanazarova Marjona Botir kizi,

Lecturer at the Department of Criminal Law,
Criminology, and Anti-Corruption,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. This article is devoted to the requirements for the damage that a person may cause for the actual existence of a state of extreme necessity, which is one of the circumstances excluding the criminality of the act. The relevance of the topic lies in the fact that the presence of gaps in the practice of applying extreme necessity leads to the restriction of citizens' rights to use these norms. However, until now, the theoretical problems related to the extent of damage caused in a state of extreme necessity and its limits have not been studied by our scientists as a subject of scientific research. The article theoretically examines the views of a number of Western and CIS scientists, including B. Grant, J. Herring, G.M. Geffenbaum, V.N. Vinokurov, A.V. Nikulenko, and others, aimed at assessing damage in extreme necessity. To assess the damage, two different principles encountered in criminal law theory, namely the principles of necessity and proportionality, were analyzed. Also, referring to the experience of such advanced foreign countries as the USA, Great Britain, and Germany, the materials of judicial practice available in these countries were analyzed. Not only the theoretical views of domestic and foreign scientists, but also the results of a survey conducted among more than one hundred law enforcement officers were studied, and conclusions were drawn. At the same time, proposals and recommendations aimed at improving these norms in our criminal legislation were developed. Theoretical ideas aimed at improving the norms of ultimate necessity are based on the principles “*Quod necessitas non habet legem*” and “*Necessitas vincit legem*.”

Keywords: extreme necessity, harm, danger, necessity, proportionality, objective criterion, subjective criterion

Kirish

O'zbekiston Respublikasi JK 38-moddasi-da qilmishning qachon jinoyat sifatida inkor etilishi belgilangan. Shu bilan birga, qanday hollarda uni jinoyat deb topish mumkin-u, lekin boshqa asoslar, ya'ni jazo tayinlash jarayonida shaxs ahvolini yengillashtirishni nazarda tutuvchi oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish hollari ham nisbatan bayon qilingan. JK ushbu normasida zararining chegarasi qat'iy belgilanmaganligi huquqni muhofaza qiluvchi organlar va oddiy fuqaro uchun ham mazkur normani qo'llashda qiyinchiliklar, tushunmovchiliklar yaratishi shubhasiz.

Oxirgi zarurat holatida zararining chegarasini aniqlash qoidalari ishlab chiqilishi bugungi kunning dolzarb masalasidir. Sababi hozirda jinoyat huquqi nazariyasida aynan oxirgi zarurat normalarini qo'llash bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda shaxs xavfga javob berishda bir qancha yo'l mavjudligini tushungan holda ular ichidan ko'proq zarar keltiruvchisini tanlagan vaziyatda oxirgi zarurat normasi ishga tushishi yoki tushmasligi va aksincha, shaxs xavfga javob berishda bir qancha yo'l borligini tushunmagan holda ular orasidan ko'proq zararga sabab bo'luvchisini tasodifan tanlangan hollarda so'z yuritilayotgan normalar qo'llana olishi yoki qo'llanilmasligi bilan bog'liq muammoga nazariy jihatdan yechim taqdim etilmagan. Huquqni qo'llash amaliyotida bu kabi bo'shliqlarning mavjudligi fuqarolarning oxirgi zarurat normalaridan foydalanishga bo'lgan huquqlarining cheklanishiga sabab bo'lmoqda.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yilgacha mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish institutini isloh qilish kabi maqsadlar belgilangani ham oxirgi zarurat holatida yetkazilishiga ruxsat berilgan zararining chegarasini aniqlash muammosiga yechim taqdim etish dolzarb aha-

miyatga egaligidan dalolat beradi. Zero, oxirgi zaruratni qo'llash bilan bog'liq mavjud muammolar jinoyat qonuni insonparvarlik tamoyilining qo'llanishiga to'siq yaratadi, shuningdek, fuqarolarga nisbatan nohaq jinoyat ishi qo'zg'atilishiga sabab bo'ladi.

Biz tanishib chiqqan izlanishlarning aksariyat qismida oxirgi zarurat uchun qat'iy talab o'rnatish maqsadi ustunlik qilgan. Quyida aksincha, aniqlangan muammolarga oxirgi zaruratning "*quad necessitas non habet legem*" – "zarurat qonunni bilmaydi" va "*necessitas vincit legem*" – "zarurat qonundan ustun" tamoyillari asosida yondashishga harakat qildik.

Material va metodlar

Oxirgi zaruratdagi nazariy va amaliy jihatlarining bir qismi sifatida oxirgi zarurat holatida yetkazilgan zararining doirasi, uning chegarasi bilan bog'liq nazariy muammolar olimlarimiz tomonidan shu kunga qadar ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmagan. Shu sababli ham, ayni mavzu yuzasidagi masalalarni tahlil qilishda qiyosiy-huquqiy, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, induksiya va deduksiya, analiz va sintez kabi ilmiy bilish usullaridan keng foydalanildi. Shu bilan birga, ilg'or xorijiy davlatlarning qonunni qo'llash amaliyoti tahlili asosida tegishli xulosalar qilindi.

Tadqiqot natijalari

Y.Y. Pudovochkin zaruratning ruxsat etilgan doirasidan oshib ketishning uch shaklini sanaydi [1, 87-b.]:

a) xavfning turi va darajasiga yoki barta-raf etilgan vaziyatlarga mutlaqo mos kelmaydigan tarzda qasddan zarar yetkazish;

b) oldini olish maqsadidagi zarar bilan bir xil yoki undan ko'proq zarar yetkazishni qasddan sodir etish;

c) xavfni o'zgacha usullar bilan barta-raf etishning aniq imkoniyati bor bo'lganda, qasddan zarar yetkazish.

Oxirgi zaruratning huquqiy me'yorlari zarracha buzilsa ham huquqiy oqibatda keskin o'zgarish vujudga kelishi mumkin: zarurat holati bekor bo'ladi va avval kutilmagan

javobgarlik yuzaga keladi. Shunga asoslanib, JKning bu normasi o'zida ikki qarama-qarshi, bir vaqtda mavjud bo'la olmaydigan atamalarni jamlagan, deyish mumkin.

Bugungi kunda kelib chiqqan va oldi olingan zararni taqqoslashda qaysi tamoyilga murojaat etish mumkinligi borasida bahslar uchrab turadi. Ilmiy yondashuv darajasida zaruriyat va mutanosiblik kabi ikki tamoyil ishlab chiqilgan [2, 120-b.].

Zaruriyat tamoyilining mazmuni qonunchilikda keng murojaat etiluvchi ratsionallik g'oyasi asosida shakllangan. Ya'ni to'qnash kelingan xavfga bo'lgan javob mavjud bir qancha javoblar ichida eng mutanosibi bo'lishi shart. Bu tamoyil shaxsga zarar yetkazishga ruxsat beradi, sharti shuki, kelib chiqadigan zarar keragidan ortiq bo'lmasin.

Ayni tamoyilning g'oyasini qo'llovchi N.V. Lisak "minimal zarar yetkazmasdan mazkur zararning oldini olishning iloji yo'qligi" [3, 75-b.] haqida mulohaza bildirgan. Tubdan farq qiluvchi qarash Barklay Grantga tegishli bo'lib, uning fikricha, zaruriyat tamoyili qonunga zid xatti-harakatlarning barcha tomonlari hisobga olingan holda ruxsat etilganini aniqlashga bog'liq bo'lib, zararlar muvozanati mavjud bo'lgan eng kam yomonlikni tanlash lozimligini bildiradi [4, 59-b.].

Fikrimizcha, ushbu tamoyil faqat qonunga rioya qilish yo'li orqali xavfni to'xtatib qolish imkoni istisno etilganda qonunni buzish bilan xavfning oldini olish qo'llanishi mumkinligida namoyon bo'ladi. Biroq bu bilan biz zaruriyat tamoyilida shaxs kam zararlar ichidan ham eng kamini tanlashi kerak, degan fikrdan yiroqmiz. Sababi, bu kabi sharhlash xavf bilan kurashish imkonini bajarib bo'lmaydigan pozitsiyaga olib chiqilishiga sharoit yaratgan bo'lar edi.

Jinoyat huquqida zaruriyat biror harakat asosida erishish mumkin bo'lgan natijaga minimal darajada qancha kuch sarflash kerakligini anglatadi. Bu tamoyilni ayni oxirgi zarurat holatida qo'llashda qiyinchiliklar faqat xavfni bartaraf etishda bir emas, balki bir

qancha muqobil imkoniyatlar yaqqol ko'zga tashlanib turganda va ular orasidan birini tanlash kerak bo'lganda kelib chiqadi.

Misol uchun, *ov qilish taqiqlangan hududda sayr qilayotgan shaxsga Qizil kitobga kiritilgan silovsin yoki qoplon hujum qilganida shaxs oldida ikki xil tanlov imkoniyati yuzaga keladi: o'zini qutqarish uchun bu hayvonni o'ldirish yoki yaqin atrofdagi ovchining uyi eshigini sindirib kirib, unga mulkiy zarar yetkazish.*

Shaxsning ushbu holatda oldi olingan zarardan kamroq zarar yetkazganining o'zi yetarli hisoblanadi. Hayvonni o'ldirish yoki mulkka shikast yetkazish holatlaridan ham qay biri kamroq ekanini aniqlashga hojat bo'lmaydi, sababi ularning har ikkisi oldi olingan zararga qaraganda kichik sanaladi.

Agar shaxs xavfga javob berishda ikki muqobil imkonga ega bo'lgani holda ulardan biri ijtimoiy xavflilikka ega, ikkinchisi esa bunday ijtimoiy nomaqbul qilmish sodir etish bilan bog'liq bo'lmasa, albatta, dastlab qonuniy harakat bilan xavfni bartaraf etishga urinib ko'rish kerak bo'ladi. Aks holda, hatto og'ir oqibatlariga sabab bo'luvchi xavf bartaraf etilgan bo'lsa ham, uning to'g'ridan to'g'ri jinoyatga qo'l urishi oxirgi zarurat doirasida sodir etilgan deb topilishga sabab bo'lmaydi.

Masalan, fuqarolarga pensiya va nafaqalarni tarqatish uchun uzoq qishloqlarga borishga majbur bo'luvchi bank xodimi qor bo'roni sababli harakatlanishning imkoni bo'lmaganidan tog'dagi bir kulbada qolib ketgan bo'lsa-yu, kuchli sovuqdan va qorong'ilikdan himoyalaniish uchun kulbada bo'lgan chiqindi buyumlarni yoki o'tinni yoqib isinishga urinmasdan pullarni yoqishi holatini oxirgi zarurat sifatida baholash imkonini bermaydi. Ayni misolda uning xavfni yengish uchun 3 ta varianti bor edi: o'tinlarni yoqib isinish, qog'oz chiqindilarini yoqib isinish va pullarni yoqib isinish. Demak, oxirgi zaruratning sanab o'tilgan barcha shartlariga amal qilish shaxsga mavjud vaziyatda ushbu huquqdan foydalanish imkonini beradi, biroq

hech bo'lmaganda bitta shartning ham bajari-lishi imkoni bo'lmay qolsa, bu zarurat chega-rasining buzilishini anglatadi.

Ikkinchi – mutanosiblik tamoyiliga ko'ra, yetkazilgan zararning aniq ko'rsatkichlari ishlab chiqilishi kerak. Tamoyil o'zida ikki ko'rsatkichni jamlagan: obyektiv hamda sub-yektiv ko'rsatkich. Ulardan birinchisi "Bu-zilishiga yo'l qo'yib berilgan huquq yoki manfaat o'zining sifat va miqdor darajasi bi-lan oldi olinganiga mosmidi?" degan savolga javob bersa, ikkinchisi "Shu kabi moslik sub-yekt tomonidan anglanganmidi?" kabi savol orqali aniqlanadi.

Xavf-xatarning tabiati va jinoyatning og'irligi o'rtasida muvozanatni saqlash kerak bo'lishi mumkin, bu esa ularning taqqoslani-shiga bog'liq.

Oxirgi zarurat holatida ijtimoiy muno-sabatlarining tartiblanishida aniq me'yorlar hech bir qonunda uchramasligi va bu imkon-siz ham ekani ko'p hollarda qilmishning su-rishtiruv, dastlabki tergov va sud bosqichida subyektiv baholanishga olib kelmoqda. Bu esa, fikrimizcha, roman-german huquq oilasi uchun yot. Shuningdek, O'zbekiston Respubli-kasi Jinoyat kodeksi 4-moddasidan joy olgan "Sodir etilgan qilmishning jinoiyligi, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari fa-qat Jinoyat kodeksi bilan belgilanadi" degan norma qonuniylik prinsipining talablariga ziddir. Aslida obyektiv ko'rinishga ega qil-mish, ya'ni oxirgi zarurat va uning chegarasi-dan chiqish mutlaq subyektiv bahoga bog'liq bo'lib qolishi adolatni anglatmaydi. Qilmish-ning qonuniyligi yoki jinoiyligi qonunda o'rnatilgan tegishli alomatlarining tahlilidan kelib chiqishi kerak.

Qonunda huquqiylik doirasi buzilishiga olib keluvchi ikki me'yor sanalib, lekin hu-quqlar gradatsiyasi taqdim etilmasligi ayni masalada qonuniylik prinsipiga amal qilish-ning imkonini yo'qqa chiqaradi.

Yetkazilgan va oldi olingan zarar muta-nosibligi yoki nomutanosibligini aniqlash imkonini beruvchi standartlar mustahkam-

lanmay turib, oxirgi zaruratni oxirgi zarurat chegarasidan chiqishdan ajratishning imkoni mavjud emas. Ko'plab yuridik adabiyotlarda bunday mezon sifatida zarar yetishining oldi olingan yoki zarar yetkazilgan huquq va man-faatlar ko'rsatiladi [5, 265-b.; 6, 100-b.]. Biroq huquqlar gradatsiyasini ularning muhimlik darajasiga ko'ra qanday belgilash mumkin degan savol tug'iladi. Bu savolga javob berish uchun huquq va manfaatlar tasnifini amalga oshirish kerak, o'z navbatida, uning mezonla-ri to'g'ri belgilanishi zarur.

Olimlar manfaatlar ustunligiga baho be-rishning xilma-xil shakllarni taklif qilganlar. G.M. Gexfenbaum bu mavzuni tadqiq etib, "yetkazilgan zarar miqdoriy va (yoki) si-fat ko'rsatkichlari bo'yicha kamroq bo'lishi kerak", [7, 145-b.] degan to'xtamga kelgan. Uning nuqtayi nazaricha, ko'rsatilgan birinchi ko'rsatkich zarar aynan qay darajada kelib chiqqanligini, ikkinchisi jinoyat qonuni qay-si obyektini ko'proq himoyaga olganini aniq-lashdan iborat.

T. Oreshkina "birlamchi manfaat" deganda davlatga ishora qilib, qolgan manfaatlar doim ikkilamchi ahamiyat kasb etishi [8, 17-b.] ha-qida fikr bildirgan bo'lsa, G.F. Xametdinova huquq va manfaatlar darajalanishi bo'yicha qiyinchilik yo'qligi, uning ketma-ketligi jino-yat qonuni obyektlarining joylashuviga mos ekani [9, 14-b.] haqida xulosaga kelgan.

V.N. Vinokurov har qanday chegaraning o'rnatilishiga qarshilik qilib, manfaatlarining to'liq yoki qisman ahamiyati o'rtasida qat'iy chegara bo'lmasligi, chunki ular bir qancha bog'lanishlar va o'zaro kesishishlar bilan alo-qadorligi, ular orasidagi chegara nisbiy va ha-rakatchanligini [10, 108-b.] ta'kidlaydi.

A.M. Stankevich yuqoridagi fikrga qo'shilmay, qonun, avvalo, fuqarolar uchun tushunarli va aniq bo'lishi kerakligini aytib, agar oddiy fuqaro uchun huquqlar sinflani-shi tushunarli bo'lsa, muammo yo'qligi, bi-roq agar aksi bo'lsa, mazkur masalani chu-qur o'ylab ko'rish lozimligini [2, 128-b.] es-latadi.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi ayni masalada obyektiv mezonga asoslangan, lekin aniqlashtirilmagan. Yuqorida nomlari sanalgan olimlar, bizningcha, faqat obyektiv mezonlarga tayanib, subyektiv jihatlarni tushirib qoldirganlar. Shaxsning subyektiv munosabati bor ekan, demak, uning qandaydir o'rni ham bo'lishi, holat yuzasidan uning ham mavjudligi inobatga olinishi kerak.

Bu fikrga kelishimizga sabab shundaki, kasal bolasini davolashga puli bo'lmagan onaning dorixonadan dori o'g'irlashi yoki musbat qon guruhiga ega qiz avtohalokatga uchrab ko'p qon yo'qotganida ota qon berishi mumkin bo'lgan odamning qarshiligiga qaramay qon olishi so'z borayotgan mezon ham ahamiyatli ekanini isbotlaydi.

Oxirgi zarurat holatida yetkazilgan zarar va oldi olingan zararni taqqoslash bo'yicha miqdorni anglatuvchi zarurat tamoyiliga e'tirozimiz yo'q. Ya'ni "ellik" doim "ellik bir"dan kam. Unga berilgan baho ham xuddi shu tartibda bo'ladi. Biroq zararining sifatini ham o'z ichiga qamrab olgan mutanosiblik tamoyili bo'yicha maxsus ketma-ketlikni bildiruvchi huquqlar piramidasini shakllantirish tarafdorimiz. Biz taklif etuvchi huquqlar darajalanishi qilmishlarni xususiyati va xavflilik darajasi bilan farqlashdan iboratdir. Unga ko'ra qilmishning sifati:

1) ijtimoiy xavfi kam < uncha og'ir bo'lmagan < og'ir < o'ta og'ir;

2) ijtimoiy xavfi kam holda ehtiyotsizlik bilan xarakterlanuvchi < ijtimoiy xavfi kam holda qasd bilan xarakterlanuvchi < uncha og'ir bo'lmagan holda ehtiyotsizlik bilan xarakterlanuvchi < uncha og'ir bo'lmagan holda qasd bilan xarakterlanuvchi tasnifga asoslanishi kerak.

Tadqiqot natijalari tahlili

Ba'zan shunday vaziyatlar uchraydiki, oxirgi zaruratning qonuniylik doirasi boshqa huquq sohalariga tegishli normalar bilan tartibga solinishi mumkin.

Mazkur o'rinda oxirgi zarurat murakkabligiga, sohalararo xususiyatiga ko'ra blanket

norma hisoblanishi tarafdori bo'lgan olimlarning [11, 43-b.; 2, 156-b.] fikriga qo'shilamiz. Masalan, O'zbekiston Respublikasining O'RQ-550-sonli "Qurol to'g'risida"gi Qonuni 23-moddasi 4-qismida patronni o'qdonga yuborishga oxirgi zarurat holatida kimlar va nimalarni himoya qilish uchun ruxsat etilganligi, 26-moddasi 1-qismda qurol bilan muomalaga kirishish huquqiga ega bo'lganlarning oxirgi zarurat holatida qanday maqsadlar uchun qurolni qo'llashi mumkinligi to'g'risida normalar belgilanganligi yoki Parvozlar xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2007-yil 12-sentabrdagi 141-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi samoviy hududida fuqaro va eksperimental aviatsiyasining parvoz qilish aviatsiya qoidalari" (O'zbekiston Respublikasi AQ-91)da fuqaro havo kemalarini tutib olish faqat oxirgi zarurat paytida qo'llanishi ko'rsatilganligi fikrimizga asos bo'la oladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-sonli Qonuni 17-moddasida bu organ xodimlarining huquqlari sifatida turar va noturar joylar, avtomobillar, umuman, mulk daxlsizligini zarurat yuzasidan buzish, aynan shu asosda shaxs erkinligini qisman cheklash kabilar ko'rsatilgani, navbatdagi moddada belgilangan holatlarda so'nggi imkon sifatida qanday obyektlar o'rab olinishi mumkinligi belgilangani, 20-moddasida "tashkilotlarning yoki fuqarolarning transport vositalaridan tabiiy ofat yuz bergan joyga borish, shoshilinch tibbiy yordamga muhtoj fuqarolarni tibbiy muassasalarga olib borish, jinoyat sodir etgan shaxslarni ta'qib qilish va ichki ishlar organlariga olib kelish, hodisa joyiga yoki ichki ishlar organlarining shaxsiy tarkibini jangovar trevoga bo'yicha to'plash joyiga borish uchun majburiy tartibda foydalanishi mumkin"ligi mustahkamlangani, 23-moddasida maxsus vositalarni qo'llash, 24-moddasida qanday xavf yuzaga kelganida o'qotar qurolni qo'llash mumkinligi belgilan-

ganini ham misollar sifatida keltirish mumkin.

Agar xavfning oldini olishga intilgan shaxs shu xavfga o'xshash faqat soni, miqdoriga ko'ra farqli obyektni nobud qilgan bo'lsa, holatga baho berish nisbatan oson kechadi. Yanada aniqlashtiradigan bo'lsak, masalan, biror mulkni xavfdan saqlab qolish uchun boshqa bir mulkka zarar yetkazish holati. Ayni paytdagi mualliflar bunday vaziyatlarda miqdoriy ko'rsatkichdan foydalanishni taklif qiladilar [12, 140-b.; 7, 147-b.]. Ularning fikricha, zarar teng bo'lib chiqmagan hollardan boshqa barcha holatlarning huquqqa mosligiga shubha bo'lmasligi kerak.

Zarurat bo'lgan holda majburiy yaratilgan zarar inson hayotiga oid bo'lsa, vaziyatga baho tubdan o'zgarishga uchraydi. Hayotlar to'qnashganda kimning hayoti muhimroqligi borasida olimlar aniq bir qarorga kela olishmagan.

Bugungi kunda omma oldida o'zini qurbon qilish bilan sodir etiluvchi xalqaro terrorizm, odamlarni garovga olish, odam o'g'irlash, havo kemasini noqonuniy egalashga aloqador jinoiy harakatlar soni tobora ortayotgani, bu esa kimni qutqarib qolish kerakligi borasida og'ir vaziyatlarni yaratayotgani muammoni chuqur tahlil etishni talab qiladi. Bu borada hozirgi zamon jinoyat-huquqiy nazariyasida yagona fikr mavjud emas. V.V. Merkurev "inson hayoti kolliziyasi"da oxirgi zarurat holatini ikki turga bo'ladi. Birinchi tur o'zida bir necha odamni bir yoki miqdoriy jihatdan kamroq odamlar hisobiga saqlab qolishni, ikkinchi tur esa A. shaxsni o'ldirish orqali B.ni qutqarib qolish [13, 31-b.] muammosini jamlagan.

"O'z hayotini saqlab qolish uchun o'zga shaxsni qurbon qilish mumkinmi?" degan savol "inson hayoti kolliziyasi" masalasida turgan birinchi muammo hisoblanadi. Olimlarning bu boradagi fikrlari keskin farq qiladi. Qonunchilik siyosati A. o'z hayotining qiymatini B. yoki C.ning hayotidan yuqori qo'yishiga va ular hayotiga tajovuz qilishiga yo'l qo'ymaslikdir. Shaxs oxirgi zarurat osti-

da o'zini qutqarish uchun begunoh odamni o'ldirishdan ko'ra, o'zi o'lishi kerak. Hayotning muqaddasligi va barcha hayotlarning tengligi doim ustun turishini [14, 659-b.] ta'kidlagan bir guruh olimlar bunday harakatlarni jinoyat deb hisoblasalar [15, 105-b.], boshqalari o'lim xavfini o'zidan boshqalarga o'tkazish jinoyat emas, biroq axloqqa zid harakat [16, 397-398-b.] ekanini ta'kidlaydilar.

Ikki teng hayotning to'qnashuvini juda aniq tasvirlagan S. Pufendorf nomi bilan "Pufendorf taxtasi" deb atalgan misol vaziyatga baho berish uchun maqbul misollardan biri deb hisoblaymiz. Misol quyidagicha keltirilgan: agar ikki shaxs ham oqibatda o'lishi aniq bo'lsa, ulardan biri o'zining jonini saqlab qolishga urinib ko'rish joiz. Kema halokati-dan so'ng uning qoldiqlaridan bo'lgan taxtani egallagan insonning boshqa birov ayni taxtaga osilib, o'zi bilan uni ham halok qilishga uringanida har qanday zo'rlik ishlatib taxtasini himoya qilishiga hech narsa to'siq bo'lmasligi kerak [17, 330-b.].

2000-yil Angliyada ko'rilgan yana bir misolga ko'ra, bir-biriga qo'shilgan holda tug'ilgan egizaklar Meri va Jodi (Siam egizaklari) bo'yicha tibbiy xulosalarda agar ular ajratilmasa, ikkisi ham o'lishi, lekin ajratish operatsiyasi Merining o'limiga olib kelishi, Jodi esa yashab qolishi mumkinligi ko'rsatilgani sababli jarroh Jodining hayotini saqlab qolishning yagona yo'li bo'lgan operatsiyani amalga oshiradi [18, 480-b.]. Jarrohning qilmishini oxirgi zarurat sifatida baholash jamoatchilikda kuchli norozilik keltirib chiqaradi.

O'z hayotini saqlab qolish uchun o'zga shaxsni qurbon qilishni qonuniy, deb hisoblovchi N.S. Tagansev: "Men, shubhasiz, o'zimni qutqarish uchun boshqani hayotidan mahrum etishim mumkin" [19, 555-b.], – degan fikrni ilgari surgan. V.A. Blinnikov ham shunday qarashni yoqlagan [12, 140-b.]. O'z hayotini ustun ko'rib, o'zgani nobud qilish taqiqlanishini asoslashga uringan olimlar ham uchraydi, masalan, V.A. Vladimirov va

Y.I. Lyapunovlar: “O‘zganing hayoti evaziga hayotini saqlab qolish qasddan qilingan qotillik deb baholanishi lozim, hattoki bu uning uchun yagona najot vositasi bo‘lsa ham”, – deya fikr bildirishgan [20, 82-b.]. Yuqoridagi fikrlarga qarshilar safida bo‘lgan A.V. Nikulenko ham “barcha insonlar hayoti tengligi sababli, hatto o‘zining hayotini saqlab qolish uchun ham boshqa inson hayotini qurbon qilish mumkin emas”ligini [21, 275-b.] ta’kidlagan.

Tadqiqotimiz jarayonida olib borilgan so‘rovnoma natijasiga ko‘ra, ishtirokchilarning 40,3 foizi A. hamda B. hayoti doim tengligi sababli bu holda sodir etilgan harakat qonuniy bo‘la olmasligi tarafdori bo‘lgan. 58,4 foiz ishtirokchi esa bunday holatda oxirgi zarurat chegarasi buzilishini ko‘rsatib o‘tgan. Faqat respondentlarning kam qismi o‘z hayotini asrash uchun boshqani nobud qilish holatini qonuniy hisoblab, qonun hech kimdan o‘zini o‘limga mahkum qilishi lozimligini talab qila olmasligini fikrlariga asos qilib ko‘rsatishgan.

Bizningcha, har qanday shaxsning hayotini, u kim bo‘lmasin (kasal, sog‘, yaxshi, yomon), yana boshqa shunday ikkinchi shaxsnikidan ustun yoki kamroq deb baholab bo‘lmaydi. Qonun adolatni ta‘minlash va jamoat tartibini saqlash uchun imkon qadar hayotning muqaddasligini qo‘llab-quvvatlashi kerak. Zararning tengligi yaqqol ko‘rinib turgan ekan, bu masala yuzasidan oxirgi zarurat borligi tan olinmasligi shart.

Bir odam hayotini qurbon qilib, ikki yoki bir qancha odamlarning hayotini saqlab qolish holatida oxirgi zarurat mavjud bo‘la oladimi degan savolga ko‘plab olimlar “bo‘lishi mumkin” deb javob berishgan [7, 145-b.; 22, 177-b.]. Ularning barchasi o‘z fikrlarida faqat miqdoriy ko‘rsatkichni asos qilib keltirganlar.

Fikrimizcha, bu masalani hal qilishda oxirgi zarurat qonuniyligi chegaralarini aniqlashning faqat miqdoriy ko‘rsatkichidan foydalanish nomaqbuldir. Miqdoriy darajada ustunlik qiluvchi hayotlarni asrab qolishga intilib

bir inson o‘limiga yo‘l qo‘yish quyidagi asoslarga ko‘ra taqiqlanishi lozim.

Birinchidan, qonun faqat oxirgi zaruratni emas, zaruriy mudofaani ham inson huquqi deb baholagan va har biri uchun xos alomatlarni sanab o‘tgan. Zaruriy mudofaa huquqi qonunga xilof tajovuz mavjud sharoitda yuzaga kelar ekan, qonuniy harakatlarga nisbatan mazkur huquq mavjud bo‘la olmaydi. Misol sifatida eng ko‘p keltiriladigan bir necha alpinistning hayotini saqlab qolish uchun yordamga muhtoj holatda osilib turgan alpinistning arqonini uzib yuborish vaziyatini eslash kifoya. Agar bu vaziyatda osilib turgan alpinistning hayotiga tajovuz qilish huquqqa mos deb topilsa, ayni alpinistda zaruriy mudofaa huquqi vujudga kelmaydi. Biroq o‘zini o‘ldirmoqchi bo‘lishganini anglaganida mudofaalanish maqsadida yuqoridagilardan birini otib qo‘yish holati zaruriy mudofaa doirasida bo‘lgan, deb tan olinishi kerak.

Shunday ekan, “inson hayoti kolliziya-si” – ko‘pchilikni qutqarish uchun bir odamni qurbon qilish holati formal ravishda hal qilinmasligi kerak [6, 115-b.] deb hisoblovchi mualliflarning fikriga qo‘shilmay bo‘lmaydi.

Faqat miqdoriy ko‘rsatkichni qo‘llab oxirgi zarurat holatini aniqlash va bir necha kishining hayoti bir shaxs hayotidan ko‘ra muhimroq deb hisoblash to‘g‘ri emas va axloqqa zid (*immoral*)dir [23, 37-b.]. Bundan tashqari, zaruriy mudofaa misolida ko‘rsatilganidek, bunday holat amaldagi qonunchilikka ziddir.

Ikkinchidan, bu masalaga qonun aslida javob taqdim etib bo‘lgan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Muqaddimasida inson hayoti va boshqa huquqlari oliy qadriyat hisoblanishini tan oluvchi insonparvar demokratik davlatni qurish maqsad sifatida belgilangan. Asosiy qonunimizning 13-moddasida ham hayot barcha ne‘matlar ichida eng oliysi ekani sababli u insondan ajratib bo‘lmas huquq deb e’tirof etilgan, 25-moddasida “Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qi-

lish eng og'ir jinoyatdir" kabi ustuvor normalar qayd etilgan. Demak, normalarni sharhlash shunday xulosaga olib keladi: mamlakatimizda hayotdan mahrum qilishdan ham og'ir jinoyat mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasining "Terro-rizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonu-ni 9-moddasida O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati vakolatlaridan biri sifatida "chegara oldi mintaqasida va che-gara oldi zonasida terrorchilarni, terrorchi-lik guruhlarini aniqlash, zararsizlantirish, qarshilik ko'rsatilgan taqdirda esa ularni yo'q qilish choralarini ko'rish" keltirilgan. Qonunning 17-moddasida esa "agar terror-chilar bilan muzokaralar o'tkazish natijasida ular terrorchilik harakatini to'xtatishga rozi emasligi sababli muzokaralardan ko'zlangan maqsadga erishish mumkin bo'lmasa hamda jismoniy shaxslar hayoti va sog'lig'iga aniq tahdid saqlanib turgan bo'lsa, terrorchilar-ni zararsizlantirish va yo'q qilish yuzasidan zarur choralar ko'rilishi" mustahkamlangan. Bizningcha, bu norma terrorga javob turini tanlashda inson hayoti miqdorini taqqoslash lozimligi qoidasi o'rnatilganini bildirmaydi. Ushbu qonun matnida terrorchilarni qirib yuborish sharti ular "qarshilik ko'rsatgan" bo'lishlari, real tarzda namoyon bo'lgan "aniq tahdid saqlanib turgan" bo'lishi kabi jumlar bilan bayon qilingan. Shunga ko'ra, bu o'rinda oxirgi zaruratning emas, balki zaruriy mu-dofaaning rasmiy belgilari ko'zga tashlanadi. Insonlarning bir qanchasini qutqarish uchun boshqa birini halok qilish (zaruriy mudofaa belgilari bo'lmagan holatda) amaldagi jinoyat qonunchiligiga muvofiq oxirgi zarurat chega-rasidan chiqish, deb topilishi lozim.

Fikrimizga asos qilib, so'rovnoma natijala-rini keltirib o'tishni lozim topdik. Natijalarga ko'ra, yuqoridagi mavzuga aloqador savolga 42,9 foiz respondent xavf hayot bilan bog'liq bo'lganda oxirgi zarurat cheklovsiz tatbiq etilishi mumkin emasligini, bu O'zbekiston Res-publikasi Konstitutsiyasining talablariga zid ekanini ko'rsatgan. Shuningdek, so'rovnoma

ishtirokchilarining 42,9 foizi yashash huqu-qidan har qanday holatda ham mahrum etish qonuniy bo'lishi mumkin emas deb hisoblab, bu holatda oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish mavjud bo'lishini ta'kidlagan. Faqatgi-na 14,2 foiz ishtirokchining fikricha, bunday holatda oxirgi zarurat mavjud bo'la oladi.

Bizningcha ham, ikki zararni taqqoslash vaziyatida miqdor barcha holda ham muhim sanalmaydi, inson hayoti masalasida uning qo'llanishi mumkin emas. Imre Bekesning ta'biri bilan aytganda, inson hayotiga bo'lgan xavf masalasida mutanosiblik qilmishning oqlanishiga asos bo'lmaydi [24, 181-b.].

Na xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida va na bizning qonunchiligimizda oxirgi zaru-rat holatida shaxs o'limiga sabab bo'lish oq-lanmaydi. Dunyo amaliyotida eng yuqori in-stansiyalar ham bu qilmishni himoyalashdan tiyilganini uchratish mumkin.

Quyida eng mashhur misollardan birini keltirib o'tmoqchimiz. XIX asrda Britaniya-da ko'rilgan "Qirolicha Dudli va Stefenga qarshi" (the Queen versus Dudley and Step-hens) ishiga ko'ra, janubiy Atlantika okeani-da cho'kkan "Mignonette" kemasidan qayiq-da qutulib qolgan 4 shaxs – kapitan Dudli, uning birinchi yordamchisi Stefen, dengizchi Bruks va 17 yoshli yetim yugurdak (yun-ga) Richard Parker qayiqda o'tgan 8-ku-nida umuman suv va ovqatsiz qolishgach, 20-kuni dengiz suvini ichib qo'ygani uchun betob bo'lgan Parkerni o'ldirishadi va 4 kun davomida go'shtini yeb, qonini ichib jon saq-lashadi. 24-kun nemis kemasi ularni qut-qaradi va Angliyaga olib boradi. Angliyada bo'lib o'tgan sudda mazkur qilmish sodir etilmaganida ehtimol 4 kishi barchasi ham o'lishi mumkinligi inkor etilmagan bo'lsa-da, sud ularni qotillikda aybdor deb topgan va o'linga hukm qilgan [25, 22-b.].

Oxirgi zarurat holatini yanada oydin-lashtirish uchun savollar tug'iladi: 19-kuni lotereya o'ynalsa-yu, Parker yutqiz-ganida uni o'ldirishsa, vaziyat o'zgargan bo'larmidi? Parkerning o'z xohishi bilan uni

o'ldirishganida-chi? Dengiz suvini ichgani uchun o'zi kasal bo'lgan Parkerning o'lishini kutish kerakmidi?

Fikrimizcha, yuqoridagi hollarda ham uni o'ldirish jinoyat bo'lib qolaverardi, sababi shundaki, Britaniyada ham, O'zbekistonda ham evtanaziyaga yo'l qo'yilmaydi va birovning o'z joniga qasd qilishiga yordamlashgan barcha jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Deylik, shifokor bitta sog'lom odamni chorasizlikdan o'ldirib, tana a'zolarini 3 ta bemor hayotini saqlab qolish uchun transplantatsiya qilsa va ushbu vaziyatga oxirgi zaruratni vaj qilib ko'rsatsa, bu qilmish asosli bo'la oladimi? Bu vaziyatda mazkur bir shaxsning hayoti 3 ta shaxsning hayotga bo'lgan huquqidan kamroq muhofaza qilingan deyish mumkinmi? Albatta, yo'q. Bizningcha, insonlar hayotini taqqoslash mumkin emas, har bir insonning hayoti boshqa inson hayoti bilan taqqoslab bo'lmaydigan eng muhim ne'matdir.

Masalan, Germaniyada ko'rilgan ishga ko'ra, shifokor bir nogironni o'ldirishi bilan bir qancha o'zga nogiron shaxslarning hayotini saqlab qoladi. Himoya tomon bir qancha nogironlarning muqarrar o'limi shu orqali saqlab qolinishi mumkin bo'lgani haqida keltirgan dalillarni sud inkor etgan va sudlanuvchiga hukm o'qilgan [26]. *Jonatan Herring*ning fikricha, bu kabi vaziyatni qo'llovchilar juda kam [14, 757-b.] bo'lib, bu oxirgi zaruratning amaliy hamda nazariy muammolariga borib taqaladi.

AQShda ko'rib chiqilgan halokatga uchragan kema bilan bog'liq ishda kapitanning 14 erkak yo'lovchini qolgan yo'lovchilarni saqlab qolish uchun o'limga mahkum etishi yoqlanmagan. Portga kelgach, Xolms qotillikda ayblanib javobgarlikka tortilgan va aybdor deb topilgan. AQSh prezidenti ham uni afv etishdan bosh tortgan [27, 6-b.].

Biroq G'arb huquqshunoslari orasida Nyu Yorkdagi Jahon savdo markazi binolarining vayron qilinishi bilan bog'liq hodisadan so'ng o'g'irlangan samolyotlarni havoda urib tushirishni, bunda hatto begunoh yo'lovchilar va

ekipaj a'zolari o'limi yuzaga kelishi xavfi aniq bo'lsa ham, qonuniy harakat [28, 273-274-b.] deb hisoblovchilar mavjud.

Oxirgi zaruratga oid normalarning eng yaxshi ifodasi Germaniya qonunchiligida taqdim qilingan, deyish mumkin. Germaniya JKda bir emas ikki turdagi oxirgi zarurat mavjudligi bayon qilinadi. Ularning birinchisi himoyaga olingan obyekt voz kechilganidan sezilarli darajada ustun bo'lgan holatni qonuniy deb topadi, demak, qilmishda g'ayriqonuniylik uchramaydi. Ikkinchi shakldagi oxirgi zarurat shaxsni aybsiz deb topilishiga emas, balki uni qisman kechirishga qaratilgan oxirgi zarurat qoidasini qamrab oladi.

Hatto 2001-yil 11-sentabrida terroristlar tomonidan qo'lga kiritilgan samolyotlar urib tushirilib, yuzlab odamlarning hayoti saqlab qolingani bo'lganida ham, GFR Jinoyat kodeksining 34-moddasi qoidasiga ko'ra, bu harakatlar qonuniy deb hisoblanmagan bo'lardi, sababi, GFR qonuniga ko'ra har bir insonning hayoti miqdorning ahamiyati bo'lmagan oliy ne'mat sanaladi [29, 61-b.].

E. Schmidxozerning ushbu qarashi, bizningcha, e'tiborga arziydi: "Aybni bartaraf etadigan holatlar bo'yicha biz subyektning ichki (hissiy) aybini o'ziga xos tarzda kamaytiradigan tegishli kechinmalarini (aqliy) tushunamizki, aslida huquqiy jihatdan ayb mavjud bo'lsa-da, ayni vaziyatda ayb mavjudligi inkor qilinadi" [30, 203-b.].

Bizningcha ham, oxirgi zarurat cheki va chegarasi bo'lmagan institut bo'lib, uning qoidalari asosida ba'zan jazoni va ba'zan javobgarlikni inkor qilish mumkin. Ushbu institutning o'ta foydali ekani va u taqiqlangan qilmishni bajarishdan iborat bo'lsa-da, aslida ijobiy maqsad yo'lida sodir etilishi, bu jazo istisno etilishi kerakligini fikrimizga asos sifatida keltirmoqchimiz.

Xulosalar

Yuqoridagi tahlil natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, yuqorida aniqlanganidek, oxirgi zaruratda qilmish doim ijobiy ba-

hoga ega bo'lmay, ba'zan noqonuniy deb topilishi ham kuzatilishi mumkin. Aynan mazkur hollarda o'ziga nisbatan tajovuzni sezgan shaxs uchun boshqa huquq, ya'ni zaruriy mudofaa huquqi kelib chiqaveradi. Oxirgi zarurat holati mavjudligi fakti huquq va manfaatlariga xavf yuzaga kelgan shaxs uchun zaruriy mudofaa huquqi istisno etilishini anglatmaydi.

Ikkinchidan, yetkazilgan hamda oldi olingan zararni aniqlashda, ya'ni oxirgi zarurat holatida yetkazilgan asosli zarar miqdorini aniqlashda huquqlar gradatsiyasi jinoyatlarining tasnifiga muvofiq quyidagi ketma-ketlik asosida baholanishi lozim:

a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan < uncha og'ir bo'lmagan < og'ir < o'ta og'ir.

b) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan holda ehtiyotsizlik bilan xarakterlanuvchi < ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan holda qasd bilan xarakterlanuvchi < uncha og'ir bo'lmagan holda ehtiyotsizlik bilan xarakterlanuvchi < uncha og'ir bo'lmagan holda qasd bilan xarakterlanuvchi.

Uchinchidan, oxirgi zaruratning qonuniylik shartlari faqat jinoyat huquqi bilan emas, balki boshqa huquq sohalariga tegishli normalar bilan tartibga solinishi ham mumkin. Mazkur o'rinda oxirgi zarurat murakkabligiga, sohalararo xususiyatiga ko'ra blanket norma ekanini inkor etishning imkoni yo'q.

To'rtinchidan, inson hayoti masalasida bir inson hayotini himoya qilish maqsadida ikkinchi inson hayotini qurbon qilish holatlari qonuniy harakat sifatida tan olinmaydi. Shu bilan bir qatorda, bir inson hayotini qurbon qilish orqali bir necha hayotlar qutqarib qolinishi hollarida ham oxirgi zarurat chegarasidan chiqish yuzaga kelgan bo'laveradi.

Beshinchidan, terrorchilarni zararsizlantirish va yo'q qilish yuzasidan zarur choralar ko'rilishi bilan bog'liq norma terrorga javob qaytarish jarayonida inson hayoti miqdorini taqqoslashga qaratilgan. Shuni inobatga olib, bu kabi hollarda oxirgi zarurat normasi qo'llanishi mumkin emas. Inson hayotiga bo'lgan xavf masalasida mutanosiblik tamoyili asosida qilmish oxirgi zarurat qoidalariga havola etilishi qonun normalariga zid hisoblanadi. Terrorchilarni qirib yuborish bilan bog'liq choralar qo'llanishi uchun ular "qarshilik ko'rsatgan" bo'lishlari, real tarzda namoyon bo'lgan "aniq tahdid saqlanib turgan" bo'lishi lozimligi holatlari inobatga olib, bu holatda oxirgi zarurat emas, balki zaruriy mudofaa normalari qo'llanishi lozim. Insonlarning bir qanchasini qutqarish uchun boshqa birini halok qilish zaruriy mudofaa belgilari rasman mavjud bo'lganda yo'l qo'yilishi mumkin, biroq oxirgi zarurat qonuniy shartlari har qanday vaziyatda bu kabi choralar qo'llanishiga yo'l qo'ymaydi.

Oltinchidan, oxirgi zarurat holatida yetkazilishiga yo'l qo'yilgan zararining chegarasi qat'iy bo'lib, ulardan har qanday og'ish yuzaga kelganda, ya'ni zarar miqdori oshib ketishi emas, balki teng bo'lib qolgan hollarda ham qilmish javobgarlikni istisno eta olmaydi. Biroq yuqorida tahlil qilingan muammolarning keng qamrovli ekanini, ilg'or xorijiy davlatlar, jumladan, Germaniya tajribasini inobatga olib, oxirgi zarurat ba'zan javobgarlikni istisno etishi va ba'zan shaxs qilmishi uchun javobgar bo'lib qolgani holda uning qilmishi jazoni istisno etishi mumkin ekanini nazariy jihatdan tan olish lozim.

REFERENCES

1. Pudovochkin Y.Y. Ucheniye o prestuplenii [The Doctrine of Crime]. Moscow, 2010, p. 276.
2. Stankevich A.M. Predely pravomernosti krayney neobkhodimosti [The Limits of Legality in Cases of Extreme Necessity]. Moscow, 2011, p. 120.

3. Lisak N.V. Kommentariy k ugolovnomu kodeksu RF: rasshirennyy ugolovno-pravovoy analiz s materialami sudebno-sledstvennoy praktiki [Commentary on the Criminal Code of the Russian Federation: Expanded Criminal-Legal Analysis with Materials from Judicial and Investigative Practice]. V.V. Mozyanov (Ed.). Moscow, 2004, p. 75.
4. Barclay G. Necessity and coercion in Scots criminal law: a critical analysis. 2022, p. 262. Available at: <https://theses.gla.ac.uk/82797/>
5. Milyukov S.F. Ensiklopediya ugolovnogo prava. Obstoyatelstva, isklyuchayusshiye prestupnost' deyaniya [Encyclopedia of Criminal Law. Circumstances Excluding the Criminality of an Act]. St. Petersburg, 2007, vol. 7, p. 265.
6. Pleshakov A. M., Shkabin G. V. Institut krayney neobkhodimosti v rossiyskom ugolovnom prave [The Institute of Extreme Necessity in Russian Criminal Law]. Moscow, 2006, p. 240.
7. Gexfenbaum G. M. Kraynyaya neobkhodimost' v ugolovnom prave [Extreme Necessity in Criminal Law]. Stavropol, 2002, p. 165.
8. Oreshkina T. Kraynyaya neobkhodimost' kak obstoyatel'stvo, isklyuchayussheye prestupnost' deyaniya. Ugolovnoye pravo [Extreme Necessity as a Circumstance Excluding the Criminality of an Act. Criminal Law]. 1999, vol. 3, p. 17.
9. Khametdinova G.F. Ugolovno-pravovaya kharakteristika krayney neobkhodimosti [Criminal-Legal Characteristics of Extreme Necessity]. Tyumen, 2007, p. 22.
10. Vinokurov V. N. Kraynyaya neobkhodimost' kak obstoyatel'stvo, isklyuchayussheye prestupnost' deyaniya [Extreme Necessity as a Circumstance Excluding the Criminality of an Act]. Ryazan, 1999, p. 202.
11. Dmitrenko A.P. Obstoyatel'stva, isklyuchayusshiye prestupnost' deyaniya, v ugolovnom prave Rossii: osnovy teorii, zakonodatel'noy reglamentatsii i pravoprimeneniya [Circumstances Excluding the Criminality of an Act in Russian Criminal Law: Foundations of Theory, Legislative Regulation, and Law Enforcement]. Moscow, 2011, p. 51.
12. Blinnikov V.A. Obstoyatel'stva, isklyuchayusshiye prestupnost' deyaniya, v ugolovnom prave Rossii [Circumstances Excluding the Criminality of an Act in Russian Criminal Law]. Stavropol, 2001, p. 140.
13. Merkurev V.V. Zashchita bezopasnosti cheloveka i yego zhiznedeyatel'nosti [Protection of Human Safety and Vital Activity]. Moscow, 2006, p. 448.
14. Jonathan H. Criminal law: Text, cases, and materials. Fifth edition. Oxford University Press, 2012, p. 659.
15. Slutskiy I.I. Obstoyatel'stva, isklyuchayusshiye ugolovnuyu otvetstvennost' [Circumstances Excluding Criminal Liability]. Leningrad, Leningrad University Press, 1956, p. 105.
16. Shargorodskiy M.D. Izbrannyye raboty po ugolovnomu pravu [Selected Works on Criminal Law]. St. Petersburg, Legal Center Press, 2003, p. 570.
17. Knud H. The elements of universal jurisprudence. Natural law and enlightenment classics. Wisconsin, Liberty fund Publ., p. 330.
18. WLR, 2001. Available at: <https://www.e-lawresources.co.uk/re-a-conjoined-twins-2001>
19. Tagantsev N.S. Russkoye ugolovnoye pravo [Russian Criminal Law]. Moscow, 1994, vol. 1, p. 555.
20. Vladimirov V.A., Lyapunov Yu.I. Obstoyatel'stva, isklyuchayusshiye prestupnost' deyaniya [Circumstances Excluding the Criminality of an Act]. Moscow, 1970, p. 120.
21. Nikulenko A.V. Obstoyatel'stva, isklyuchayusshiye prestupnost' deyaniya: kontseptual'nyye osnovy ugolovno-pravovoy reglamentatsii [Circumstances Excluding the Criminality of an Act: Conceptual Foundations of Criminal-Legal Regulation]. St. Petersburg, 2019, p. 275.
22. Khametdinova G.F. Ugolovno-pravovaya kharakteristika krayney neobkhodimosti [Criminal-Legal Characteristics of Extreme Necessity]. Tyumen, 2007, p. 220.
23. Krylova N., Pavlova N. Kraynyaya neobkhodimost' v meditsinskoy deyatel'nosti: nekotoryye voprosy prakticheskogo primeneniya [Extreme Necessity in Medical Practice: Some Issues of Practical Application]. 2005, vol. 1, pp. 41–44.

24. Imre B. General Part of Criminal Law. Budapest, Tankönyvkiadó Publ., 1974, p. 181.

25. Walker A. Is eating people wrong?: Great legal cases and how they shaped the world. Cambridge University Press, New York, 2011, p. 22. Available at: <https://assets.cambridge.org/97811070/00377/>

26. Federal High Court of Germany. New Legal Weekly, 1953, p. 513. Available at: <https://beck-online.beck.de/>

27. Dreadful Sh. The Times. London, 1841, p. 6.

28. Smith J. Criminal Law. 10th ed. London, 2002, p. 1068.

29. Mitsch W. Weber-FS. P. 61. Available at: <https://www.gieseking-verlag.de/festgaben>

30. Jalinskiy A.E. Sovremennoye nemetskoye ugovnoye pravo [Modern German Criminal Law]. Moscow, 2004, p. 560.

Kelib tushgan / Получено / Received: 22.11.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 28.01.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 17.02.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.1./DMYB6744

UDC: 343.232(045)(575.1)

SHAXSNI TUTQUNLIKKA OLISH BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI TERGOV QILISH: XORIJ TAJRIBASI

Xudaybergenov Baxram Kuanishbaevich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası

dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0002-0173-5442

e-mail: xudaybergenovbaxram550@gmail.com

Habibullayev Dalerbek Baxtiyor o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 4-kurs talabasi

ORCID: 0009-0004-2513-458X

e-mail: habibullayevdalerbek@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatlarni tergov qilish masalalari xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida tahlil qilingan. Tadqiqot predmeti sifatida AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Ozarbayjon kabi davlatlarning tergov amaliyoti o'rganilgan. Shaxsning erkinlik va daxlsizlik huquqlarini buzish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishning murakkabligi, gumon qilinuvchilarni aniqlash va dalillarni to'plash jarayonida kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini to'g'ri tashkil etish zarurati ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Tergov jarayonida xalqaro tajribadan foydalanish jinoyatlarni tez va to'liq fosh etish imkoniyatini oshiradi. Tadqiqotdagi asosiy muammo – shaxsni tutqunlikka olish jinoyatlarini tergov qilishning milliy va xalqaro usullari o'rtasidagi farqlarni aniqlash, ilg'or tajribalarni milliy tergov amaliyotiga joriy etish imkoniyatlarini o'rganishdan iborat. Unda qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi. Buyuk Britaniyaning "oltin soat" prinsipi, AQSh tergovchilarning malaka darajalarini ko'rsatadigan sertifikatlashtirish tizimi, Germaniyada huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasidagi hamkorlik, Fransiya'dagi tergov sudyasi instituti va Ozarbayjonning jabrlanuvchilarni rehabilitatsiya qilish tizimi shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatlarini tergov qilishda muhim omillar ekanligi aniqlandi. Maqola yakunida ushbu natijalarni jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish, tergov amaliyotida zamonaviy uslublarga o'tish va jinoyat protsessining samaradorligini oshirishda qo'llash mumkinligi haqidagi takliflar ilgari surildi. Milliy qonunchilikni xorijiy tajribalar bilan uyg'unlashtirish tergov jarayonlarining yanada adolatli va shaffof bo'lishini ta'minlashga yordam berishi ta'kidlandi.

Kalit so'zlar: jinoyat protsessi, xorij tajribasi, shaxsni tutqunlikka olish, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi, tergov qilish, tergovchi, garovga olish, "oltin soat" prinsipi, tergov sudyasi, odam savdosi

РАССЛЕДОВАНИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ЗАХВАТОМ ЗАЛОЖНИКОВ: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

Худайбергенов Бахрам Куанышбаевич,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
доцент кафедры «Уголовно-процессуальное право»
Ташкентского государственного юридического университета

Хабибуллаев Далербек Бахтиёр угли,
студент 4-го курса факультета уголовного и судебного правосудия
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье на основе опыта зарубежных стран проанализированы вопросы расследования преступлений, связанных с захватом заложников. В качестве предмета исследования изучена практика расследования в таких странах, как США, Великобритания, Германия, Франция и Азербайджан. Актуальность темы обусловлена сложностью расследования преступлений, связанных с нарушением прав на свободу и неприкосновенность личности, а также необходимостью правильной организации оперативных следственных действий в процессе выявления подозреваемых и сбора доказательств. Использование международного опыта в процессе расследования повышает возможности быстрого и полного раскрытия преступлений. Основная проблема в данном исследовании заключается в выявлении различий между национальными и международными методами расследования преступлений, связанных с захватом заложников, и изучении возможностей внедрения передового опыта в национальную следственную практику. В работе использованы методы сравнительно-правового анализа, системного подхода, синтеза, наблюдения, обобщения, индукции и дедукции. Установлено, что такие факторы, как принцип «золотого часа» в Великобритании, система сертификации следователей в США, сотрудничество между правоохранительными органами в Германии, институт следственного судьи во Франции и система реабилитации пострадавших в Азербайджане, играют важную роль в расследовании преступлений, связанных с захватом заложников. В заключение статьи предложены рекомендации по использованию этих результатов для совершенствования уголовно-процессуального законодательства, перехода к современным методам в следственной практике и повышения эффективности уголовного процесса. Отмечено, что гармонизация национального законодательства с зарубежным опытом способствует обеспечению более справедливого и прозрачного следственного процесса.

Ключевые слова: уголовный процесс, зарубежный опыт, захват заложников, право на свободу и личную неприкосновенность, расследование, следователь, взятие в заложники, принцип «золотого часа», следственный судья, торговля людьми

INVESTIGATION OF CRIMES RELATED TO HOSTAGE-TAKING: FOREIGN EXPERIENCE

Khudaybergenov Bakhram Kuanishbaevich,
Associate Professor of the Department of Criminal Procedural Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Habibullayev Dalerbek Bakhtiyor ugli,
4th year student of the Faculty of Criminal Justice,
Tashkent State University of Law

Abstract. This article examines the issues related to the investigation of crimes involving hostage-taking based on the experience of foreign countries. The investigative practices of countries such as the United States, Great Britain, Germany, France, and Azerbaijan have been studied as part of the research. The complexity of investigating crimes that violate personal freedom and inviolability, the need to properly organize urgent investigative actions in identifying suspects and gathering evidence, underscores the relevance of this topic. Additionally, the use of international experiences contributes to more rapid and comprehensive detection of these crimes. The main problem addressed in the research is identifying the differences between national and international methods of investigating hostage-taking crimes and exploring opportunities to integrate advanced practices into national investigative procedures. The study employs comparative legal analysis, a systematic approach, synthesis, observation, generalization, induction, and deduction methods. It examines the criminal procedural legislation of foreign countries, investigative practices, and the activities of law enforcement agencies from a scientific and theoretical perspective. Key factors in investigating hostage-taking crimes include the United Kingdom's "Golden hour" principle, the United States' certification system for investigators' qualifications, cooperation among law enforcement agencies in Germany, the investigative judge system in France, and Azerbaijan's victim rehabilitation system. The article concludes with proposals for using these findings to improve criminal procedural legislation, adopt modern methods in investigative practices, and enhance the efficiency of criminal proceedings. Harmonizing national legislation with foreign experiences can help ensure a more just and transparent investigative process.

Keywords: criminal procedure, foreign experience, imprisonment, the right to freedom and personal inviolability, investigation, investigator, hostage, "Golden hour" principle, investigative judge, human trafficking

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" strategiyasining 87-maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmat va huquqlarini himoya qilishga yo'naltirish belgilandi. Jinoyatlarining barvaqt oldini olish, bunda surishtiruv va tergov organlari faoliyati samaradorligini oshirish, sud-tergov faoliyatida shaxs huquq va erkinliklariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash masalalari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar markazidagi ustuvor vazifa hisoblanadi. Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizning 27-moddasiga muvofiq, "Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas".

Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyati aynan insonning ajralmas va asosiy

huquqlaridan biri bo'lgan erkinlikka tajovuz qilinishida namoyon bo'ladi. Shu sababli ham shaxsni tutqunlikka olish jinoyatlarini tergov qilish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish yangi O'zbekistonning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga, xususan, xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish g'oyasiga to'la mos kelishi shubhasiz. Shaxsni tutqunlikka olish jinoyatlarini tergov qilishda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini o'rganish orqali huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tergov sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirishga erishish mumkin.

Yuridik adabiyotlar, shuningdek, ilmiy asarlar tahlilida ma'lum bir soha yoki institutning genezisi retrospektiv usulda – mexanizmlari, tartibga solish masalalari chuqur tadqiq qilinadi. Har bir huquqiy institutning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganishda huquqni qo'llash amaliyotida yuzaga kelgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini qiyosiy tahlil qilish imkoni bo'ladi. Ushbu masala qator xorijiy va milliy olimlar tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, xu-

susan, J. Ibroximov terrorchilik xususiyatiga ega bo'lgan jinoyatlarning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini tadqiq etishda garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatlaridan farqli belgilarini ajratib beradi [1]. D. Kurbonov esa shaxsning ozodligiga qarshi qaratilgan jinoyatlarning tasnifini belgilagan [2, 74–77-b.]. A.V. Andrushko shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatlarining davlatlararo munosabatlardagi xususiyatlarini tadqiq qilgan [3, 25-26-b.].

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 3-moddasida har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egaligi belgilangan. Ushbu norma ko'pgina mamlakatlarning konstitutsiyalarida ham o'z aksini topgan bo'lib, har bir davlat fuqarolarining erkinligi va shaxsiy daxlsizligini himoya qilishni ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilaydi. Shu maqsadda ham shaxsning erkinligini cheklovchi, uni tutqunlikka olish bilan bog'liq harakatlar jinoiy qilmish deb topiladi [4].

O'zbek tilining izohli lug'atida "tutqun" so'zi "asir olingan, asirlik holatidagi shaxs, asir, bandi" kabi (ko'chma ma'noda: erki, huquqi o'zida bo'lmagan, huquqi birov ixtiyorida bo'lgan) ma'nolarda uchraydi. Xuddi shunday shaxsni tutqunlikka olish bilan bog'liq jinoyatlarda ham shaxsning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik, erkin harakatlanish kabi huquqlari muayyan tarzda buzilib, u boshqa shaxs qo'liga asirlik holatiga tushib qolishi kuzatiladi [5].

Material va metodlar

Tadqiqotda shaxsni tutqunlikka olish jinoyatlarini tergov qilish bo'yicha milliy va xorijiy davlatlarning qonunchilik normalari, huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi. Materiallar qiyosiy-huquqiy, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlarini qo'llagan holda o'rganildi.

Tadqiqot natijalari

Shaxsning ozodligini noqonuniy ravishda cheklash yoki mahrum qilish bilan bog'liq

jinoyat tarkiblari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining bir nechta moddalarida o'z aksini topgan. Xususan, "odam o'g'irlash" (137-modda), "zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish" (138-modda), "terrorizm" (155-modda), "tovlamachilik" (165-modda), "qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki hibsga olish" (234-modda), "shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish" (245-modda) jinoyatlari shular jumlasidandir. Garchi ushbu jinoyat tarkiblari o'zining obyekti, jinoyat sodir etish sabablari va maqsadlari, usuli, obyektiv tomoni, subyekti kabi jihatlar bilan bir-biridan farq qilsa-da, yuqoridagi barcha jinoyatlarda shaxsning g'ayriqonuniy ravishda tutqunlikka olinishini umumiy jihati sifatida keltirsak bo'ladi.

Mazkur jinoyatlar tarkibidagi umumiy o'xshashlik – jabrlanuvchining o'zi xohlagan yerda bo'lish erkinligini cheklashda, ayrim hollarda uni bog'lash orqali binoda saqlash, boshqa shaxslar bilan erkin muomalada bo'lish imkoniyatidan mahrum qilish, agar ruxsat etilsa ham, faqatgina jinoyatchilar roziligi yoki ularning ko'rsatmasiga asosan ruxsat berishda namoyon bo'ladi [6].

Qayd etish kerakki, shaxsni tutqunlikka olish bilan bog'liq jinoyatlarni tez va to'la ochish, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo'lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi, hukm qilinmasligi tergov organlari xodimlariga katta mas'uliyat yuklaydi. Aybdorlarni fosh etish, tutqunlikka olingan shaxslarni ozod qilish, ularning erkinligi va daxlsizligini ta'minlash uchun esa to'g'ri taktika va metodlar qo'llanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsni tutqunlikka olish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish sohasida AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Ozarbayjon kabi davlatlar, shuningdek, MDHga a'zo davlatlarining tergov amaliyotida tajribalar anchagina. Ulardagi ijobiy jihatlarini milliy tergov amaliyotiga tatbiq qilish ushbu jino-

yatlarni fosh etish va tergov qilishni takomillashtirishda yaxshi samara beradi deb hisoblaymiz.

BMTning Narkotik moddalar va jinoyatchilik masalalari bo'yicha idorasining (UNODC) 2023-yildagi hisobotidan [7] ayrim davlatlardagi shaxsni tutqunlikka olish jinoyatlari hamda ushbu jinoyatlarni fosh etish bilan bog'liq statistika tahlili joy olgan. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, davlatlarning tergov sohasidagi muvaffaqiyati bevosita uning iqtisodiy salohiyati bilan chambarchas bog'liq (1-jadval).

1-jadval

Ayrim xorijiy davlatlardagi shaxsni tutqunlikka olish bilan bog'liq jinoyatlar hamda ularni tergov qilish muvaffaqiyatining statistik-taqqoslama jadvali

Mamlakat	Yillik holatlar soni (2023-yil)	Tergov muvaffaqiyati (%)
AQSh	2 100	88 %
Germaniya	320	94 %
Meksika	5 500	45 %
Nigeriya	3 800	32 %
Yaponiya	95	98 %

Xorijiy davlatlar qonunchiligining muayyan huquqiy jihatlarini o'rganishda davlatimiz va jamiyatimizga xos huquqiy, ijtimoiy, milliy hamda siyosiy xususiyatlar inobatga olinishi zarur.

Tadqiqot natijalari tahlili

AQSh tajribasi

AQShda odam o'g'irlash va garovga olish jinoyatlari, umuman olganda shaxsni tutqunlikka olish bilan bog'liq jinoyatlar sodir etilishi juda jiddiy va shov-shuvli holat sifatida qabul qilinadi. Holat bir nechta huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan tekshiriladi va tergov jarayonlari amalga oshiriladi [8]. Bunda bir nechta huquqni muhofaza qilish organlarining o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishini alohida e'tirof etish lozim. Shahar politsiyasi bo'limlari, sheriflar, shtat

politsiyasi, yo'l patrul xizmati, Federal qidiruv byurosi (FQB), AQSh Maxfiy xizmati (*U.S. Secret Service*), AQSh Marshal xizmati (*U.S. Marshals Service*) kabilar shular jumlasiga kiradi.

AQShda shaxsni tutqunlikka olish bilan bog'liq jinoyat sodir etilganda tergov harakatlari bir necha bosqichda amalga oshiriladi.

1-bosqich. Dastlabki ma'lumot (jinoyat haqida xabar) – odam o'g'irlash yoki garov sifatida tutqunlikka olish haqida xabar berilganda odatda mahalliy huquq-tartibot idoralari (shahar politsiyasi bo'limlari, sheriflar) birinchi bo'lib hodisa sodir bo'lgan joyga boradi. Bundan maqsad jinoyat haqida dastlabki ma'lumotlarni yig'ish, sodir etilgan jinoyat bo'yicha dalillar yo'q bo'lib ketishining oldini olish va vaziyatni baholashdir [9].

2-bosqich. AQSh Federal qidiruv byurosi-ning holatni o'rganishi – FQB AQShda shaxsni tutqunlikka olish bo'yicha jinoyatlarni tergov qilishda asosiy vakolatlarga ega. Ular tergovni muvofiqlashtirish uchun mahalliy huquqni muhofaza qilish organlari bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

Shuningdek, FQBning Jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish idorasi (*OVA*) jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslarga va ularning oilalariga yordam ko'rsatadi. Ushbu holatga jinoyatlarni tergov qilish paytidagi diqqatga sazovor qismlaridan biri sifatida qarash mumkin. Ta'kidlash lozimki, FQBning jinoyatlarni fosh etish vaqtida huquqni muhofaza qilish organlarini o'zaro muvofiqlashtirib turish vakolati ham bor. Masalan, agarda tergov qilinayotgan jinoyat ishi xalqaro xususiyatlarga ega bo'lsa, Adliya departamenti va Diplomatik xavfsizlik byurosi kabi boshqa federal idoralar ham jalb qilinishi mumkin.

3-bosqich. Tergov – ushbu bosqich dalillarni to'plash, guvohlarni so'roq qilish va gumonlanuvchilarni qidirish kabi protsessual harakatlarni o'z ichiga oladi. FQB vaziyatni to'g'ri hal qilish uchun turli resurslardan, jumladan, sud-tibbiyot, kuza-tuv va muzokaralar bo'yicha ekspertlardan

foydalanadi. Tergovchilar jinoyat joyidan ashyoviy dalillarni oladi, kuzatuv kameralarini tahlil qiladi, telefon yozuvlari va ijtimoiy media faoliyati kabi raqamli dalillarni to'playdi. Huquqni muhofaza qilish organlari guvohlar, jabrlanuvchining oila a'zolari va ish bo'yicha ma'lumotga ega bo'lgan har qanday shaxs bilan suhbatlar o'tkazib, ularni so'roq qiladi. Tergovchilar ko'pincha razvedka ma'lumotlarini to'plash va jabrlanuvchini topish uchun GPS kuzatuvi, telefon triangulyatsiyasi hamda ijtimoiy media monitoringi kabi ilg'or texnologiyalardan foydalanadilar. Huquqni muhofaza qilish organlari gumon qilinuvchini topish bo'yicha axborotni tarqatish uchun jamoatchilik ogohlantirishlari yoki ommaviy axborot vositalarini jalb qilishi mumkin.

Tergov davomida tergovchilar va boshqa organ xodimlari tasdiqlangan tartib-tamoyillarga rioya qilishi kerak. Shu jumladan, belgilangan tartibda orderlarni olish va jinoyat ishidagi barcha ishtirokchilarning huquqlari hurmat qilinishini ta'minlashlari shart.

4-bosqich. Muzokaralar (shaxs garovga olingan vaziyatda) – garovga olish holatlarida maxsus tayyorgarlikdan o'tgan muzokarachilar garovga olinganlarni ozod qilishni ta'minlash uchun jinoyatchilar bilan vaziyatni yumshatishga qaratilgan usullarni qo'llashlari mumkin. Bu tutqunlikda ushlab turilgan shaxslarning sog'lig'i va hayotini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadigan bosqich bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Ba'zi hollarda shaxslarni ozod qilish uchun garovga olganlarga pul ham taklif etiladi.

5-bosqich. Ayblov – jabrlanuvchi topilgach va gumon qilinuvchi qo'lga olinsa, ish tergov jarayonida to'plangan dalillar bilan birga sudga taqdim etiladi. Gumonlanuvchilar federal qonunlar, masalan, "Garovga olish to'g'risida"gi qonun (18 U.S.C. § 1203) va Federal qonunga (18 U.S.C. § 1201) asosan jinoyiy javobgarlikka tortiladi.

Ta'kidlash kerakki, yuqorida keltirilgan tergov bosqichlari tugal bo'lmay, bir nechta

manbalarni o'rganish natijasida shakllantiridik.

AQShda hodisa sodir yuz bergan joyning tergovchisi sifatida faoliyat olib borish uchun qo'yiladigan talablar mavjud emas. Biroq tergovchilar o'zlarining malaka darajalarini ko'rsatadigan Xalqaro Identifikatsiya Uyushmasi (*International Association for Identification*) orqali sertifikatning to'rtta darajasini olishlari mumkin:

jinoyat joyi bo'yicha sertifikatlangan tergovchi;

jinoyat joyi bo'yicha sertifikatlangan tahlilchi;

jinoyat joyini qayta qurish bo'yicha sertifikatlangan shaxs;

jinoyat joyi bo'yicha sertifikatlangan katta tahlilchi.

Milliy qonunchilik normalari tahlillari natijasida mamlakatimizda tergovchi (surishtiruvchi) lavozimiga tayinlanadigan shaxslarga nisbatan aniq malaka talablari qo'yilmagan, degan xulosaga kelindi. Shu sababli ham AQShdagi singari tergovchilar uchun ularning malaka darajasini ko'rsatadigan sertifikatlash tizimini joriy etish shaxsni tutqunlikka olish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda samarali mexanizm sifatida xizmat qilishi mumkin.

AQShda shaxsni tutqunlikka olish bilan bog'liq jinoyat sodir etilganda hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakati quyidagi tartibda amalga oshiriladi [10]:

1) hodisa sodir bo'lgan joyning chegaralarini belgilab olish;

2) hodisa sodir bo'lgan joydagi dalillar yo'qolib ketishining oldini olish maqsadida xavfsizlik choralari ko'rish;

3) sodir etilgan jinoyat turi bo'yicha tushmollar ishlab chiqish hamda atrofdagi jinoyat guvohi bilan muloqotni amalga oshirish;

4) birlamchi ko'zdan kechirish tergov harakatini o'tkazish;

5) hodisa sodir bo'lgan joyni hujjatlashtirish va qayta ishlash;

6) ikkilamchi so'roqni yoxud ko'zdan kechirishni o'tkazish;

7) dalillarni qayd etish va saqlash.

Huquqshunos olimlar Kevin Bales hamda Steven Lize AQShda shaxsni tutqunlikka olish jinoyatlarini tergov qilishdagi jabrlanuvchilarning huquqlari haqida to'xtalib, jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda prokurorlar jabrlanuvchi va guvohlarga federal yordam berilishi bilan bog'liq muammolarga qo'shimcha ravishda ishning sudga qanday ta'sir ko'rsatishini ham hisobga olishlari kerakligini ta'kidlashgan. Shuningdek, prokurorlar sudyani ham jabrlanuvchining azob-uqubatlarini tushunib yetishga undashlari kerak, degan fikrni ilgari surishgan [11, 114-115-b.].

Buyuk Britaniya tajribasi

2023-2024-yillarda Angliya va Uelsda politsiya tomonidan odam o'g'irlash bo'yicha 7 277 ta jinoyat qayd etilgan, bu undan avvalgi yilga nisbatan biroz pasaygan. 2012-2013-hisobot yilida odam o'g'irlash bilan bog'liq jinoyatlar 1 388 tadan past darajaga yetdi, ammo o'shandan beri deyarli har bir hisobot yilida ortib bormoqda [12].

Buyuk Britaniyada 1982-yil 13-iyulda "Garovga olish to'g'risida"gi qonun (*Taking of Hostages Act 1982*) qabul qilingan [13]. Ushbu qonunga muvofiq, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olgan shaxs ayblovl xulosasiga ko'ra umrbod qamoq jazosiga hukm qilindi. Yuqoridagi statistik ma'lumotlar hamda qonun hujjatidan ham ko'rinib turibdiki, Buyuk Britaniyada (ayniqsa, Angliya va Uelsda) shaxsni tutqunlikka olish bilan bog'liq harakatlar jinoiy qilmish hisoblanadi va ushbu jinoyatlarni tergov qilish, shaxslarni javobgarlikka tortishga juda jiddiy qaraladi.

Buyuk Britaniyada jinoyat protsessini tartibga solish, muayyan jinoyat ishi bo'yicha tergov harakatlarini o'tkazish uchun Jinoyat-protsessual va Tergov amaliyoti kodeksi (CPIA) qabul qilingan [14]. Unda politsiya xodimlari tomonidan jinoyat ishi bo'yicha tergov jarayonida olingan va tergov uchun ahamiyat kasb etishi mumkin bo'lgan materi-

allarni qayd etish, saqlash va prokurorga oshkor qilish tartibi, ular bilan bog'liq masalalar belgilab berilgan.

Ushbu kodeksga ko'ra, *jinoyat tergov* – shaxs jinoyat sodir etganlikda aybdor yoki aybdor emasligini yoxud jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxsning aybdorligini aniqlash maqsadida politsiya xodimlari olib boradigan tergov. Bunga quyidagilar kiradi:

– sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish;

– jinoyat ishi qo'zg'atilishi mumkin bo'lgan holatlarda jinoyat sodir etilganini aniqlashdan iborat bo'lgan tergov;

– "jinoyat sodir etilishi mumkin" degan ishonch bilan boshlanadigan tergov, masalan, jinoyat ishini qo'zg'atish maqsadida politsiya binolarni yoki shaxslarni ma'lum vaqt davomida kuzatuv ostida ushlab turishi.

Buyuk Britaniyada (asosan Angliya va Uelsda) tergov politsiyaning asosiy vazifasidir. Jabrlanuvchilar, guvohlar va gumonlanuvchilarni so'roq qilish tergovning samarali yakun topishida katta ahamiyatga ega. Bunda tergovchilar eng yuqori standartlarga rioya qilishi kerak.

Shuningdek, David Alexander va Susan Kleinlar Buyuk Britaniyada shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda muzokaralar bir qancha afzalliklarga ega ekanini ta'kidlashadi [15]. Xususan, ushbu olimlar fikricha, muzokaralar vaqt talab qiladi, bu esa jinoyatchilar, garovga olinganlar va birinchi javob beruvchilarning hayajon darajasini pasaytirishga yordam beradi. Shuningdek, organlarga razvedka ma'lumotlarini yig'ish va yechim strategiyasini rejalashtirish imkonini yuzaga keltiradi. Buyuk Britaniyada garovga olingan shaxsning ozod qilinishi bo'yicha muzokaralar politsiyaning majburiyatidir. Agar ushbu davlat fuqarolari chet elda garovga olingan bo'lsa, hukumat ularning xavfsiz ozod qilinishini ta'minlash uchun javobgardir. Bu mas'uliyat Londondagi Tashqi ishlar va hamdo'stlik idorasi (FCO) orqali amalga oshiriladi, shuningdek, Buyuk Britaniyaning

elchixonalari va yuqori komissiyalari orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Politsiyaning Garovga olinganlar va muzokaralar bo'limi hukumat strategiyasini muvofiqlashtiradigan bo'limdir.

Muzokaralar jarayoni boshlanishi uchun politsiya xodimlari ham tegishli hodisa yuz bergan joyga yetib borishi talab qilinadi. Shu sababli ham Buyuk Britaniyada tergov jarayonida "oltin soat" (*Golden Hour*) tushunchasi juda ahamiyatli hisoblanadi [16]. "Oltin soat" – huquqbuzarlik yoki hodisa to'g'risida xabar berilgandan keyin darhol ijobiy choralar ko'rish kerak bo'lgan davr. U aksincha holatda yashirilishi, yo'qolishi, shikastlanishi, o'zgartirilishi yoki yo'q qilinishi mumkin bo'lgan materiallarni himoya qilish, saqlash yoki to'plashni o'z ichiga oladi. "Oltin soat" davomidagi samarali harakatlar gumonlanuvchilarni aniqlash, jabrlanuvchilar va guvohlarni himoya qilish imkoniyatini oshiradi, jinoiy odil sudlovning ijobiy natijalarini ta'minlashga yordam beradi.

Politsiya xodimlarining har bir a'zosi, masalan, hodisa joyidagi birinchi ofitser, bosh tergovchi yoki hodisa joyi tergovchisi – o'z roliga xos bo'lgan "oltin soat" imkoniyatlariga ega bo'ladi. "Oltin soat" prinsipi har qanday yangi holatni aniqlash, gumonlanuvchini hibsga olish yoki vaqt jihatidan muhim ahamiyatga ega bo'lgan boshqa muhim faoliyatga ham taalluqlidir.

Tergovning dastlabki bosqichlarida tergovchilar quyidagi savollarni aniqlashtirishga harakat qiladilar:

- jinoiyat sodir etilganmi?
- jabrlanuvchi kim?
- guvohlar bormi?
- hodisa sodir bo'lgan joy qayerda?
- gumonlanuvchini aniqlash mumkinmi?
- dalillarni qanday yig'ish mumkin?

Buyuk Britaniyada tergov tajribasining o'ziga xosligi shundaki, tergovchilar har bir jinoiyat ishi bo'yicha to'plangan barcha dalillarni maxsus jadval asosida baholaydilar (2-jadval).

2-jadval

Buyuk Britaniyada jinoiyat ishlarini yuritish jarayonida dalillarni baholash imkonini beruvchi maxsus jadval

	Nima ma'lum?	Nima nomal'm?	Qarama-qarshiliklar	Muvofiqliklar
Kim?				
Nima?				
Qachon?				
Qayerda?				
Nimaga?				
Qanday?				

Tergovchilar ushbu jadval yordamida dalillarning shaxsni ayblash uchun yetarli yoki yetarli emasligini, tergovdagi kamchiliklar va bo'shliqlarni aniqlash, ularni to'ldirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, dalillar yetarlilik, ishonchlilik, aloqadorlik kabi jihatlar orqali baholanadi.

Buyuk Britaniyaning tergov tajribasidagi dalillarni baholashning ushbu o'ziga xos jihati diqqatga sazovordir. Shu o'rinda qayd etish lozimki, milliy jinoiyat-protsessual qonunchiligimizda dalillarni baholashning aniq mexanizmi belgilanmagan.

Germaniya Federativ Respublikasi tajribasi

Germaniya Jinoiyat kodeksining 18-bobi "Shaxs erkinligiga qarshi jinoiyatlar" deb nomlangan. Milliy jinoiyat qonunchiligimizdan farqli o'laroq, hujjatda shaxsni tutqunlikka olish bilan bog'liq jinoiyatlar bitta bobda birlashtirilgan [17]. Ushbu bobda jinsiy ekspluatatsiya maqsadida odam savdosi, mehnatdan foydalanish maqsadida odam savdosi, odam savdosiga yordam berish, kuch ishlatish, tahdid yoki aldash yo'li bilan siyosiy ta'qib qilish xavfini keltirib chiqarish, voyaga yetmaganlarni ota-onasi qaramog'idan o'g'irlash, bolalar savdosi, noqonuniy qamoqqa olish, garovga olish kabi shaxsni tutqunlikka olish jinoiyati tarkiblariga ko'riladigan choralar o'rin olgan.

Germaniyada odam o'g'irlash va garovga olish jinoiyatlarini tergov qilish bir necha

asosiy bosqich va idoralarning o'zaro hamkorligini o'z ichiga oladi [18]. Xususan, odam o'g'irlash yoki garovga olish jinoyati haqida ariza yoki xabar berilganda odatda mahalliy politsiya birinchi bo'lib javob beradi hamda jinoyat sodir etilgan joyga boradi. Ular dastlabki ma'lumotlarni yig'adi, dalillarni to'playdi va vaziyatni baholaydi.

Germaniyada Federal Jinoiy politsiya boshqarmasi (BKA) mavjud bo'lib, ushbu organ mahalliy politsiyaga yordam beradi va og'ir jinoyatlar, jumladan, odam o'g'irlash va garovga olish bilan bog'liq tergovlarni muvofiqlashtiradi. Ularda bunday holatlarni aniqlash, tergov qilish uchun maxsus bo'linmalar mavjud. Shuningdek, Germaniyada shaxsni tutqunlikka olish bilan bog'liq sodir etilgan jinoyatlar xalqaro jihatlar mavjud bo'lsa, xalqaro politsiya tashkilotlari (Yevropol va Interpol) ham jalb qilinishi mumkin. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, Germaniyada tergov jarayonida xorijiy huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlik ham keng tarqalgan. Biroq Federal Jinoiy politsiya boshqarmasi ustidan tergov jarayonida prokuraturaning nazorati mavjud ekanini unutmazlik lozim. Volker Kreyning ushbu masala yuzasidan fikriga ko'ra, hozirgi kunda davlat prokurorining jinoyat ishlaridagi roli ikki xavfli rivojlanishdan tahdid ostida qolmoqda [19, 19-20-b.]:

birinchidan, politsiyaning davlat prokuraturasining nazoratiga qarshi chiqish tendensiyasi ortib bormoqda;

ikkinchidan, Germaniya federal hududlarining adliya vazirliklarida davlat prokuraturasiga o'zlarining bog'langan bo'limi sifatida qarash tendensiyasi kuchaymoqda. Ikkala tendensiya ham asosiy huquqiy tamoyil sifatida davlat prokuraturasining jinoyat ishlaridagi roliga putur yetkazishi mumkin. Fikrimizcha, Germaniyada davlat prokuraturasining jinoyat ishlarida huquqni muhofaza qiluvchi sifatidagi roli konstitutsiyaviy ahamiyatga ega, aniqrog'i, bu rol qonun ustuvorligi prinsipi asosida, yozilmagan kons-

titutsiyaviy prinsip sifatida mustahkamlanadi.

Tergov bosqichi dalillar to'plash, guvohlarni so'roq qilish va gumonlanuvchilarni kuzatishni o'z ichiga oladi. Federal Jinoiy Politsiya boshqarmasi vaziyatni hal qilish uchun turli resurslardan, jumladan, sud-tibbiyot ekspert guruhlari, kuzatuv va muzokaralar bo'yicha ekspertlardan foydalanadi. Shuningdek, Germaniyada tergov jarayonida texnologiya va ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanilishi jinoyatni ochishda beqiyos hissa qo'shadi.

Fransiya tajribasi

Fransiya Jinoyat kodeksida (*The French Penal Code*) shaxsni tutqunlikka olish bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan [20]. Garchi Fransiyadagi jinoyat-protsessual qonunchilik ayrim jihatlar bilan Germaniya qonunchiligiga o'xshasa ham, farqli jihatlarini ham e'tirof etmaslikning iloj yo'q. Masalan, Fransiyada shaxsni tutqunlikka olish bilan bog'liq jinoyat sodir etilsa, Fransiya huquq tizimida jinoiy tergovni respublika prokurori yoki tergov sudyasi (fransuzcha "*juge d'instruction*") deb nomlangan maxsus sudya rahbarligidagi sud politsiyasi amalga oshiradi [21].

Shaxsni tutqunlikka olish jinoyatlari bo'yicha politsiya tergov odatda guvohlarni so'roq qilish, jinoyat sahnalarini tahlil qilish va boshqa barcha mavjud dalillar, masalan, sud-tibbiy ekspertiza namunalari va shubhali so'roqlarni o'z ichiga oladi. Tergov yakunida prokuror aniqlangan gumonlanuvchilarga nisbatan yetarlicha dalillar bor-yo'qligini, agar mavjud bo'lsa, gumonlanuvchi jinoyat ishlari bo'yicha sud tomonidan hukm qilinishi kerakmi yoki yo'qligini hal qiladi. Murakkab tergovni talab qiladigan ko'p hollarda prokuror tergov sudyasidan tergov o'tkazishni so'rashi mumkin. Tergov sudyasi keng vakolatlarga ega bo'lgan jinoyat ishini tergov qilishga ixtisoslashgan mustaqil sudyadir.

Fransiya Jinoyat kodeksida eng og'ir jinoyatlar deb tasniflangan jinoyatlar (10 yildan

ortiq qamoq va umrbod qamoq bilan jazolanadi) tergovni faqat sud politsiyasi yordami bilan tergov sudyasi tomonidan amalga oshirishi mumkin. Tergov sudyasi ham o'z tergovining oxirida gumonlanuvchilarni sudga topshirish uchun yetarli dalillar mavjudligi yoki yo'qligini hal qilib, dalillarga baho beradi. Agar dalillar yetarli bo'lmasa, tergov sudyasi tergovni tugatadi. Agar keyinroq yangi dalillar topilsa, jinoyat uchun javobgarlik muddati o'tib ketmagan bo'lsa, tergov qayta ochilishi mumkin.

London Iqtisodiyot va siyosat fanlari maktabining professori Charlotte Harris o'zining 2013-yildagi maqolasida [22] Fransiyadagi "tergov sudyasi" instituti anglo-sakson huquq tizimi uchun begonaligini, bu yangi institut ekanini ta'kidlagan.

Shuningdek, Charlotte Harrisning fikricha, Fransiyada gumonlanuvchini so'roq qilishdan oldin tergovchilar nafaqat uning xarakterini, ayblanuvchini tergovchilar bilan gaplashishga undash uchun unga qanday munosabatda bo'lishni, balki bo'lajak to'qnashuvni "o'rtadagi murakkab qarama-qarshilik" deb tan olib, uni jamoadan biri bilan qay tarzda to'g'ri kelishishini ham muhokama qiladi. Buni o'z-o'zidan tergov taktikasi sifatida qabul qilish mumkin.

Ozarbayjon tajribasi

Ozarbayjonda shaxsni tutqunlikka olish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish jarayonidagi ayrim o'ziga xos jihatlar e'tiborimizni tortdi. Masalan, Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining [23] 123¹-moddasi "Odam savdosi jinoyatining jabrlanuvchisiga reabilitatsiya va mulohaza yuritish uchun muddat berish" deb nomlanadi. Unga ko'ra, tergov organining xodimi, tergovchi yoki dastlabki tergovga protsessual rahbarlikni amalga oshiruvchi prokuror jinoyat sodir etilgan yoki tayyorlanayotgani to'g'risidagi xabarlarini ko'rib chiqishda odam savdosi jinoyatining jabrlanuvchisiga uni reabilitatsiya qilish va holatini tiklash maqsadida 30 kunlik muhlat berish haqida qaror

qabul qiladi. Ushbu muddat uning ahvoli yaxshilanishi, jinoyatchilar ta'siridan xalos bo'lishi va tergov organlari bilan hamkorlik qilish to'g'risida asosli qaror qabul qilishi uchun beriladi.

Ozarbayjondan farqli o'laroq, milliy jinoyat-protsessual huquq tizimimizda shaxsni tutqunlikka olish bilan bog'liq jinoyatlardan jabr ko'rgan shaxslarni tergov va sud bosqichida davlat tomonidan reabilitatsiya qilish masalasi tartibga solinmagan. Shuningdek, so'nggi yillarda Ozarbayjonda jinoyat ishlari tergov qilishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish kengayib bormoqda. Xususan, Gavritskiy va boshqalarga [24] ko'ra, hozirgi bosqichda milliy qonunchilikni yaxshilash bo'yicha nazariy takliflarni amaliyotga joriy qilish muhimdir. Bu zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanishni o'z ichiga olgan jinoyat ishlari bo'yicha tergov shakllarini mustahkamlashga olib boradi, shu bilan birga, jinoyat ishi bo'yicha dalillarni olish va saqlashning protsessual jarayonlarini huquqiy jihatdan himoya qilishni ta'minlaydi. Olimlar tadqiqot natijalari asosida elektron texnologik jarayonlar orqali dalillarni olish va saqlash protsessual tartibini yaxshilash, shuningdek, jinoyat ishlarini tergov qilishda elektron shaklni joriy etish zarurligini ta'kidlaydilar.

Mamlakatimizda 2023-yil hamda 2024-yilning dastlabki to'qqiz oyi davomida odam o'g'irlash bo'yicha 19 ta, zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish bo'yicha 98 ta, qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki hibsga olish bo'yicha 3 ta, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish bo'yicha 6 ta ayblovluk hukmi chiqarilib, jinoyat sodir etgan shaxslar javobgarlikka tortilgan [25].

O'ylashimizcha, jinoyat ishlari tergov davomida axborot texnologiyalaridan keng foydalanish maxfiy axborotlarning o'tkazilishi xavfini baholash zaruratini ko'rsatadi. Shu sababli tergov jarayonida elektron saqlash qurilmalaridan keng foydalanishning ahamiya-

ti beqiyos bo'lib, bunday qurilmalar shaxsni tutqunlikka olish bilan bog'liq jinoyatlar so-dir etilganda tergov paytida tergovchi uchun gumon qilinuvchi, ayblanuvchi hamda jabrlanuvchilarning shaxsga doir ma'lumotlarini xavfsiz va ishonchli saqlashga ko'maklashadi. Elektron shaklga o'tish tergov harakatlari-ni amalga oshirishni sezilarli darajada ye-ngillashtiradi, shu bilan birga, dalillarning to'liqligini va ishonchliligini ta'minlaydi, da-lilni soxtalashtirishning ehtimoliy xavfini ka-maytiradi.

Xulosalar

Shaxsni tutqunlikka olish bilan bog'liq ji-noyatlarni tergov qilish bo'yicha ba'zi xorij davlatlarining tajribasini o'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, ushbu jinoyatlarni tergov qi-lishda mamlakatimiz va boshqa davlatlar ter-gov amaliyotida katta farq kuzatilmaydi. Bi-roq AQSh, Buyuk Britaniya, GFR, Ozarbayjon kabi davlatlar sud-tergov amaliyotida bunday turdagi jinoyatlarni tergov qilishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ushbu jihatlarning milliy qonunchiligimizga huquqiy, ijtimoiy, milliy va siyosiy xususiyatlarni inobatga ol-

gan holda implementatsiya qilinishi bu tur-dagi jinoyatlarni tergov qilishda, shuningdek, tergov jarayonida shaxslarning huquq va er-kinliklarini ta'minlashda ahamiyat kasb etadi. Xususan, AQSh va GFRda shaxsni garov sifati-da tutqunlikka olish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda davlat organlari hamda xalqa-ro tashkilotlarning o'zaro hamkorligini milliy tergov amaliyotimizga joriy etish jinoiy odil sudlovga erishishda samarali mexanizmlar-dan biri bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, AQShda va boshqa dav-latlarda tergovchilarning malaka darajalarini ko'rsatadigan sertifikatlashtirish tartibi il-miy-nazariy jihatdan o'rganilib, milliy qonun-chilikka tatbiq etilishi jinoyat ishlarini tergov qilish samaradorligini oshirishga xizmat qila-di. AQSh, Germaniya va Ozarbayjon kabi dav-latlardagi shaxsni tutqunlikka olish bilan bi-lan bog'liq jinoyatlardan jabrlangan shaxslar reabilitatsiya qilinishi ham alohida diqqatga sazovor jihatdir. Milliy qonunchiligimizda bu-ning huquqiy asoslarini yaratish jinoyat prot-sessida shaxslarning buzilgan huquqlarini tiklash sari qo'yilgan yana bir qadam bo'ladi.

REFERENCES

1. Ibrokhimov Zh. Kriminologicheskaya kharakteristika prestupleniy, svyazannykh s terroriz-mom, i ikh prichiny [Criminological characteristics of crimes related to terrorism and their causes]. *Review of Law Sciences*, 2020, vol. 3. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/kriminologicheskaya-harakteristika-prestupleniy-svyazannyh-s-terrorizmom-i-ih-prichiny>
2. Kurbonov D. Otvetstvennost' za prestupleniya protiv lichnoy svobody po ugolovnomu zakonodatel'stvu nekotorykh zarubezhnykh stran [Responsibility for crimes against personal freedom under the criminal legislation of some foreign countries]. *Review of Legislation of Uzbekistan*, 2015, vol. 1, pp. 74–77. Available at: https://inlibrary.uz/index.php/uzbek_law_review/article/view/13636
3. Andrushko A.V. Prestupleniya protiv svobody, chesti i dostoinstva lichnosti (ugolovno-pravovoye i kriminologicheskoye issledovaniye) [Crimes against freedom, honor and dignity of the individual (criminal law and criminological research)]. 2021.
4. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi [The Universal Declaration of Human Rights]. Available at: <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
5. O'zbek tilining izohli lug'ati [Explanatory dictionary of the Uzbek language]. Available at: <https://izoh.uz/>
6. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 3. Maxsus qism. Shaxsga qarshi jinoyatlar. Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar [Criminal Law Course of the Republic of

Uzbekistan. Volume 3. Special Part. Crimes against the Person. Crimes against Peace and Security]. Tashkent, Military-Technical Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan Publ., 2018, p. 259.

7. BMTning Narkotik moddalar va jinoyatchilik masalalari bo'yicha idorasining 2023-yilgi hisoboti [UNODC Annual Report 2023]. Available at: <https://www.unodc.org/unodc/en/about-unodc/annual-report.html>

8. Hostage taking and kidnappings. Available at: <https://fam.state.gov/fam/07fam/07fam1820.html?form=MG0AV3>

9. Special investigation division kidnapping guidelines. Available at: <https://www.ojp.gov/ncjrs/virtual-library/abstracts/special-investigation-division-kidnapping-guidelines>

10. Standard for Scene Investigation and Reconstruction Foundational Principles. Available at: <https://www.aafs.org/asb-standard/standard-scene-investigation-and-reconstruction-foundational-principles>

11. Bales K., Lize S. Trafficking in persons in the United States. Croft Institute for International Studies, University of Mississippi, 2005.

12. Number of police recorded kidnapping offences in England and Wales from 2002/03 to 2023/24. Available at: <https://www.statista.com/statistics/303548/kidnapping-in-england-and-wales-uk/>

13. Taking of Hostages Act 1982. Available at: <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1982/28/enacted>

14. Criminal Procedure and Investigations Act 1996 Code of Practice. Available at: https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/447967/code-of-practice-approved.pdf

15. Alexander D.A., Klein S. Hostage-taking: motives, resolution, coping and effects. *Advances in Psychiatric Treatment*, 2010, vol. 16 (3), pp. 176–183. DOI: 10.1192/apt.bp.108.005991

16. Investigation process. Available at: <https://www.college.police.uk/app/investigation/investigation-process>

17. German Criminal Code. Available at: <https://www.lewik.org/term/15742/chapter-eighteen-offences-against-personal-freedom-german-criminal-code/>

18. German Code of Criminal Procedure. Available at: https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stpo/englisch_stpo.html#p0535

19. Krey V. The public prosecution-role in criminal proceedings under the rule of law. Legal situation in Germany with comparative law remarks on UK and USA. 2019.

20. Code of Criminal Procedure. Available at: https://legislationline.org/sites/default/files/202310/France_Code_of_criminal_procedure_EN.pdf

21. Criminal Investigation in France. Available at: <https://www.sba-avocats.com/Criminal-defense-attorney-paris-criminal-investigation-in-france.html>

22. Charlotte H. Investigating homicide investigation in France. *Policing and Society*, 2013, vol. 23:3, pp. 328–345. DOI:10.1080/10439463.2013.784294

23. Azərbaycan Respublikasının Cinayət-Prosessual Məcəlləsi [Criminal Procedure Code of the Republic of Azerbaijan]. Available at: <https://continent-online.com/>

24. Gavritsky A.V., Demidchenko Yu.V., Palieva O.N., Paliev V.B., Poltavtseva L.I., Tsoi B.A. Information technologies in criminal proceedings of Russia: Controversial issues of proof. *International Journal of Economics and Business Administration*, 2020, vol. 8 (4), pp. 598–612. DOI: 10.35808/ijeba/611

25. Jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan internet tarmog'ida e'lon qilingan sud qarorlari [Court decisions published on the Internet by criminal courts]. Available at: <https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>

Kelib tushgan / Получено / Received: 10.12.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 28.01.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 17.02.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.1./BVYM3919

UDC: 343.148:33(045)(575.1)

IQTISODIY EKSPERTIZALARNI TAYINLASH VA O'TKAZISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR TAHLILI

Barakayev Lazizjon Otaqulovich,

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0000-0001-9556-4930

e-mail: proacademyresearch@yahoo.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada jinoyat sud ishlarini yuritishda iqtisodiy ekspertizalarni tayinlash va o'tkazish bilan bog'liq dolzarb muammolar va ularning yechimlari tahlil qilingan. Tadqiqotda iqtisodiy ekspertizalarning yagona tasnifi mavjud emasligi, ekspertiza tayinlashda subyektivizm muammosi, ekspertlarning yetarli tajriba va ko'nikmalarga hamda ekspertiza o'tkazish uchun zarur hujjatlarga ega emasligi, metodikalar mukammal ishlab chiqilmaganligi, ekspertlarning mustaqilligi masalasi, ekspertiza muddatlari va xulosalarning sifati kabi muhim masalalar ko'rib chiqilgan. Maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish uchun qonunchilikni takomillashtirish, ekspertlarning malakasini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xalqaro tajribani o'rganish va qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan. Shuningdek, ekspertiza xulosalarini baholash, raqamli dalillarni tekshirish, ekspertiza obyektlarini saqlash va ularning butligini ta'minlash masalalari ham tadqiq etilgan. Tadqiqot natijasida iqtisodiy ekspertizalarning barcha turlarini qamrab oluvchi yagona tasnifni ishlab chiqish va uni qonunchilikda mustahkamlash, ekspertiza tayinlashda mutaxassislar maslahatidan foydalanish, yosh mutaxassislar uchun majburiy vebinarlar va kurslar tashkil etish, tergovchi hamda surishtiruvchilarning iqtisodiy bilimlarini oshirish bo'yicha maxsus o'quv kurslarini tashkil etish, iqtisodiy ekspertizalarning barcha turlari bo'yicha batafsil uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish kabi amaliy tavsiyalar berilgan. Maqolada keltirilgan taklif va tavsiyalar iqtisodiy ekspertizalarning sifati va samaradorligini oshirishga, pirovardida esa iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sud-iqtisodiy ekspertiza, ekspert xulosasi, jinoyat protsessi, iqtisodiy jinoyatlar, ekspertiza metodikasi, ekspertlar malakasi, maxsus bilimlar, mutaxassis xulosasi, sud ekspertizasi muassasalari, raqamli dalillar

АНАЛИЗ ПРОБЛЕМ НАЗНАЧЕНИЯ И ПРОВЕДЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЭКСПЕРТИЗ

Баракаев Лазизжон Отакулович,

самостоятельный соискатель

Правоохранительной академии

Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье проанализированы актуальные проблемы, связанные с назначением и проведением экономических экспертиз в уголовном судопроизводстве, а также рассмотрены пути их решения. В исследовании изучены такие вопросы, как отсутствие

единой классификации экономических экспертиз, проблема субъективизма при их назначении, недостаточный опыт и навыки экспертов, нехватка необходимых документов для проведения экспертизы, несовершенство методик, проблема независимости экспертов, сроки проведения экспертизы и качество заключений. В статье даны рекомендации по устранению этих проблем, включая совершенствование законодательства, повышение квалификации экспертов, внедрение современных технологий, изучение и применение международного опыта. Также рассмотрены вопросы оценки экспертных заключений, проверки цифровых доказательств, сохранения объектов экспертизы и обеспечения их целостности. В результате исследования предложены практические рекомендации, такие как разработка единой классификации экономических экспертиз и её законодательное закрепление, использование консультаций специалистов при назначении экспертизы, организация обязательных вебинаров и курсов для молодых специалистов, проведение специальных учебных курсов для следователей и дознавателей по повышению их экономических знаний, а также разработка детальных методических руководств по всем видам экономических экспертиз. Предложенные в статье рекомендации направлены на повышение качества и эффективности экономических экспертиз, что в конечном итоге будет способствовать повышению эффективности борьбы с экономическими преступлениями.

Ключевые слова: судебно-экономическая экспертиза, экспертное заключение, уголовный процесс, экономические преступления, методика экспертизы, квалификация экспертов, специальные знания, заключение специалиста, учреждения судебной экспертизы, цифровые доказательства

ANALYSIS OF PROBLEMS RELATED TO APPOINTMENT AND CONDUCT OF ECONOMIC EXPERTISE

Barakaev Lazizjon Otakulovich,

Independent researcher at the Law Enforcement
Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article analyzes the current problems of appointing and conducting economic examinations in criminal proceedings and their solutions. The study examines important issues such as the lack of a unified classification of economic examinations, the problem of subjectivity in appointing examinations, insufficient experience and skills of experts, insufficient necessary documents for conducting examinations, imperfect methodologies, the issue of expert independence, examination timeframes, and the quality of conclusions. The article provides recommendations for improving legislation, enhancing expert qualifications, implementing modern technologies, studying, and applying international experience to address these problems. Issues of evaluating expert conclusions, verifying digital evidence, storing, and ensuring the safety of examination objects are also studied. Based on the research results, practical recommendations are given for developing and legislatively establishing a unified classification of all types of economic examinations, using specialist consultations when appointing examinations, organizing mandatory webinars and courses for young specialists, organizing special training courses to improve the economic knowledge of investigators and inquirers, and developing detailed methodological manuals for all types of economic examinations. The proposals and recommendations presented in the article serve to improve the quality and efficiency of economic examinations and, ultimately, to increase the effectiveness of combating economic crimes.

Keywords: forensic economic examination, expert conclusion, criminal procedure, economic crimes, examination methodology, expert qualification, special knowledge, expert opinion, forensic institutions, digital evidence

Kirish

Bizga ma'lumki, jinoyat sud ishlarini yuritishda iqtisodiy masalalardagi ishlar uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarini aniqlash zaruriyati yuzaga kelganda va buni iqtisodiyot sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o'tkazish va xulosa olish orqali amalga oshirish mumkin bo'lganda sud-iqtisodiy ekspertiza tayinlanadi. Iqtisodiy ekspertizalarni tayinlash va o'tkazish jinoyat protsessida muhim o'rin egallaydi. Biroq amaliyotda mazkur sohaga oid bir qator muammolar yuzaga keladi. Quyida iqtisodiy ekspertizalarni tayinlash va o'tkazish bilan bog'liq asosiy muammolarni tahlil qilib chiqamiz.

Material va metodlar

Tadqiqot ishida qiyosiy-huquqiy va statistik tahlil, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

Birinchi navbatda, iqtisodiy ekspertizalarning yagona tasnifi mavjud emasligi muammosi e'tiborni tortadi. Z.I. Sagitdinovanning fikricha, hozirgi kunda iqtisodiy ekspertizalarning umume'tirof etilgan yagona tasnifi mavjud emas, bu esa ekspertiza tayinlashda tipik xatolarga olib kelmoqda [1, 133–137-b.]. Bizningcha, mazkur holat huquqni qo'llash amaliyotida jiddiy qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Sababi surishtiruv va dastlabki tergov organlari hamda sudlar tomonidan jinoyat ishlari bo'yicha iqtisodiy ekspertizaning qaysi turini tayinlash borasida tushunmovchiliklar yuzaga kelmoqda. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PQ-4125-son qarori bilan Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan o'tkazilishiga ruxsat berilgan sud ekspertizalari turlarining ro'yxati tasdiqlangan bo'lib, unga ko'ra iqtisodiy ekspertiza guruhiga kiruvchi sud-soliq ekspertizasi, sud-buxgalteriya ekspertizasi, sud-moliya-kredit ekspertizasi, mehnat iqtisodiyoti sud ekspertizasi, sud-rejali-iqtisodiyot ekspertizasi, sud-iqtisodiy-statistik ekspertizasi, tashqi savdo faoliyatining sud-

iqtisodiy ekspertizasi kabi ekspertiza turlari belgilangan.

Biroq iqtisodiy ekspertizalarning barcha turlari va shakllarini qamrab olgan iqtisodiy ekspertizalarning tasnifi mavjud emas. Shu bois iqtisodiy ekspertizalarning barcha turlarini qamrab oluvchi yagona tasnifni ishlab chiqish va uni qonunchilikda mustahkamlab qo'yish maqsadga muvofiq.

R. Turimbetov, M. Kalandarova va N. Qurbonov kabi mualliflar ham mazkur fikrlarni qo'llab-quvvatlab, sud-iqtisodiy ekspertizaning turlarga bo'linishi iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashishda iqtisodiy bilimlardan o'z o'rnida samarali foydalanish, tergov hamda sud organlari xodimlarining iqtisodiy jinoyatlarni ochishga xizmat qilishini qayd etishgan [2, 103-b.]. Mazkur fikrlar ham ilgari surilgan g'oyalarni tasdiqlay oladi.

Ikkinchi muhim muammo sifatida ekspertiza tayinlashda mansabdor shaxslarning ekspertiza oldiga qo'yiladigan savollarni shakllantirishda subyektiv munosabatda bo'lishi va o'ziga foydali bo'lgan savollarni qo'yishga intilishini ko'rsatish mumkin. V.M. Abrosimova va boshqa bir guruh olimlarning qayd etishicha, bu omil ko'pincha taraflardan birining "zaif" pozitsiyada qolishiga olib keladi [3, 158-b.].

Fikrimizcha, mazkur masala haqiqatdan ham dolzarb hisoblanadi. Zero, ekspertiza tayinlashda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror hamda sud ekspert oldiga faqatgina bir taraf – ayblov yoki himoya tarafining manfaatlarini ifoda etuvchi savollarni qo'yishi jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari kafolati bo'lgan tortishuvchanlik prinsipiga, xususan, ishlar bo'yicha dalillarning har tomonlama, to'la va xolisona tekshirib chiqilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bizningcha, ushbu muammoni hal qilish uchun ekspertiza tayinlashda mutaxassislarni jalb etish va ularning maslahatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Mutaxassislar vakolatli mansabdor shaxslarga savollar ro'yxatini to'g'ri shakllantirishga yordam berib, barcha taraflar teng sharoitda bo'lishini ta'minlashda ko'maklashishlari mumkin. Bu esa, o'z navbatida, sudyaga jinoyat ishi bo'yicha qonuniy, asosli va adolatli qaror qabul qilishga ko'maklashadi. Ayrim mualliflar ham sud-iqtisodiy ekspertizalari ni iqtisodiyot sohasi bo'yicha maxsus bilimga ega bo'lgan, sud-iqtisodiy eksperti mutaxassisligi bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shaxslar hamda iqtisodchi mutaxassisligi malakasiga ega bo'lgan shaxslarni ishga jalb etish lozimligini qayd etishgan [4, 123-b.].

Iqtisodiy ekspertizalarni tayinlash va o'tkazishdagi yana bir muammo ekspertlarning yetarli tajriba va ko'nikmalarga ega emasligida namoyon bo'ladi. E.F. Bikovanning ta'kidlashicha, ekspertlarning maxsus bilimlari va tajribasi yetarli bo'lmasligi ekspertiza tadqiqotlari jarayonida xatolarga yo'l qo'yilishiga olib keladi [5, 132–137-b.]. Ekspertlarning ushbu yo'nalishda yetarli tajriba va ko'nikmalarga ega emasligi, bir tomondan, sohaning nihoyatda keng bo'lishi bilan, boshqa tomondan esa iqtisodiy sohani tartibga soluvchi qonunchilik normalarini yaxshi bilmasliklaridan va amalga oshirilayotgan moliyaviy operatsiyalar hamda ularning oqibatlarini to'g'risida to'liq ma'lumotga ega emasliklaridan kelib chiqmoqda.

Fikrimizcha, ushbu muammoni hal qilish maqsadida yosh mutaxassislar uchun majburiy vebinarlar va kurslar tashkil etish zarur. Shu bilan birga, yosh mutaxassislarni ustozshogird an'anasi orqali mentorlarga birlashtirish amaliyotini yo'lga qo'yish lozim. Bu ularga ko'p yillik stajga ega ekspertlarning amaliyotidan kelib chiqib, o'z bilimlari bazasini kengaytirish imkonini beradi.

Shuningdek, ekspertlar muassasasi ichida yaxshi ko'rsatkichlarga ega bo'lgan ekspertlarni rag'batlantirish tizimini joriy etish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Iqtisodiy ekspertizalarni tayinlash va o'tkazish bilan bog'liq yana bir muhim mu-

ammo ekspertiza o'tkazish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, hujjatlar va materiallarning yetarli darajada taqdim etilmasligi yoki yaroqsiz holda taqdim etilishidir. D.S. Golsev va D.A. Pimenovanning ta'kidlashicha, tergov amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda ekspertiza uchun yuborilgan materiallar ularga qo'yiladigan talablarga javob bermaydi [6, 144–147-b.].

Bizningcha, bu muammoning asosiy sabablaridan biri tergovga qadar tekshiruvchini amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudyaning iqtisodiyot sohasida yetarli bilimga ega emasligidir. Iqtisodiy bilimlarga ega bo'lmagan huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi uchun buxgalteriya hujjatlarini tahlil qilish va ulardan jinoyat alomatlarini aniqlash ancha murakkab vazifadir.

Xususan, S.K. Xalmuxamedova qayd etganidek, iqtisodiy ekspertiza keng qamrovli va to'liq o'tkazilishi uchun ekspert iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'zida aks ettiruvchi tadqiqot obyektlari – manbalar bilan yetarli darajada ta'minlanishi muhim ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizcha ham, iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi shaxslar sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarni belgilangan tartibda hujjatlashtirishni amalga oshirmaydilar. Qo'pol qilib aytganda, ushbu soha vakillari o'zlari bilgan va muhim sanamagan holatlar bo'yicha hujjatlar rasmiylashtirishni lozim topmaydilar yoki "bo'laveradi" qabilida ishni bitiradilar. Biroq ish holatlarini aks ettiruvchi yoki tomonlar pozitsiyasini tasdiqlovchi manbalar mavjud emasligi ekspertning tadqiqoti doirasida tadqiqot predmetini aniqlashga qaratilgan ishlarni o'tkazish imkoniyatlarini cheklaydi.

Shuningdek, sud-tergov amaliyotida iqtisodiy ekspertiza tayinlashda tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar tomonidan tadbirdorlik subyektlarining faoliyati yuzasidan o'tkazilgan tekshiruvlar natijasida iqtisodiy kamchiliklar aniqlanishi, ularga nisbatan

qo'shimcha soliqlar, moliyaviy jarimalar va sanksiyalar, yetkazilgan zararlar summasining hisoblanish tartibi, aniqlangan kamchiliklarning batafsil bayoni keltirilmasligi va o'tkazilgan tekshiruv davomida aniqlangan qonun buzilish holatlarini tasdiqlovchi hujjatlarning ekspertiza tadqiqoti uchun taqdim etilmaslik holatlari ham mavjud. Ish uchun ahamiyatli bo'lgan ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan axborotlarning ekspert iltimosnomasiga asosan ekspertiza tayinlagan organ (shaxs) tomonidan taqdim etilmasligi yoki yetarli darajada taqdim etilmasligi, ekspert oldiga qo'yilgan masalalar yuzasidan qat'iy xulosa berish darajasini kamaytirishi yoki umuman tadqiqot o'tkazish imkonini bermasligi mumkin.

Jinoyat-protsessual kodeksining 175-, 182-moddalariga muvofiq, ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qarorda tekshirish obyektlari, jumladan, ekspertizaga yuborilayotgan ashyoviy dalillar va boshqa obyektlar, ularning qachon, qayerda va qaysi holatda topilganligi va olinganligi, ekspert xulosasi aslanishi lozim bo'lgan ma'lumotlar, ekspert oldiga qo'yilgan savollar va boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi hamda qaror (ajrim) bilan birga tekshirish obyektlarini, zarur hollarda esa jinoyat ishini ham sud-ekspertiza muassasasiga yuboradi.

Shu sababli ham, jinoyat ishi doirasida iqtisodiy ekspertiza imkoniyatlaridan unumli foydalanish uchun sud-iqtisodiy ekspertiza tayinlagan organ (shaxs) tomonidan ekspertiza o'tkazish uchun ahamiyatga ega bo'lgan materiallar mas'uliyat bilan puxta va to'laqonli tayyorlanishi lozim.

Mazkur muammoni hal qilish uchun tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organing mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudyaning iqtisodiy bilimlarini oshirish bo'yicha maxsus o'quv kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Shuningdek, iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha ekspertiza tayinlashdan oldin mutaxassis ish-

tirokida hujjatlarni dastlabki tekshiruvdan o'tkazish amaliyotini joriy etish ham mazkur muammoning oldini olishga xizmat qilishi mumkin.

Sohaga oid yana bir muhim muammo iqtisodiy ekspertizalarni o'tkazish metodikalarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi bilan bog'liqdir. L.P. Klimovichning fikricha, sud-ekspertiza muassasalarida namunaviy va yagona standartlashtirilgan metodikalarning, yagona normativ-huquqiy bazaning mavjud emasligi iqtisodiy ekspertizalar o'tkazishning amaldagi normativ asoslarining mukammal emasligidan dalolat beradi [7, 120-b.].

Bu muammo iqtisodiyot sohasidagi bilimlarning juda keng qamrovli ekanligi, ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarining nihoyatda ko'p ekanligi bilan izohlanadi. Chunki iqtisodiy sohadagi jinoyatlarning sodir etilishida tobora yangi mexanizmlarning qo'llanishi barcha masalalarni hal etish tartibini belgilovchi yagona uslubiyot yaratish imkoniyatini cheklab qo'ymoqda. Bu esa yangi vujudga kelgan iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha zarur bilim va tajribalarni to'plashga ham, yagona uslubiyot ishlab chiqishga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, ekspertiza oldiga qo'yilgan masalalar yuzasidan o'tkazilayotgan tadqiqot jarayonida masalaning yechimi iqtisodiy bilimlar bilan bir qatorda, huquqiy masalalarning hal etilishi yoki iqtisodiy sohadan tashqari mutaxassislarning maxsus bilimlari qo'llanishini taqozo etuvchi savollarning hal etilishiga bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday holatlar esa kompleks tadqiqotlarni o'tkazishni talab qiladi.

Bundan tashqari, iqtisodiy ekspertizalarni avtomatlashtirilgan tarzda o'tkazishni yo'lga qo'yish imkoni yo'q. Aniqroq aytganda, mazkur tadqiqot turini o'tkazishda ekspert oldiga qo'yilgan masalalar laboratoriyada maxsus uskunalari yoki ishlab chiqilgan dasturlar yordamida aniqlanadigan ko'rsatkichlar bilan hal etilmaydi. Balki ekspert ish holatlari, tadqiqot obyektlari va ekspert oldiga qo'yilgan

masalani tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar talablarini o'rgangan holda, ishning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib tadqiqot o'tkazadi. So'ngra ekspert o'zining ichki ishonchi va ekspertlik faoliyatining asosiy prinsiplariga tayangan holda iqtisodiy baho natijasini shakllantiradi. Bu esa, o'z navbatida, ekspert tomonidan o'tkaziladigan har bir iqtisodiy ekspertizaning ilmiy va uslubiy jihatdan alohida tadqiqot sifatida o'rganishni talab qiladi.

Bizningcha, bu muammoni hal qilish uchun iqtisodiy ekspertizalarning barcha turlari bo'yicha batafsil uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish zarur. Bu qo'llanmalarda ekspertiza obyektlari, ularni tekshirish usullari, xulosa tuzish tartibi kabi masalalar batafsil yoritilishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, iqtisodiy ekspertizalarni tayinlash va o'tkazishda ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish, tadqiqotlar o'tkazishda yangi innovatsion usullarni ishlab chiqish va joriy etish ham muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy ekspertizalarni tayinlash va o'tkazish bilan bog'liq yana bir muammo – ekspertlarning mustaqilligi masalasi. A.A. Savitskiyning qayd etishicha, ayrim hollarda ekspertlar tergov organlari yoki sudlarning ta'siriga tushib qolmoqda, bu esa ularning xolisligiga putur yetkazmoqda [8, 493-b.].

Bizningcha, bu muammoni hal qilish uchun ekspertlarning mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik normalarini yanada takomillashtirish, xususan, ekspertning huquq va majburiyatlarini, uning faoliyatiga aralashganlik uchun javobgarlikni aniq belgilab qo'yish kerak.

Iqtisodiy ekspertizalarni tayinlash va o'tkazish jarayonida yuzaga keladigan yana bir muhim muammo ekspertiza o'tkazish muddatlari bilan bog'liqdir. E.V. Pecheritsa va M.A. Grigorenkoning ta'kidlashicha, ekspertiza o'tkazish muddatlari ko'pincha asossiz ravishda cho'zilib ketadi, bu esa jinoyat ishlarini tergov qilish va sudga ko'rib chiqish muddatlarining buzilishiga olib keladi

[9, 87-b.]. Haqiqatdan ham, bu muammoning asosiy sabablaridan biri davlat sud-ekspert muassasalarining ish yuklamasi yuqoriligidir. Ayniqsa, murakkab iqtisodiy ekspertizalarni o'tkazish uchun ko'p vaqt talab etiladi. Bundan tashqari, ekspertiza uchun zarur hujjatlar va materiallarning o'z vaqtida taqdim etilmasligi ham muddatlarning cho'zilishiga sabab bo'lmoqda.

Ushbu muammoni hal qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- davlat sud-ekspertiza muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash;

- malakali ekspertlar sonini ko'paytirish, ularning malakasini muntazam oshirib borish;

- ekspertiza tayinlash tartibini takomillashtirish, zarur hujjatlar va materiallarni o'z vaqtida taqdim etish bo'yicha tergovchi va surishtiruvchilarning mas'uliyatini oshirish;

- iqtisodiy ekspertizalarning ayrim turlarini o'tkazish uchun xususiy ekspert tashkilotlarini jalb etish amaliyotini kengaytirish.

Jinoyat-protsessual kodeksi 329-moddasining ikkinchi qismiga asosan, tergovga qadar tekshiruv bosqichida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan tergov va protsessual harakatlar belgilangan bo'lib, mazkur bosqichda ekspertiza tayinlash va o'tkazish ham mumkin.

Shuni ham qayd etish kerakki, jinoyat-protsessual qonunchilikda tergovga qadar tekshiruv muddatlarining qisqa ekanligi ushbu bosqichda ekspertiza imkoniyatlaridan foydalanishni cheklab qo'ymoqda.

Tadqiqotchi B. Mo'minov ham jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida iqtisodiy ekspertizalar tayinlanishi mumkin ekanligini, biroq iqtisodiy ekspertizalar o'tkazish uchun katta hajmdagi materiallar va uzoq muddat talab qilinishi sababli amaliyotda tergovga qadar tekshiruv bosqichida ular kamdan kam hollarda tayinlanishini qayd etgan [10, 14-b.].

Shunga ko'ra, tergovga qadar tekshiruv bosqichida maxsus iqtisodiy bilimlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ushbu bosqichda ham mutaxassisning fikrini olish tartibini belgilab qo'yish maqsadga muvofiqdir. B. Mo'minov ham mazkur takliflarni qo'llab-quvvatlab, tergovga qadar tekshiruv o'tkazish jarayonida mutaxassis xulosasini olishni belgilash, iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha xabarlarini to'liq va xolisona ko'rib chiqish hamda ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirish imkonini yaratishini ta'kidlaydi. Ayblanuvchi va himoyachiga ham mutaxassis xulosasini tergov hamda sudga taqdim qilish huquqi berilishi keyinchalik tergov va sud jarayonida xulosa bergan mutaxassisni so'roq qilish orqali tekshirish, ya'ni JPK 25-moddasida belgilangan sudda ishlarni yuritishda tortishuv prinsipini ta'minlash imkonini beradi [11, 81–83-b.].

Tadqiqot natijalari tahlili

Mutaxassis fikrini olish tergovga qadar tekshiruv va tergovning ilk bosqichlarida jinoyat haqida ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqish muddatining qat'iy chegaralanganligi qisqa muddatlarda qaror qabul qilish imkonini beradi.

Yana bir dolzarb muammo iqtisodiy ekspertiza xulosalarining sifati masalasidir. V.N. Chayka va T.K. Antonovanning fikricha, ayrim hollarda ekspert xulosalari yetarlicha asoslanmagan, to'liq va obyektiv bo'lmaydi [12, 65–69-b.].

Bizningcha, bu muammoning asosiy sabablari quyidagilarda aks etadi:

- ekspertlarning ayrim hollarda yetarli malakaga ega emasligi;
- ekspertiza o'tkazish metodikalarining takomillashmaganligi;
- ekspert oldiga qo'yilgan savollarning noaniq va noto'g'ri shakllantirilganligi;
- ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallarning to'liq emasligi.

Fikrimizcha, ushbu muammoni hal qilish uchun quyidagi choralarni ko'rish maqsadga muvofiq:

– ekspertlarning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, ularni muntazam ravishda attestatsiyadan o'tkazib turish;

– iqtisodiy ekspertizalar o'tkazish metodikalarini takomillashtirish, yangi innovatsion usullarni joriy etish;

– ekspertiza tayinlashda mutaxassislarining maslahatlaridan foydalanish, savollarni to'g'ri shakllantirishga e'tibor qaratish;

– ekspertiza uchun zarur materiallarni to'liq to'plash va taqdim etish bo'yicha tergovchi va surishtiruvchilarning mas'uliyatini oshirish.

Yuqorida keltirilgan muammolar va ularni hal qilish yo'llari iqtisodiy ekspertizalarni tayinlash va o'tkazish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq bu sohadagi islohotlar kompleks ravishda, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim.

Iqtisodiy ekspertizalarni tayinlash va o'tkazish bilan bog'liq yana bir dolzarb masala ekspertiza xulosalarini baholash muammosidir. Xususan, A.A. Savitskiyning fikricha, ko'pincha tergovchi va sudyalalar ekspert xulosasini to'g'ridan to'g'ri isbot qilingan dalil sifatida qabul qiladilar hamda uni tanqidiy baholamaydilar [13, 495-b.].

Bizningcha, mazkur fikrga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Chunki amaliyotda tergovchi va sudyalalar tomonidan ekspert xulosalarini sinchkovlik bilan o'rganish hollari ham uchraydi. Biroq shuni tan olish kerakki, iqtisodiy ekspertiza xulosalarini baholashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari va sudyalalar ba'zan qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Buning asosiy sababi ularning ko'pchiligi iqtisodiyot sohasida chuqur bilimga ega emasligidir.

Bu holat jinoyat protsessiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, ayrim hollarda asossiz yoki noto'g'ri ekspert xulosalari asosida ayblov xulosalari tuziladi yoki hukmlar chiqariladi, ekspert xulosasidagi kamchiliklar o'z vaqtida aniqlanmasligi takroriy yoki qo'shimcha ekspertizalar tayinlanishiga olib keladi.

Shuningdek, ekspert xulosasini to'g'ri talqin qila olmaslik oqibatida aybsiz shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish holatlari ham uchrab turadi. Bu muammoni hal qilish uchun quyidagi choralarni ko'rish lozim:

- tergovchi, surishtiruvchi va sudyalarning iqtisodiy bilimlarini oshirish bo'yicha maxsus o'quv kurslarini tashkil etish;
- ekspert xulosalarini baholash bo'yicha batafsil uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish;
- murakkab iqtisodiy ekspertiza xulosalarini baholashda mutaxassislarning yordamidan foydalanish amaliyotini keng joriy etish;
- ekspert xulosalarini baholash natijalari bo'yicha tergovchi va sudyalarning asoslantirilgan qarorlar qabul qilishlarini ta'minlash.

Shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksi 187-moddasining ikkinchi qismida ekspert xulosasining vakolatli mansabdor shaxslar (surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud) uchun muqarrar daliliy kuchga ega emasligi hamda ularning xulosaga qo'shilish yoki qo'shilmaslik masalasini hal qilishlari belgilab qo'yilgan. Ya'ni ekspertning xulosasi dalil manbasi bo'lsa-da, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud uchun majburiy hisobga olinadigan dalil hisoblanmaydi. Shu bilan birga, ekspert xulosasini baholashda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organing mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud ishdagi to'plangan dalillar bilan birga, uning ilmiy asoslanganligi va ekspertiza o'tkazish uchun belgilangan barcha protsessual qoidalarga rioya etilganligi nuqtayi nazaridan kelib chiqib baho beradilar. Bunda ekspert xulosasi ilmiy asoslanganlik va ekspertiza o'tkazish uchun belgilangan barcha protsessual qoidalarga rioya etilganlik bo'yicha baholanadi.

A.A. Zulfuqorov ham ekspert xulosasi ish bo'yicha eng muhim dalillardan biri hisoblanishini hamda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudya tomonidan hamma dalillar kabi baholanishini ta'kidlab o'tgan [14, 115-122-b.]. G. Nabiyev ekspert xulosasini baholashda Jinoyat-protsessual kodeksi-

ning 187-moddasida ko'rsatilgan rasmiy qoidalarini hisobga olish lozimligini ta'kidlaydi [15, 190-b.]. Mazkur muallifning fikrlari bilan kelishgan holda aytish mumkinki, ushbu normada ekspert xulosasini baholash subyektlari hamda ularni baholashda hisobga olinadigan holatlar belgilangan. Ushbu baholash mezonlari ekspert xulosasining maqbulligini aniqlashda hamda ish bo'yicha protsessual qaror qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Sohaga oid yana bir muhim masala iqtisodiy ekspertizalar o'tkazishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish muammosidir. Y.R. Rossinskaya va Y.I. Galyashina ta'kidlaganidek, hozirgi kunda ko'pgina iqtisodiy jinoyatlar kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilmoqda, bu esa ekspertlardan yangi bilim va ko'nikmalarni talab qilmoqda [16, 134-b.]. Mazkur fikrlar bilan to'liq kelishish mumkin. Haqiqatan ham, raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan iqtisodiy jinoyatlarning yangi turlari paydo bo'lmoqda. Masalan, kriptovalyutalar bilan bog'liq firibgarliklar, kiber hujumlar orqali bank hisobraqamlaridan pul o'g'irlash kabi jinoyatlar. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy ekspertizalarni o'tkazishda yangi yondashuvlarni talab qilmoqda.

Biroq amaliyotda ko'pgina ekspertlar zamonaviy texnologiyalar bilan bog'liq iqtisodiy jinoyatlarni tekshirishga tayyor emaslar. Bu holat ayrim murakkab iqtisodiy jinoyatlar to'liq fosh etilmay qolishiga, ekspertiza mudatlari asossiz ravishda cho'zilib ketishiga, noto'g'ri yoki asossiz ekspert xulosalari tuzilishiga sabab bo'ladi. Bizningcha, mazkur muammolarni hal qilish uchun quyidagi choralarni ko'rish zarur:

- ekspertlarni zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha muntazam ravishda o'qitib borish;
- sud-ekspertiza muassasalarini zamonaviy kompyuter texnikasi va dasturiy ta'minot bilan jihozlash;
- raqamli dalillarni tekshirish bo'yicha yangi metodikalar ishlab chiqish;

– zarur hollarda IT sohasi mutaxassislarini ekspertizaga jalb qilish amaliyotini kengaytirish.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy ekspertizalarni tayinlash va o'tkazish jarayonida hali ham qator muammolar mavjud. Bu muammolarni hal qilish uchun kompleks chora-tadbirlar ko'rish, qonunchilikni takomillashtirish, ekspertlarning malakasini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish talab etiladi. Faqat shundagina iqtisodiy ekspertizalar jinoyat protsessida o'zining muhim rolini to'liq bajara oladi.

Iqtisodiy ekspertizalarni tayinlash va o'tkazish jarayonidagi yana bir muhim muammo ekspertiza obyektlarini saqlash va ularning butligini ta'minlash bilan bog'liq.

Ushbu masalada V.M. Abrosimova va boshqa bir guruh olimlarning qayd etishi-cha, ayrim hollarda ekspertiza obyektlari yo'qolishi yoki shikastlanishi holatlari uchrab turadi, bu esa takroriy ekspertiza o'tkazish imkoniyatini cheklab qo'yadi.

Mazkur fikrga qisman qo'shilish mumkin. Haqiqatan ham, amaliyotda ekspertiza obyektlarini saqlash va ularning butligini ta'minlash bilan bog'liq muammolar uchrab turibdi. Biroq, bizningcha, mualliflar bu muammoning jiddiyligini biroz bo'rttirib ko'rsatganlar. Chunki ko'pgina hollarda ekspertiza obyektlari tegishli tartibda saqlanadi va ularning butligi ta'minlanadi.

Shunga qaramay, bu masala jinoyat protsessiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, ayrim hollarda takroriy ekspertiza o'tkazish imkoniyati yo'qolmoqda, bu esa ishning to'liq va har tomonlama tekshirilishiga to'sqinlik qiladi. Ekspertiza obyektlarining yo'qolishi yoki shikastlanishi noto'g'ri xulosalar chiqarilishiga olib keladi. Ayrim hollarda esa jinoyat ishi to'xtatilishiga yoki oqlov hukmi chiqarilishiga sabab bo'ladi. Bizningcha, bu muammoni hal qilish uchun quyidagi choralarni ko'rish maqsadga muvofiq:

– ekspertiza obyektlarini saqlash va ularning butligini ta'minlash bo'yicha aniq tartib-qoidalarni ishlab chiqish va qonunchilikda mustahkamlab qo'yish;

– sud-ekspert muassasalarini maxsus saqlash xonalari bilan ta'minlash, zamonaviy himoya vositalarini joriy etish;

– ekspertiza obyektlarini saqlash uchun mas'ul shaxslarning javobgarligini kuchaytirish;

– elektron shakldagi ekspertiza obyektlarini saqlash uchun maxsus axborot tizimlarini joriy etish.

Iqtisodiy ekspertizalarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish masalasida ham amaliyotda turlicha muammolar uchrab turadi. E.F. Bikovanning ta'kidlashicha, ko'pincha ekspertlar zarur ma'lumotlarni olishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa ekspertiza sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Fikrimizcha, mazkur fikrga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Chunki amaldagi qonunchilik ekspertlarga zarur ma'lumotlarni so'rab olish huquqini beradi. Biroq shuni tan olish kerakki, ayrim hollarda bu jarayon ancha murakkab kechmoqda. Buning asosiy sabablari quyidagilar:

– ayrim tashkilotlar tijorat siri bahonasi-da ma'lumotlarni taqdim etishdan bosh tortmoqda;

– ba'zi hollarda esa ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilmayapti;

– taqdim etilgan ma'lumotlar to'liq yoki aniq bo'lmayapti.

Bu holat ekspertiza muddatlari asossiz ravishda cho'zilib ketishiga, ayrim hollarda ekspert xulosalari to'liq va asosli bo'lmasligiga, ba'zan esa ekspertiza umuman o'tkazilmay qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Bizningcha, bu muammoni hal qilish uchun quyidagi choralarni ko'rish lozim:

– ekspertlarning zarur ma'lumotlarni olish huquqini yanada kengaytirish va bu huquqni qonunchilikda aniq mustahkamlab qo'yish;

– ma'lumotlarni taqdim etmaganlik yoki o'z vaqtida taqdim etmaganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish;

– davlat organlari o'rtasida ma'lumot almashinuvi tizimini takomillashtirish;

– ekspertlar uchun yagona ma'lumotlar bazasini yaratish lozim.

Iqtisodiy ekspertizalarni tayinlash va o'tkazish jarayonidagi yana bir muhim masala ekspertiza natijalarining ishonchliligi va obyektivligi masalasidir. L.P. Klimovichning fikricha, ayrim hollarda ekspert xulosalari subyektiv xarakterga ega bo'lib, yetarlicha asoslanmagan bo'ladi.

Mazkur qarashga qisman qo'shilish mumkin. Haqiqatan ham, amaliyotda ekspertiza natijalarining ishonchliligi va obyektivligi bilan bog'liq muammolar uchrab turadi. Biroq, bizningcha, bu muammoni umumlashtirib, barcha ekspertiza natijalariga nisbatan qo'llash noto'g'ri bo'lar edi. Ko'pgina hollarda ekspertlar o'z vazifalarini vijdonan va professional darajada bajaradilar.

Shunga qaramay, ekspertiza natijalarining ishonchliligi va obyektivligi masalasi jinoyat protsessiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, noto'g'ri yoki asossiz ekspert xulosalari asosida ayblovlarning tuzilishi yoki hukmlar chiqarilishi, o'z navbatida, fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilishiga, adolatsiz qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin.

Bizningcha, mazkur muammoni hal qilish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Birinchidan, ekspertlarning malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Buning uchun muntazam ravishda o'quv kurslari, seminar va treninglar tashkil etish, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, ekspertiza metodikalarini takomillashtirish, ularni zamonaviy talablarga moslashtirish zarur. Bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, yangi innovatsion usullarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish lozim.

Uchinchidan, ekspertlarning mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish kerak. Jumladan, ekspertning faoliyatiga noqonuniy aralash-

ganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish, ekspertning huquq va majburiyatlarini yanada aniqlashtirish lozim.

To'rtinchidan, ekspertiza natijalarini tekshirish va baholash mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Buning uchun ekspert xulosalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish, zarur hollarda takroriy yoki qo'shimcha ekspertizalar tayinlash amaliyotini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Boshqa bir dolzarb masala iqtisodiy ekspertizalar o'tkazishda xalqaro tajribani qo'llash bilan bog'liq. Y.R. Rossinskaya va Y.I. Galyashinaning ta'kidlashicha, ayrim hollarda iqtisodiy ekspertizalarni o'tkazishda xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajriba yetarlicha qo'llanmaydi.

Xulosalar

Globalashuv va iqtisodiy integratsiya sharoitida, haqiqatan ham, xalqaro standartlarni qo'llash, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat ekspertiza sifatini oshirishga, balki xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Bizningcha, bu yo'nalishda quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

– iqtisodiy ekspertizalar sohasidagi xalqaro standartlarni o'rganish va ularni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish zarur. Bu jarayonda, albatta, milliy xususiyatlar va amaliyot inobatga olinishi kerak;

– xorijiy davlatlarning iqtisodiy ekspertizalar o'tkazish bo'yicha ilg'or tajribasini o'rganish va qo'llash lozim. Buning uchun xalqaro konferensiyalar, seminarlar o'tkazish, xorijiy ekspertlar bilan tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq;

– iqtisodiy ekspertizalar sohasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, xorijiy ekspertlar va ekspertiza muassasalari bilan o'zaro aloqalarni rivojlantirish kerak. Bu, ayniqsa, transmilliy iqtisodiy jinoyatlarni tergov qilishda muhim ahamiyat kasb etadi;

– ekspertlarni xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'rganishga rag'batlantirish lozim. Bu ularga xalqaro tajribani o'rganish, xorijiy

hamkasblar bilan muloqot qilish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy ekspertizalarni tayinlash va o'tkazish jarayonidagi muammolarning tahlili shuni ko'rsatadiki, bu sohada hal qilinishi lozim bo'lgan bir qator dolzarb masalalar mavjud:

1. Iqtisodiy ekspertizalarning yagona tasnifi mavjud emasligi muammosiga e'tibor qaratish zarur. Bu holat amaliyotda jiddiy qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Iqtisodiy ekspertizalarning barcha turlarini qamrab oluvchi yagona tasnifni ishlab chiqish va uni qonunchilikda mustahkamlab qo'yish maqsadga muvofiq.

2. *Ekspertiza tayinlashda taraflarning subyektivizmi va o'ziga foydali bo'lgan savollarni qo'yishga intilishi muammosi.* Bu muammoni hal qilish uchun ekspertiza tayinlashda mutaxassislarining maslahatlaridan foydalanish taklif etiladi.

3. *Ekspertlarning yetarli tajriba va ko'nikmalarga ega emasligi muammosi.* Bu muammoni hal qilish uchun yosh mutaxassislar uchun majburiy vebinarlar va kurslar tashkil etish, ekspertlarni rag'batlantirish tizimini joriy etish taklif etiladi.

4. *Ekspertiza o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va materiallarning yetarli emasligi yoki sifatsizligi muammosi.* Bu muammoni hal qilish uchun tergovchi va surishtiruvchilarning iqtisodiy bilimlarini oshirish bo'yicha maxsus o'quv kurslarini tashkil etish taklif etiladi.

5. *Iqtisodiy ekspertizalarni o'tkazish metodikalarining yetarli darajada ishlab chiqilganligi muammosi.* Bu muammoni hal qilish uchun iqtisodiy ekspertizalarning barcha turlari bo'yicha batafsil uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish zarur.

6. *Ekspertlarning mustaqilligi masalasi* muhim ahamiyatga ega. Bu muammoni hal qilish uchun ekspertlarning mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik normalarini yanada takomillashtirish lozim.

7. *Ekspertiza o'tkazish muddatlari bilan bog'liq muammolar.* Bu muammoni hal qilish uchun davlat sud-ekspertiza muassasalari-

ning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, malakali ekspertlar sonini ko'paytirish, ekspertiza tayinlash tartibini takomillashtirish taklif etiladi.

8. *Iqtisodiy ekspertizalar xulosalarining sifat masalasi.* Bu muammoni hal qilish uchun ekspertlarning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, ekspertiza metodikalarni takomillashtirish, ekspertiza uchun zarur materiallarni to'liq to'plash va taqdim etish bo'yicha choralar ko'rish lozim.

9. *Ekspertiza xulosalarini baholash muammosi.* Bu muammoni hal qilish uchun tergovchi, surishtiruvchi va sudyalarning iqtisodiy bilimlarini oshirish, ekspert xulosalarini baholash bo'yicha batafsil uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish taklif etiladi.

10. *Iqtisodiy ekspertizalar o'tkazishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish muammosi.* Bu muammoni hal qilish uchun ekspertlarni zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha o'qitish, sud-ekspertiza muassasalarini zamonaviy texnika bilan jihozlash, raqamli dalillarni tekshirish bo'yicha yangi metodikalar ishlab chiqish lozim.

11. *Ekspertiza obyektlarini saqlash va ularning butligini ta'minlash muammosi.* Bu muammoni hal qilish uchun aniq tartib-qoidalarini ishlab chiqish, maxsus saqlash xonalarini tashkil etish, mas'ul shaxslarning javobgarligini kuchaytirish taklif etiladi.

12. *Iqtisodiy ekspertizalar sohasida xalqaro tajribani qo'llash muammosi.* Bu muammoni hal qilish uchun xalqaro standartlarni o'rganish va qo'llash, xorijiy tajribani o'rganish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish lozim.

Yuqorida sanab o'tilgan muammolarni hal qilish uchun kompleks yondashuv, qonunchilikni takomillashtirish, ekspertlarning malakasini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish talab etiladi. Bu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi iqtisodiy ekspertizalarning sifati va samaradorligini oshirishga, pirovardida esa iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Sagitdinova Z.I. Sudebno-ekonomicheskaya ekspertiza: aktual'nyye problemy i puti ikh resheniya [Forensic economic examination: current problems and solutions]. *The Rule of Law: Theory and Practice*, 2018, vol. 4, pp. 133–137.
2. Turimbetov R., Kalandarova M., Qurbonov N. Sud ekspertizasi: savollarni shakllantirishning muhim jihatlari [Important aspects of forming forensic examination questions]. Tashkent, 2021, p. 103.
3. Abrosimova V.M., Drozdov M.S. and Pecheritsa E.V. 'Aktual'nye problemy naznacheniya i provedeniya sudebno-ekonomicheskoy ekspertizy' [Actual problems of appointment and conducting forensic economic examination]. 2022, pp. 1583–1589.
4. Uzakov U. et al. Sud-ekspertizasi xulosasining xolisligi, ilmiy asoslanganligi va qonuniyligi [Objectivity, scientific validity and legality of forensic examination conclusion]. Tashkent, RSEM Publ., 2022, p. 384.
5. Bykova E.F. Problemy i puti ikh resheniya pri naznachenii sudebno-ekonomicheskoy ekspertizy v ugolovnom sudoproizvodstve [Problems and solutions in appointing forensic economic examination in criminal proceedings]. 2018, no. 4, pp. 133–137.
6. Goltsev D.S., Pimenova D.A. Problemy naznacheniya i proizvodstva sudebnykh ekonomicheskikh ekspertiz [Problems of appointment and production of forensic economic examinations]. *Herald of Economic Security*, 2021, vol. 3, pp. 144–147.
7. Klimovich L.P. Nauchnye osnovy sovremennoy sudebnoy ekonomicheskoy ekspertizy [Scientific foundations of modern forensic economic examination]. Moscow, 2015, p. 120.
8. Savitskiy A.A. Oshibki pri proizvodstve sudebnykh ekonomicheskikh ekspertiz [Errors in production of forensic economic examinations]. E.R. Rossinskaya (Ed.). Moscow, Prospekt Publ., 2016, pp. 493.
9. Pecheritsa E.V., Grigorenko M.A. Sudebnaya ekonomicheskaya ekspertiza [Forensic economic examination]. St. Petersburg, 2019, p. 87.
10. Muminov B. Sudga qadar ish yurituvda maxsus iqtisodiy bilimlardan foydalanishni takomillashtirish [Improving the use of special economic knowledge in pre-trial proceedings]. Tashkent, 2018, p. 14.
11. Muminov B. Mutaxassis xulosasining daliliy ahamiyati [Evidentiary value of expert conclusion], *Analysis of Uzbek Legislation*, 2017, vol. 1, pp. 81–83.
12. Antonova T.K., Chayka V.N. Pravovye problemy, porozhdayemye vsledstviye zakonodatel'nogo neuregulirovaniya [Legal problems arising from legislative non-regulation]. *Law, Safety, Emergencies*, 2020, vol. 4 (49), pp. 65–69.
13. Savitskiy A.A. Oshibki pri proizvodstve sudebnykh ekonomicheskikh ekspertiz [Errors in production of forensic economic examinations]. E.R. Rossinskaya (Ed.). Moscow, Prospekt Publ., 2016, pp. 495.
14. Zulfiqorov A. The legal nature of the evaluation of forensic reports. *Journal of Fundamental Studies*, 2023, vol. 1 (1), pp. 115–122.
15. Nabiev G. Ways of development of forensic expertise in criminal proceedings. *Society and Innovation*, 2023, vol. 4 (8), pp. 189–195.
16. Rossinskaya E.R., Galyashina E.I. Nastol'naya kniga sud'i. Sudebnaya ekspertiza [Judge's handbook. Forensic examination]. Moscow, Prospekt Publ., 2016, p. 134.

Kelib tushgan / Получено / Received: 11.01.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 03.02.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 17.02.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.1./UYQ05897

UDC: 343.1(045)(575.1)

JINOYAT ISHINI SUDDA KO'RISH UCHUN TAYYORLASH BOSQICHIDA PROTSESSUAL XATOLARNI BARTARAF QILISH IMKONIYATLARI

Mamadaliyev O'tkir Abdug'affarovich,
O'zbekiston Respublikasi
Sudyalar Oliy Kengashi huzuridagi
Sudyalar oliy maktabi mustaqil izlanuvchisi
ORCID:0009-0007-7181-2574
e-mail: uamamadaliyev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ishni sudga qadar yuritish bosqichida yo'l qo'yiladigan protsessual xatolarni sud muhokamasida bartaraf qilish bilan bog'liq muammolar ilmiy jihatdan tahlil qilingan bo'lib, jinoyat ishini sudga ko'rish uchun tayyorlash bosqichi ishni sudga qadar yuritish bosqichida yo'l qo'yilgan protsessual xatolarni bartaraf qilish nuqtayi nazaridan muhim bosqich hisoblanishi muhokama qilingan. Shuningdek, ishni sudga qadar yuritish bosqichida yo'l qo'yilgan xatolarni o'z vaqtida bartaraf qilish muhim ahamiyatga egaligiga qaramasdan, xatolarni bartaraf qilishning protsessual tartibi qonunchilikda belgilanmagani, sudyaning mazkur bosqichda o'z tashabbusi bilan jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituv o'tkazish to'g'risida ajrim qabul qilishi va ishni prokurorga yuborish vakolatiga ega ekanligi, protsessual xatolarni o'z vaqtida, ya'ni jinoyat ishini sudga ko'rish uchun tayyorlash bosqichida aniqlash va mazkur xatolarni bartaraf etish yuzasidan o'zining vakolatlarini to'liq amalga oshirishni suddan talab qilishi mumkinligi holatlari tahlil qilingan. Xususan, maqolada sud dastlabki eshituv bosqichining sud muhokamasi jarayonini yengillashtirishga, shaxsga nisbatan ehtiyot chorasini o'zgartirishga, umuman, protsessual muddatning qisqarishi hisobiga ishni oqilona muddatlarda ko'rib chiqilishiga ta'sir qilishi o'rganilgan va ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shu bilan birga, mazkur bosqichda ishni prokurorga qaytarmasdan, aniqlangan xatoni bartaraf qilishning samarali protsessual mexanizmlarini joriy qilish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: sud, sudning faoliyati, xatolarni bartaraf qilish, protsessual hujjat, qonuniylik, prokuror, oqilona muddat, dastlabki eshituv

ВОЗМОЖНОСТИ УСТРАНЕНИЯ ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ ОШИБОК НА ЭТАПЕ ПОДГОТОВКИ УГОЛОВНОГО ДЕЛА К СУДЕБНОМУ РАЗБИРАТЕЛЬСТВУ

Мамадалиев Уткир Абдугаффарович,
самостоятельный соискатель Высшей школы судей
при Высшем судебном совете Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье проведён научный анализ проблем, связанных с устранением процессуальных ошибок, допущенных на этапе досудебного производства, в ходе судебного разбирательства. Рассмотрена роль этапа подготовки уголовного дела к судебному

разбирательству с точки зрения исправления процессуальных нарушений, допущенных на стадии досудебного производства. Отмечено, что, несмотря на важность своевременного устранения процессуальных ошибок, законодательство не устанавливает чёткой процессуальной процедуры их исправления. Анализируются полномочия судьи по проведению предварительного слушания по собственной инициативе, принятию решения о направлении дела прокурору, а также выявлению процессуальных нарушений и реализации полномочий по их устранению на стадии подготовки дела к судебному разбирательству. Особое внимание уделено возможности изменения предмета судебного разбирательства в ходе предварительного слушания, пересмотру меры пресечения в отношении обвиняемого, а также влиянию сокращения процессуальных сроков на разумные сроки рассмотрения дела. В заключении предложены научно-теоретические и практические рекомендации по внедрению эффективных процессуальных механизмов устранения процессуальных ошибок без возврата дела прокурору.

Ключевые слова: суд, судебная деятельность, устранение ошибок, процессуальный документ, законность, прокурор, разумные сроки, предварительное слушание

OPPORTUNITIES FOR ELIMINATING PROCEDURAL ERRORS DURING THE PREPARATORY STAGE OF CRIMINAL CASE TRIALS

Mamadaliyev Utkir Abdugaffarovich,

Independent researcher of the Supreme School of Judges
under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article scientifically analyzes the problems associated with the elimination of procedural errors made at the pre-trial stage of the case. The stage of preparing a criminal case for trial is the most important in terms of eliminating procedural errors made at the pre-trial stage. Despite the importance of the timely elimination of errors made during pre-trial proceedings, the procedural order for eliminating errors is not regulated by law. At this stage, the judge has the authority to issue a ruling on the preliminary hearing of the criminal case on his own initiative and to refer the case to the prosecutor. The absence of this authority in the court during the main trial requires the court to identify procedural errors in a timely manner, that is, at the stage of preparing the criminal case for trial, and to fully exercise its powers in relation to the identified errors. The court's authority to change the subject of the trial in the preliminary hearing to a mitigating one, to change the measure of restraint against a person, and, in general, to consider the case within reasonable time limits due to the reduction of the procedural time limit, has been studied and scientifically analyzed. Also, at this stage, without returning the case to the prosecutor, scientific-theoretical and practical recommendations have been given in order to expand the possibilities of introducing effective procedural mechanisms to eliminate this error.

Keywords: court, court activity, elimination of errors, procedural document, legality, prosecutor, reasonable period, preliminary hearing

Kirish

Jinoyat protsessining har bir bosqichida avvalgi bosqichda yo'l qo'yilgan xatolarni bartaraf qilish mexanizmlari ko'zda tutilgan, biroq jinoyat ishlari yurituvida xato qilish huquqi hech kimga berilmagan.

Jinoyat protsessida "Xato qilishga bo'lgan huquq" – axloq va ma'naviyatga zid tushuncha bo'lib, bu qonuniylik va axloqning

keyingi buzilishlarini keltirib chiqarishi mumkin [1, 33-b.]. Xato nafaqat bo'shliq yoki kamchilik, balki beparvolik, muayyan harakatni sifatsiz yoxud malakasiz bajarish, muayyan qoidalarga amal qilmaslik, qandaydir vazifani bajarish tartibi va shartlarini buzishdir [2, 36-b.].

Tartib tamoyil bilan bog'liq mexanizmlar huquqiy davlatda alohida ahamiyat kasb

etadi, sababi ularning maqsadi davlat bilan nizoda inson huquqlarini kafolatlashga qaratilgan bo'lib, tasodif elementini va qarorlar qabul qilishda subyektivizmni kamaytiradi [3, 26-b.].

Ishni sud muhokamasiga tayyorlash bosqichi o'zidan avvalgi tergov bosqichini keyingi sud muhokamasi bosqichidan ajratib turuvchi sudda ish yuritishning birinchi bosqichi hisoblanadi. Aytish mumkinki, u jinoyat protsessi uchun ikki markaziy bosqich: dastlabki tergov va jinoyat ishini sudda mazmunan muhokama qilish bosqichi oralig'ida joylashgan [4, 1280-b.].

Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayyorlash bosqichi jinoyat protsessining muhim bosqichi bo'lib, unda, birinchidan, dastlabki tergov ustidan nazorat amalga oshiriladi, ikkinchidan, ishni birinchi instansiya sudida ko'rish uchun yetarli asoslar mavjudligi, jinoyat ishini mazmunan ko'rish uchun to'siqlar mavjud yoki mavjud emasligi tekshiriladi. Bu, o'z navbatida, ishni sudga qadar yuritish bosqichidagi protsessual faoliyatning qonuniyligini tekshirishni anglatadi.

Mazkur bosqichning protsessual xatolarni bartaraf etish nuqtayi nazaridan xususiyati shundan iboratki, ushbu jarayonda yangi holatlar yoki dalillar aniqlanmaydi, balki jinoyat ishi materiallaridan kelib chiqib, tegishli protsessual qaror qabul qilinadi.

Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayyorlov bosqichi talabga to'la javob berolmaydigan tergov natijalarining asosiy sud muhokamasiga o'tkazilishi yo'lida to'siq bo'lib, tergov va sud muhokamasi orasidagi filtr vazifasini bajaradi.

Qoniqarsiz tergov qilingan jinoyat ishlari da sudga berish bosqichi "filtr" vazifasini bajaradi. Lekin ular (zamonaviy islohotchilar) bu bosqichdan voz kechib, ishni tergov qilish va ishni hal qilish o'rtasidagi har qanday oraliq sud nazoratini istisno qildilar. Hukm masalasini hal qilish esa ayblov hokimiyati – prokurorga topshirildi [5, 70-b.].

2024-yil davomida birinchi bosqich sudlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi JPK 416-, 417-moddalari tartibida jami 430 ta ish bo'yicha 739 nafar shaxsga nisbatan ajrim chiqarilganligi hamda ijro qilish uchun yuborilganligi (JPK 416-moddasi tartibida 116 ta ish bo'yicha 179 nafar shaxsga, JPK 417-moddasi tartibida 170 ta ish bo'yicha 295 nafar shaxsga nisbatan, JPK 416-, 417-moddasi tartibida 144 ta ish bo'yicha 265 nafar shaxsga nisbatan ajrim chiqarilgan) tergov sifatida jiddiy muammolar mavjudligini va ularni sudda bartaraf qilish mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyatini ko'rsatadi.

Material va metodlar

Tadqiqotda jinoyat protsessida ishtirokchilar masalasi bo'yicha qonunchilik normalari va huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi hamda qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayyorlash bosqichi garchand, sudya tomonidan yakka tartibda hal qilinsa-da, ishni sudga qadar yuritish bosqichida yo'l qo'yilgan protsessual xatolarni bartaraf qilish nuqtayi nazaridan eng muhim bosqich hisoblanadi. Sababi mazkur bosqichda sudya o'z tashabbusi bilan jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituv o'tkazish to'g'risida ajrim qabul qilishi, dastlabki eshituv natijalari bo'yicha jinoyat ishining ayblov dalolatnomasini, ayblov xulosasini yoki tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash to'g'risidagi qarorni tasdiqlagan prokurorga yuborish vakolatiga ega. Asosiy sud muhokamasida sudda mazkur vakolatning mavjud emasligi, protsessual xatolarni o'z vaqtida, ya'ni jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayyorlash bosqichida aniqlash va yo'l qo'yilgan xatolar bo'yicha o'zining vakolatlarini to'liq amalga oshirishni suddan talab qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda dastlabki tergov xatolarini ta'riflashda turli atamalar qo'llanadi:

“odil sudlov xatolari” [6], “sud xatolari” [7], “dastlabki tergovning kamchiliklari”, “dastlabki tergovdagi bo’shliqlar” [8], “jinoiy protsessual qoidabuzarliklar” [9–11], “xatolar” [12–18], “tergov xatolari” [19, 20], “qonun buzilishi” [21], “qonun normalari buzilishi”, shu jumladan, “jiddiy qoidabuzarliklar”, “qonun normalaridan chekinish”, “protsessual xatolar” va boshqalar.

Biroq “tergov xatolari” ilmiy adabiyotlarda, barcha xatolarni umumlashtiruvchi atamaga aylanganligidan kelib chiqib, biz ushbu atamadan foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Protsessning tergovdan so’ng darhol sud muhokamasi boshlanadigan shakliga faqatgina kam ahamiyatli jinoyatlar bo’yicha ko’riladigan ishlarni kiritish mumkin. Boshqa hollarda surishtiruv va tergov o’rtasida “oralik nazoratni amalga oshiruvchi sud organi” turi shi lozim. Aksincha holat dastlabki tergovning xolisligi sezilarli darajada yo’qolishiga olib keladi [22, 189-b.].

JPKning 396-moddasi 1-qismi 2–6-bandida ko’rsatilgan masalalarni hal qilish amalda ishni sudga qadar yuritish bosqichidagi protsessual faoliyatning qonuniyligini tekshirishni anglatadi, binobarin, mazkur holatlar sudning protsessual xatolarni bartaraf qilish bo’yicha faoliyatining predmetini belgilab beradi.

Mazkur bosqichda aniqlangan protsessual xatolarni bartaraf qilish uchun sudga quyidagi vakolatlar berilgan:

- mulkiy zararni qoplashni ta’minlash choralari surishtiruvchining yoki tergovchining zimmasiga yuklash;
- dastlabki tergovning texnik yo’sindagi kamchiliklarini bartaraf etish uchun ishni prokurorga yuborish;
- protsess ishtirokchilarini jinoyat ishi materiallari bilan tanishtirish;
- dastlabki eshituv o’tkazish orqali protsessual xatolarni bartaraf qilish.

Dastlabki eshituv institutining joriy qilinishi, albatta, sudning protsessual xatolarni bartaraf qilish yuzasidan vakolatlarini ke-

ngaytirdi, bundan tashqari ushbu bosqichda himoya tarafi sudga dastlabki tergov davomida qonunbuzilishlarni bevosita yetkazish imkoniyatiga ega bo’ldi.

Natijada ushbu bosqichda jinoyat ishi-ning harakati yuzasidan sud muhokamasini nazarda tutmaydigan boshqa yechimlar paydo bo’ldi.

Sh. Fayziyev va S. Sattorovanning fikricha, dastlabki eshituvning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo’ladi [2, 117-b.]:

- nazorat funksiyasini bajarib, asossiz va noqonuniy amalga oshirilgan ishlarni sud muhokamasiga qo’ymaslik;
- sud muhokamasida ishni mazmunan ko’rishga to’sqinlik qiluvchi holatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish imkoniyatini beradi;
- sud muhokamasida faqatgina maqbul dاللardan foydalanish uchun sharoit yaratadi;
- jinoyat sud ishlarini yuritish doirasiga jalb qilingan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta’minlaydi;
- jinoyat ishlarini sud muhokamasida samarali ko’rish uchun sharoit yaratadi.

Mazkur bosqichda qabul qilingan qaror sudning keyingi qarorlariga o’z ta’sirini o’tkazadi, sababi keyingi bosqichda mazkur xatolarni bartaraf qilish imkoniyatlari keskin kamayadi.

Mazkur bosqichda tergov xatolari sud tomonidan kuzatish, analiz va sintez, qiyoslash, induktiv va deduktiv usullar yordamida aniqlanishi mumkin [8].

JPKning 405¹²-moddasiga muvofiq, sudya jinoyat ishining sud tomonidan ko’rib chiqilishiga doir to’sqinliklarni bartaraf etish uchun uni taraflarning iltimosnomasiga ko’ra yoki o’z tashabbusi bilan quyidagi hollarda prokurorga yuboradi, agar:

- 1) ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasi ushbu kodeksning talablari buzilgan holda tuzilgan bo’lsa va bu mazkur ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasi asosida sud tomonidan hukm yoxud boshqa qaror chiqarish imkoniyatini istisno etsa;

2) tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash to'g'risidagi qaror bilan birga sudga yuborilgan jinoyat ishi bo'yicha ayblov dalolatnomasini yoki ayblov xulosasini tuzish zarurati bo'lsa;

3) jinoyat ishlarini birlashtirish uchun ushbu kodeksning 332-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lsa;

4) ayblanuvchi jinoyat ishi materiallari bilan tanishish chog'ida unga ushbu kodeksning 375- va 381¹³-moddalarida nazarda tutilgan huquqlar tushuntirilmagan bo'lsa;

5) ayblov dalolatnomasida yoki ayblov xulosasi jinoyat ishini tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash uchun sudga yuborish to'g'risidagi qarorda bayon etilgan haqiqiy holatlar ayblanuvchining va o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash to'g'risida ish yuritilayotgan shaxsning xatti-harakatlarini og'irroq jinoyat, ijtimoiy xavfli qilmish sifatida malakalash uchun asoslar mavjudligidan dalolat bersa yoki bunday holatlar mavjudligi dastlabki eshituv jarayonida aniqlangan bo'lsa.

Biroq mazkur asoslarning mukammal emasligi, ishni sudga qadar yuritish bosqichida yo'l qo'yilgan barcha xatolarni barta-raf qilish imkonini bermasligi sababli ishni prokurorga qaytarish asoslarini kengaytirish yuzasidan takliflar berilgan. Jumladan, D. Suyunovanning fikriga ko'ra, ishni mazmunan ko'rishga to'sqinlik qiluvchi holatlar, shu jumladan, jinoyat-protsessual qonun talablarininig jiddiy buzilishi, ayblanuvchining ish materiallari bilan tanishtirilmaganligi, dastlabki eshituv davomida yangi ayblov e'lon qilish yoki yangi ayblanuvchilarni jalb qilishni talab qiluvchi holatlar ishni prokurorga qaytarish uchun asos bo'lishi zarur [23, 223-b.].

JPKning 379-moddasida ayblov xulosasi va 381¹²-moddasida ayblov dalolatnomasida quyidagi talablar belgilangan bo'lib:

– ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan imzolanmaganligi;

– ayblovning ayblov xulosasidagi bayoni ayblanuvchi tariqasida jalb qilish haqida qarorda ko'rsatilgan ayblovdan farqli ekanligi;

– vakolatli prokuror tomonidan tasdiqlanmaganligi;

– jabrlanuvchi, shuningdek, ayblanuvchi to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan, ayblanuvchining manzili ko'rsatilmaganligi;

– e'lon qilingan ayblovning mazmuni Jinoyat kodeksining shu jinoyatni nazarda tutgan moddasi yoki moddalarini ham ko'rsatgan holda bayon qilinmaganligi JPK talablarini buzish hisoblanadi.

Ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasida ayblanuvchining shaxsi to'g'risida ma'lumotlar noto'g'ri ko'rsatilganligi uning shaxsini aniqlashga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun ularni sudlanuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar bilan taqqoslash kerak. JPKning 466-moddasida hukmning kirish qismida sudlanuvchining ismi, otasining ismi va familiyasi, tug'ilgan yili, oyi, kuni va joyi, yashash joyi, ishlash joyi, mashg'uloti, ma'lumoti, oilaviy ahvoli va ish uchun ahamiyatli boshqa ma'lumotlar ko'rsatilishi kerakligi, 468-moddada 1-qismi 1-bandida ayblov hukmining qaror qismida sudlanuvchining familiyasi, ismi va otasining ismi ko'rsatilishi kerakligi belgilangan.

Ayblanuvchi tariqasida jalb qilish to'g'risida qaror va ayblov xulosasida ayblov mazmuni va uning yuridik tavsifi noto'g'ri ko'rsatilishi bilan bog'liq xatolar jumlasiga, JPKning 361-moddasi talablari buzilishi, ya'ni:

– ayblovning mazmuni, ya'ni shaxsning zimmasiga qo'yilayotgan jinoyat hodisasi, u sodir etilgan joy, vaqt va boshqa muhim holatlar bayon etilmasligi;

– Jinoyat kodeksining ushbu jinoyatni nazarda tutgan moddasi, qismi, bandi aks ettirilmaganligi;

– Jinoyat kodeksining turli moddalari, qismlari yoki bandlarida nazarda tutilgan bir necha jinoyatni sodir etishda ayblaganda, bu jinoyatlardan har birining mohiyati va yuridik tavsifi alohida ko'rsatilmaganligi kiradi.

Ayblov xulosasini tuzishga qo'yiladigan talablardan kelib chiqib, quyidagi protsessual qonun buzilishlari ajratiladi:

- ayblov xulosasi mazmuniga qo'yilgan talblar;
- ayblov xulosasi shakliga qo'yilgan talblar;
- ayblov mohiyatiga taalluqli bo'lmagan, biroq ishni hal qilishga to'sqinlik qilishuvchi boshqa qoidabuzarliklar.

Biroq mazkur asos bilan jinoyat ishini prokurorga qaytarish uchun:

- aniqlangan qonun buzilishini sud tomonidan bartaraf qilish imkoni mavjud emasligi;
- ayblov mazmuni va uning yuridik tavsifi noto'g'ri ko'rsatilishi hukm chiqarish yoki boshqa qaror qabul qilishga to'sqinlik qilishi;
- ayblov mazmunidagi xatolarni bartaraf qilish uchun yangi ayblov e'lon qilish talab etilmasligi zarur.

Jinoyat ishlarini o'rganish surishtiruvchi va tergovchilar tomonidan ayblanuvchi tariqasida jalb qilish haqida qaror va ayblov xulosasini tuzishda yo'l qo'yiladigan bu turdagi xatolar jumlasiga:

- jinoyatning motiv va maqsadi ko'rsatilmasligi;
- jinoyatni sodir etish uchun usuli, sodir etilgan vaqt va joyi ko'rsatilmasligi yoki noto'g'ri ko'rsatilishi;
- jinoyatning ijtimoiy xavfli oqibatlar, shu jumladan, zarar yoki ziyon kimga yetkazilganligi ko'rsatilmasligi;
- jinoyat ishtirokchilikda sodir etilganda har bir ishtirokchining roli ko'rsatilmasligi;
- dispozitsiyasi blanket bo'lgan jinoyat tarkiblari yuzasidan, aynan qaysi qonun yoki qonunosti hujjati buzilganligi ko'rsatilmasligi kirishi aniqlandi.

Vaholanki, yuqoridagi ko'rsatilgan holatlar isbotlash predmetining tarkibiy qismi hisoblanadi va ularni aniqlash majburiyati tergov organi zimmasiga yuklatilgan.

Ayblovda isbotlash predmetining elementlari to'liq ko'rsatilmasligi, jinoyat-protsessual qonunning jiddiy buzilishi sifatida baholanishi zarur, sababi ushbu holatlar is-

botlash predmeti, o'z navbatida, sud muhokamasi doirasini belgilashga to'sqinlik qiladi.

Bundan tashqari, ayblovning mavhumligi himoya tomonining o'zini himoya qilish imkoniyatlarini cheklaydi, sababi himoya tomoni o'zining vajlarini va himoya pozitsiyasini ayblovning mohiyatidan kelib chiqib shakllantiradi.

Sud ishlarini yuritishda xatolarni aniqlash va bartaraf qilish muammolarini o'rganish, uning aniq huquqiy mezonlar mavjud bo'lmagan, umumhuquqiy yoki tarmoq prinsiplari amal qiladigan sohalarida ko'proq uchrashini ko'rsatadi (misol uchun asoslilik, dalillarning to'liqligi) [24, 23-b.].

JPKning 405¹²-moddasi 1-qismi 5-bandida ko'rsatilgan asosdan farqli ravishda mazkur asos ayblovni og'irlashtirish yoki yangi dalillarni to'plash bilan bog'liq emas, balki faqatgina xatoni bartaraf qilgan holda yangi ayblov e'lon qilish yoki ayblov xulosasini yangitdan tuzish orqali bartaraf qilinadi.

Mazkur asos bilan ishni prokurorga qaytarish shaxsning ahvolini og'irlashtirmaydi, uning himoyaga bo'lgan huquqini buzmaydi, sababi tergov organi tomonidan ishning faktik holatlari to'g'ri aniqlangan bo'lib, faqatgina protsessual hujjatda ushbu holat to'g'ri bayon qilinmaganligini anglatadi.

Ayni vaqtda mazkur bosqichda sudning protsessual xatolarni bartaraf qilish imkoniyatlari birmuncha cheklangan deb hisoblaymiz.

Jumladan, sud dastlabki eshituv jarayonida sud muhokamasi predmetini yengillash-tirish tomonga o'zgartirish, ya'ni ayblovning ayrim epizodlarini yoki jinoyat-huquqiy belgilarini chiqarib tashlashga vakolatli bo'lishi lozim. Quyidagi hollarda ushbu mexanizmni qo'llash zarurati yuzaga kelishi mumkin:

- ayblov mazmuni sodir etilgan harakat jinoyiy qilmish emas, balki ma'muriy huquqbuzarlik sifatida malakalanishi zarurligini ko'rsatsa (shu jumladan, ma'muriy preyuditsiya-ning majburiyligi belgilangan hollarda);

- shaxsning harakati yarashuv doirasiga tushsa-da, mazkur harakat yarashuv doirasi-

ga tushmaydigan modda bilan kvalifikatsiya qilinganda;

- shaxs qonunda belgilangan tartibda jinoyiy javobgarlikdan (JK 64–68-moddalari) yoki jazodan (JK 69–76-moddalari) ozod etilgan bo'lsa-da, qilmish jinoyatlar majmui va takroran sodir etish sifatida kvalifikatsiya qilinganda;

- aynan bir jinoyatni sodir etganlik uchun jinoyiy javobgarlikni yengillashtiruvchi kvalifikatsiya belgilari Jinoyat kodeksining bir necha moddasida nazarda tutilgan bo'lsa, qilmish Jinoyat kodeksining javobgarlikni ko'proq yengillashtiruvchi moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi;

- bir necha jinoyat sodir etilganda, agar jinoyatlardan biri boshqasini sodir etish vositasi yoki usuli bo'lib, har ikkala jinoyat belgilari Jinoyat kodeksi tegishli moddasi dispozitsiyasida ko'rsatilgan bo'lsa, qilmish Jinoyat kodeksining faqat og'irroq jinoyat uchun javobgarlik belgilovchi bitta moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerakligi haqida qoidaga amal qilinmaganda;

- jinoyatlar ideal majmui mavjud bo'lmasa-da, tergov organi aybdorning bitta xatti-harakatini Jinoyat kodeksi Maxsus qismi turli moddalari bilan kvalifikatsiya qilganda.

Jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish bu jinoyat qonuniga qilmishning xususiyati, tomonlari va boshqa xususiyatlarini to'liq mosligini anglatadi. To'g'ri kvalifikatsiya sodir etilgan jinoyatga o'sha modda, qism va band, jami jinoyatlarning mosligida ifodalanadi. Bu talabning buzilishi noto'g'ri, xato kvalifikatsiyaga olib keladi. Jami inoyatlarda ma'lum bir moddani qo'llamaslik yoki ortiqcha moddani qo'llash ham noto'g'ri kvalifikatsiyaga olib keladi [25].

Mazkur bosqichning o'zida ayblovni o'zgartirish uchun formal asoslar mavjudligidan kelib chiqib, ayblov mazmunini o'zgartirish, sud muhokamasining shakli o'zgarishi, shu jumladan, ishni hay'atda emas, yakka tartibda ko'rishga, shaxsga nisbatan ehtiyot chorasini o'zgartirishga, umuman, protsessual muddatning qisqarishi hisobiga ishni oqilona mud-

datlarda ko'rib chiqilishiga ta'sir qilishi mumkin.

Sud yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, ayblovni o'zgartirish kerak deb hisoblasa, asoslantirilgan ajrim chiqarishga vakolatli bo'lishi zarur.

Protsessual xatolar nafaqat umumiy protsessual shakl, balki soddalashtirilgan protsessual shaklda ham uchrashini inkor etib bo'lmaydi. Aksincha, umumiy shakldan farqli ravishda soddalashtirilgan shaklda protsessual kafolatlarning qisqarishi protsessual xatolar ehtimolini oshiradi.

Ayblov xulosasida dalillar va himoya tomonining vajlari ko'rsatilmashligi

JPKning 379-moddasi 2-qismiga muvofiq, ayblov xulosasining tavsif qismida ayblanuvchining aybdorligini tasdiqlovchi dalillar, ayblanuvchining o'zini himoya qilish uchun keltirgan vajlari va ularni tekshirish natijalari bayon qilinadi. Biroq o'rganilgan aksariyat jinoyat ishlarida ayblanuvchining o'zini himoya qilish uchun keltirgan vajlari va mazkur vajlarni tekshirish natijalari ko'rsatilmagan.

JPKning 332-moddasi 2-qismiga muvofiq, bir yoki bir necha jinoyatni birgalashib sodir etishda ayblanayotgan shaxslarga nisbatan ishni ajratishga, basharti bu ish holatlari bo'yicha zarur bo'lib qolsa hamda bunday ajratish surishtiruvning, dastlabki tergovning va sud tomonidan ishni ko'rib chiqishning to'liq va xolisona bo'lishiga ta'sir qilmasa, yo'l qo'yiladi.

Ya'ni umumiy qoidaga ko'ra, sud tomonidan ishni ko'rib chiqishning to'liq va xolisona bo'lishiga ta'sir qilsa, bir yoki bir necha jinoyatni birgalashib sodir etishda ayblanayotgan shaxslarga nisbatan ishni ajratishga yo'l qo'yilmaydi.

Biroq surishtiruvchi va tergovchi tomonidan turli vajlar bilan jinoyat ishining bir qismini ajratish hollari uchrab turadi, bu esa sud tomonidan ishning haqiqiy holatlarini aniqlashga salbiy ta'sir o'tkazadi.

Bundan tashqari, jinoyatning turli ishtirokchilariga nisbatan jinoyat ishlarining alohida sud muhokamasida ko'rilishi hukm

qilingan shaxsning boshqa ishda guvoh sifatida ishtirok etishiga sabab bo'ladi, natijada yolg'on guvohlik berish uchun javobgarlik haqida ogohlantiriladi.

Shuningdek, ayni bir shaxs tomonidan bir necha jinoyat sodir etilgan taqdirda uning ayrim jinoyatlari yuzasidan ish ajratilib, ayblov xulosasi bilan sudga yuboriladi. Uning boshqa jinoyatlari yuzasidan dastlabki tergov o'tkazilayotganligi aniqlanganda ham ish prokurorga yuborilishi zarur, sababi bunday holat nafaqat sud tomonidan ishni ko'rib chiqishning to'liq va xolisona bo'lishiga, balki takroriylik, retsidiv va boshqa kvalifikatsiya qiluvchi belgilardan kelib chiqib, ayblovning o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Ammo faqatgina jinoyat ishlarini birlashtirish emas, balki ajratish uchun asoslar mavjudligi ham ishni prokurorga qaytarish uchun asos bo'lishi mumkin. Jumladan, JPKning 586⁶-moddasiga muvofiq, agar ish bo'yicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchi sifatida ishtirok etish uchun bir necha shaxs jalb qilingan bo'lsa va ularning barchasi bilan ham aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilmagan bo'lsa, o'zi bilan kelishuv tuzilmagan gumon qilinuvchilarga, ayblanuvchilarga taalluqli materiallar ajratiladi va ular bo'yicha ish yuritish umumiy qoidalarga rioya etgan holda amalga oshiriladi va bu haqda, albatta, kelishuvda ko'rsatiladi.

Ya'ni ushbu norma imperativ bo'lib, aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgan ish bo'yicha ham ish yuritish va yakuniy qarorni tezlashtirishga qaratilgan. Mazkur qoidaga amal qilmaslik aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzgan shaxsning huquqlarini buzish bilan birga uning xavfsizligiga tahdid hisoblanadi.

Binobarin, JPKning 405¹²-moddasi 1-qismi 3-bandini jinoyat ishlarini birlashtirish va ajratish uchun ushbu kodeksning 332-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan tarzda bayon qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ayblov dalolatnomasida yoki ayblov xulosasida jinoyat ishining tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash uchun sudga

yuborish to'g'risidagi qarorda bayon etilgan haqiqiy holatlar xatti-harakatlarini og'irroq jinoyat, ijtimoiy xavfli qilmish sifatida malakalash uchun asoslar mavjudligidan dalolat bersa yoki bunday holatlar mavjudligi dastlabki eshituv jarayonida aniqlangan bo'lsa, prokurorga qaytarilishi zarur.

Og'irroq ayblov deganda og'irroq jazo chorasini ko'zlovchi boshqa qonun normasi (qonun moddasining qismi va bandi) tatbiq etilishini, bu esa nafaqat asosiy, balki qo'shimcha jazoga ham tegishli ekanligini sudlar e'tiborga olishlari kerak. Jinoyatning tavsifini og'irroq jazo turini nazarda tutuvchi qonun bilan o'zgartirishga olib keluvchi yoki sodir etilgan harakatning tavsifini o'zgartirmasdan faktik ayblov miqdorini ko'paytiruvchi, shuningdek, ayblanuvchiga qo'yilmagan qo'shimcha epizodlarni o'z ichiga oluvchi ayblov ham og'irroq ayblov hisoblanadi [18, 8-b.].

Ключевые слова: термин, система, гипоним, архисема, гипероним, тип, лексическая единица, терминологические номинации, лексика, словарь, тезаурус, общеправовой тезаурус, синонимия, составные компоненты, реальность, сознание, понятие

CREATION OF LEXICAL LAYERS IN LEGAL TERMINOLOGY

Gulyamova Gulnora Yakubovna,
Professor of Tashkent State University of Law,
Candidate of Philological Sciences

Abstract. A thorough study of legal terminology in the system of legal education is a leading factor in the formation and improvement of the professional speech competence of a future specialist. In the

professional activities of lawyers, the correct and appropriate use of terms is of great importance. Since the term «field» is considered one of the main categories of professional communication, teaching terminology in higher legal educational institutions will have an effective impact on the quality of training legal specialists in the future. Mastering the requirements of the lexicon of the legal language forms and developing the skills of interpersonal communication in the socio-legal activities of future lawyers, the skills of using professional speech in various legal situations. Systematic research of vocabulary, in particular, terminological systems, is one of the pressing issues of modern linguistics. In recent years, the development of Uzbek lexicology and lexicography, as well as the improvement of its scientific and theoretical foundations, have created broad opportunities for a deep study of all branches of science, including the terminology of jurisprudence and its scientific principles. In lexicology, which is considered a branch of linguistics, lexemes, which are the main lexical unit of language, acquire reality not in isolation from each other, but in interdependence, in various semantic connections. This situation led to the establishment of various lexical layers. Therefore, such lexical layers are grouped in a certain order. This article discusses changes in the legal terminological system of the Uzbek language, development and formation, semiotic aspects of linguistic nominations, the principle of systematicity in terminology, thematic grouping of legal terms, gender-species connections in terminology, and lexicon that performs the function of hyperonymy in term formation. Also, attention is paid to the relationship between lexical units and terms, the issue of a general legal thesaurus in jurisprudence, the improvement of jurisprudential terminology, and the principles of Uzbek legal terminology. In particular, the definition of conceptual and nominative connections in Uzbek legal terminology, the analysis of types of semantic features between terms, in which the thematic classification is based, firstly, on the classification of objects and phenomena in real reality (extralinguistic factor), and, secondly, on the hyponymic relationship of lexemes (interlingual factor). Recommendations are given for the analysis and improvement of the quality of dictionaries and encyclopedias related to jurisprudence.

Keywords: term, systematicity, hyponym, archiseme, hyperonym, type, lexical unit, terminological nominations, lexicon, dictionary, thesaurus, general legal thesaurus, synonymy, compound components, reality, consciousness, concept

Kirish

Bo'lg'usi yurist kadrlar asosan rasmiy doirada faoliyat ko'rsatadi va davlat nomidan ish olib boradi. Shu bois ularning kelgusi faoliyatini rasmiy va ilmiy uslub madaniyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu nuqtayi nazardan, yuridik ta'limda soha terminologiyasiga oid modullarni talab darajasida o'zlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Milliy huquqshunoslik maktabini yaratish, huquq madaniyatini targ'ib qilish va talabalar ongiga singdirish, erkin huquqiy demokratik jamiyat qurish bevosita bo'lg'usi yurist-kadrlarning savodxonligiga bog'liq. Shunday ekan, bo'lg'usi yuristlarning ixtisoslikka oid terminologiya tizimini zarur darajada o'rganishi davr talabidir.

Yuridik ta'lim maskanlarida soha terminologiyasi, uning talab va qoidalarini o'qitishning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat [1]:

- talabalarni yuridik til leksikasining o'zi-ga xususiyatlari bilan tanishtirish;
 - professional yuridik nutqda terminlardan maqsadga muvofiq va o'rinli foydalanish-ga o'rgatish;
 - talabalarining yozma yuridik nutqini shakllantirish;
 - yuridik terminlar oldiga qo'yilgan talab va mezonlar to'g'risida ko'nikmalar hosil qilish;
 - yurisprudensiya tarmoqlariga oid hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirishga o'rgatish;
 - matn tuzish tartib-qoidalarini bilish, kodekslar, qonunlar, farmonlar, qarorlar va ularning moddalari yuzasidan fikr yurita bilish;
 - yozma sharhlar, izohlar, mulohazalar yoza olish qobiliyatini shakllantirish.
- O'zbek tilshunosligi va uning tarmoqlararo rivoji tobora oshib bormoqda. Tilimiz

mavqeyini ko'tarish, uning imkoniyatlarini keng ochib berish davlat siyosatiga oid masalalardan biriga aylangan. Tilshunoslikning barcha yo'nalishlari, jumladan, sohalar terminologiyasi ravnaqi uchun ham keng imkoniyatlar yaratildi. O'zbek tilining qator sohaviy terminologiyalari, jumladan, yuridik terminologik tizimida ham o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Birinchidan, qonunchiligimiz milliy tus oldi, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga o'tish amaliyoti natijasida yurisprudensiyaga aloqador qator yakka va birikma terminlar qo'llana boshladi: absenteizm, blanket dispozitsiya, budjet ssudasi, de-yure, lizing, sessiya, sanatsiya, faktoring, makroiqtisodiyot, depozitariy, mulk sug'urtasi, davlat tasarrufidan chiqarish, mulk ijarasi, hissadorlik jamiyati, ipoteka shartnomasi, barter bitimlari kabi terminlar shular jumlasidandir.

Ikkinchidan, ilm-fan, ishlab chiqarishdagi taraqqiyot jamiyatga yangidan yangi so'zlar, leksik birliklar uchun zamin yaratmoqda. Tilimizda ko'plab neologizmlar paydo bo'lyaptiki, ular lug'at boyligiga munosib hissa qo'shib kelmoqda: botnet, xaker, elektron janglar ((EV), o'lja to'ri (honeynet), onlayn hujum (online attack), maxfiylik banneri, ma'lumot sizishi (targeted attack), kompyuter hujumi, virus hujumi, zombi-tarmoq, veb xavfsizligi kabilar shular jumlasidan.

Uchinchidan, qayd etilgan sabablarga ko'ra, yuridik terminologiyada qator terminlar yangicha ma'no kasb etdi. Jumladan, *birja* terminiga O'zbek tilining izohli lug'atida shunday izoh berilgan: "Kapitalistik mamlakatlarda: qimmatbaho qog'ozlar va har xil mollar savdo-sotiq qilinadigan yirik savdo muassasasi". Mazkur termin Yuridik atamalar qomusiy lug'atida quyidagicha talqin etilgan: "Avvaldan tayinlanadigan manzil va vaqtda belgilangan qoidalar asosida ochiq savdo-sotiq o'tkazish orqali birja tovarlari bilan erkin ulgurji savdo qilish shart-sharoitlarini yaratuvchi, yuridik shaxs hisoblanadigan korxona".

Tilshunoslikda, xususan, leksikologiyada tilning asosiy lug'aviy birligi bo'lgan leksemalar bir-biridan ajralgan holda emas, balki o'zaro bog'liqlikda, xilma-xil ma'noviy aloqadorlikda reallik kasb etishi alohida ta'kidlanadi. Ayni shunday holat turli-tuman leksik qatlamlarning qaror topishiga olib kelgan. Shu tufayli bunday leksik qatlamlar muayyan tartibda guruhlanadi [2].

Ta'kidlash lozimki, mavzuviiy tasnif, birinchidan, real voqelikdagi predmet va hodisalarning o'z tasnifi (ekstralisoniy omil), ikkinchidan, leksemalarning giponimik munosabati (interlisoniy omil)ga tayanadi [3].

Material va metodlar

Har qanday ilmiy tadqiqotning samaradorligi tanlangan tahlil metodlari va ularning nazariy asoslanishiga bog'liq. Shu bois asosiy e'tibor yuridik terminlarning shakllanishi, terminlararo ma'noviy munosabatlar hamda terminlarning jins-tur aloqalarini o'rganishga qaratildi. Bu jarayonda nazariyotchi filolog va yurist olimlarning fikr-mulohazalari tahlil qilinib, soha lug'atlari qiyosiy o'rganil. Tadqiqotda konvergent va divergent metodlaridan foydalanildi [4].


O'zbek yuridik terminologiyasi sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlar (M. Qosimova, Sh. Ko'chimov, G. Gulyamova) tomonidan taklif etilgan tasniflarni umumlashtirib, o'zbek tilining yuridik terminlarini quyidagicha tasniflash mumkin: 1) *shaxs holati* (qotil, josus, o'g'ri, tovlamachi, voris, tergovchi, tadbirkor, bankir); 2) *voqea, hodisa, jarayon holati* (amnistiya, tergov, apellatsiya, majburlov, tintuv, harbiy holat, favqulodda holat, yuzlashtirish); 3) *huquqiy hujjatlar nomi* (order, akt, subsidiya, guvohnoma, litsenziya, viza, nota, sanksiya, deklaratsiya, farmon, qaror, ajrim); 4) *huquq bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy jarayonlar* (bitim, kelishuv, referendum, saylov, monitoring, ommaviy tartibsizlik, terror, ombudsman); 5) *moliya (mablag') masalasiga oid holatlar* (jarima, soliq, boj, pensiya, aliment, maosh, gonorar, stipendiya, yordam puli, ish haqi, mukofot puli, ustama); 6) *jazo*

holati va tizimi (qamoq, turma, koloniya, xushyorxona, jarima, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, uy qamog'i, shartli hukm qilish).


Mazkur tahlildan shu narsa ko'rinadiki, salbiy xususiyatga ega yuridik terminlar qonunchilikda, asosan, jinoyat darajasini belgilovchi so'zlar bo'lib, ular shaxs holati, voqea, hodisa va jarayon holati bilan bog'liq jinoyatlarni ifodalaydi. Jumladan:

- shaxsga qarshi jinoyatlar;
- tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar;
- iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar;
- ekologiya sohasidagi jinoyatlar;
- harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar;
- kiberjinoyatlar v.b.

Yuridik terminologiyada tushuncha va termin munosabatini T.A. Yatsyuk juda aniq ifodalab bergan [5].



Mazkur sxema o'zbek yuridik terminologiyasida tushuncha va vositalar munosabatiga ham to'la mos keladi. Ya'ni:



Masalan: Javobgarlik → ma'muriy javobgarlik → ashyoviy kamchiliklar uchun javobgarlik → tanishishdan kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha javobgarlik → ashyodan foydalanish natijasida uchinchi shaxsga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik va h.k.

Yuridik terminlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur sohada ham giperonim va giponim, ya'ni jins-tur munosabatlari alohida ahamiyatga ega. Masalan, kiber terminini olib ko'raylik. Ushbu termin shu mavzuviy guruhning giperonim (jins)lik vazifasini bajaradi. Uning giponim (tur)lari ko'plab terminlardan tashkil topgan bo'lib, ular birikma tarzi-

da namoyon bo'ladi: *kiberhujum, kiberxaker, kibernizo, kiberjinoyat, kiberfiribgarlik, kiber-mudofaa, kiberxavfsizlik, kiberxavfsizlik bo'yicha maslahatchi, kiberxavfsizlikning buzilishi, kiberxavfsizlik texnologiyasi va boshqalar*. Demak, mazkur tushuncha asosini kiber termini tashkil etadi [6].

Xuddi shunday, bojxona huquqi bilan bog'liq *tovar* terminiga murojaat qilamiz. Ushbu giperonim termin qator giponimlarni hosil qilgan: *tovar* (giperonim) – *tovarning kuzatuv hujjatlari, hisobvaraqa-faktura (invoys), yuklab jo'natish, konosament, yuk xati* kabilar. Keltirilgan misollar muayyan bir giperonim (jins)ning bir nechta giponimi (turi) mavjudligini ko'rsatdi. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, ba'zi giponimlar giperonimlik vazifasini ham bajarib kelishi mumkin. Bu terminlarning o'zaro aloqadorligini tasdiqlovchi muhim dalildir.

Tadqiqot natijalari

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi bilan o'zbek tilining ijtimoiy mavqeyi ortdi. Davlat, ta'lim, tarbiya, ish yuritish, madaniy-ma'rifiy, maorif ishlari o'zbek tilida olib boriladigan bo'ldi. Qonunlar o'zbek tilida yozilib, qonunchiligimiz milliy tus oldi. Qonun tili va uslubi milliydashdi, ko'plab o'zbekcha huquqiy atamalar, iboralar va terminlar paydo bo'ldi: *davlatchilik, qonunchilik, vakillik, bandlik, hokimlik, sarmoya, mulkdor, hissadorlik, hisobvaraqa, kafillik, kafolat xati, ashyoviy kredit, reklama bozori* va b. Ko'rinadiki, qonun tilining yuridik terminologiyasiga alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbek ilmiy terminologiyasining milliylashuvi respublikamizning mustaqillikka erishishi, kelajagi buyuk davlat sifatida tez va jadal rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun o'zbek yuridik terminologiyasining istiqbol davri taraqqiyoti har jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi [7].

O'zbek yuridik terminologiyasidagi bir xillik tamoyillari, terminlarni andozalash, yuridik terminologiyani muayyan tizim sifatida o'rganish, ularni ilmiy-nazariy jihatdan

tasniflash tamoyillarini ishlab chiqish yuridik tilning umumhuquqiy tezaurusini hal qiladi.

Tezaurus biror tilning mukammal lug'ati bo'lib, terminologiya asosini tashkil qiladi. Tezaurus muayyan ilmiy sohaga oid yakka va birikmalar yordamida terminologik tizim modelini yaratadi [8].

So'nggi vaqtlarda ilmiy sohaga tizimli yondashuv har qanday nutqiy obyektning uzviy belgisi sifatida tan olinmoqda. Xuddi shunday, terminologiyada tizimlilik til elementlari o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ifodalaydi. Shu bois qonunchilik tili uchun umumhuquqiy tezaurusning yuridik terminlari muhim omillardan biri hisoblanadi [9]. Chunki qonunchilik sohasi terminlari oddiy leksemalar to'plami emas, balki yurisprudensiyaning ichki bog'liqligini aks ettiruvchi terminologik tizimdir. Shunday ekan, qonunchilikda yuridik terminlar o'rtasidagi munosabatlar aynan umumhuquqiy tezaurus orqali ifodalanadi.

Tezaurusda huquqiy terminlarga xos bo'lgan umumiy jihatlar (ma'no qirralari va semalari) to'liq aks etadi. Shuning uchun tezaurus semantikasi yuridik terminlar orqali ifodalanadigan asosiy (umummuomala) ma'no-ga teng: tezaurus ma'nosi yurisprudensiya uchun dominant ma'no sanaladi.

Huquqshunoslikning turli sohalarida ishlatib kelinayotgan quyidagi terminlarni ko'rib chiqamiz: *ish staji*, *ishlab chiqarish staji*, *mehnat staji*. Bu terminlar, aslida, bitta tushunchani ifodalaydi. Endi ularning dominantini aniqlash lozim. Bizningcha, bu terminlarning dominantini mehnat staji hisoblanadi. Tezaurusda ular quyidagicha ko'rinishga ega (dominant hamda uning sinonimlari qat'iy alifbo tartibida joylashtiriladi): mehnat staji. Sinonimlari: *ish staji*; *ishlab chiqarish staji*.

Bundan huquqiy terminologiyada faqat mehnat staji terminidan foydalanish lozim ekanligi ayon bo'ladi.

Shuningdek, tezaurusda yuridik terminlarning jins-tur (giponimik) munosabati ham o'zining to'liq ifodasini topadi. Dalillar keltira-

miz. Yuridik ensiklopediyada bir termin haqida shunday deyilgan: "Fuqarolik huquqida ikki yoki undan ortiq shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki to'xtatish to'g'risidagi kelishuvi, bitimning bir turi" [10]. Bu tushuncha *shartnoma* termini bilan ifodalanadi. Ayni shu termin negizida qator birikma terminlar hosil qilingan. Ayrimlarini namuna tariqasida keltiramiz: *ijara shartnomasi*, *hadya shartnomasi*, *yakka shartnoma*, *puadrat shartnomasi*, *moliyalashtirish shartnomasi*, *huquqiy shartnoma* va b. Bularning ichidan huquqiy shartnoma terminini dominant, aniqrog'i, giperonim deb tanlaymiz. Demak:

Huquqiy shartnoma [giperonim]. Giponimlari: *korxonani sotish shartnomasi*, *sug'urta shartnomasi*, *o'zaro yordam shartnomasi*.

Demak, yasama yoki birikma terminlarning mosini tanlash masalasini umumhuquqiy tezaurus hal qiladi. Umumhuquqiy tezaurusning mazmun-mohiyati yuridik til mazmun-mohiyatiga bog'liq ekan, u lug'at tarkibining buzilishi va barqaror bo'lmaslikning oldini oladi.

Bu yerda gap yangicha ko'rinish (nom) ga ega bo'lgan atama, ibora va terminlar haqida borayotgani yo'q. Albatta, jamiyatdagi tub o'zgarishlar natijasida ilgari mavjud bo'lgan voqea, hodisa, jarayonlarning yangicha ma'no kasb etishi va yangicha shaklda qo'llanishi muqarrar. Masalan, *Yustitsiya ministrligi* – *Adliya vazirligi*, *Ministrlar Soveti* – *Vazirlar Mahkamasi*, *grajdanlik ishi* – *fuqarolik ishi* ko'rinishida qo'llanmoqda. Bu kabi o'zgarishlar mazkur tushunchalar nomiga milliylik baxsh etib, ularni jamiyatimiz talabiga mos ravishda vujudga keltirdi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuridik tilda har bir termin terminologik talablarga to'la mos kelishi shart. Aks holda, terminologiya sohasida sinonimlardan keng foydalanilib, uzundan uzoq ta'riflar, fikr chalkashliklariga yo'l qo'yiladi [11]. Yurisprudensiyada mavjud ibora, terminlarning sinonimlarini yaratish, birikmalar komponentlarini o'xshash so'zlar bilan almashtiraverish fikr

sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi: *qaydnoma matni* – *protokol matni* – *bayonnoma matni*; *uyushma* – *ittifoq* – *birlashma*; *hammerosxo'r* – *hamvoris* – *vorisdosh*; *ajralish* – *er-xotin ajralishi* – *qo'ydi-chiqdi*; *operativ xodim* – *tezkor xodim*; *ish haftasi* – *begim kunlari*; *ko'rsatma* – *ko'rsatuv* – *ko'rgazma*; *ustama narx* – *ustalma narx* kabilar shular jumlasidandir.

Adabiy tilda mavjud so'zlar o'sha tilning lug'at boyligi hisoblanadi. Ammo har qanday til terminologiyasi aniqligi, ilmiyligi va asosiligi bilan terminlarning birxillik tamoyillariga tayanadi. Huquqiy fikrning izchil, aniq va lo'nda bo'lishi yuridik til talabidir.

Tushunchaning qanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri ifodalanishi puxta shakllangan lug'atlarda aniqlanadi:



Demak, terminlarni o'z o'rnida ishlatish, har xilliklarga yo'l qo'ymaslik, muayyan tushunchani omma orasida bir xil va to'g'ri tushunish kabi jihatlarga amal qilish davr talabidir.

Xulosalar

Yuridik terminologiya ham yaxlit bir tizim hisoblanadi. Terminlar o'zaro munosabati-ning giponimik, sinonimik, antonimik kabi turlarining mavjudligi fikrimizning tasdig'idir. Yuridik andozalar asosida yasalgan juda ko'p terminlarning ishlatilayotganligi diqqatga sazovordir. O'zbek tili yuridik terminologiyasining keyingi taraqqiyotini ta'minlashda umumhuquqiy terminlar tezaurusi muhim rol o'ynaydi. Yuridik terminologiyani tartibga solish (masalan, sinonimiyani bartaraf etish), shu asosda turli-tuman lug'atlar yaratish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

REFERENCES

1. Nazarov Q., Usmonov S., Tohirov Q. Huquqshunos nutq madaniyati [Legal discourse culture]. Tashkent, 2003, p. 203.
2. Ko'chimov Sh.N. O'zbekiston Respublikasida qonunchilik texnikasi [Legislative machinery in the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Academy of IIV of the Republic of Uzbekistan, 1996.
3. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili tizimli leksikologiyasi asoslari [Fundamentals of systematic lexicology of the Uzbek language]. Tashkent, O'qituvchi Publ., 1995, pp. 118–119.
4. Kasymova M.Kh. Strukturno-sistemnyye osobennosti yuridicheskoy terminologii uzbekskogo yazyka [Structural and systemic features of legal terminology of the Uzbek language]. Tashkent, 1985, pp. 11–12.
5. Yatsyuk T.A. Terminologiya va nutq amaliyoti [Terminology and speech practice]. Tashkent, Fan Publ., 1992, p. 49.
6. G'ulomova G. Mustaqillik davrida o'zbek huquqiy terminologiyasining rivojlanishi [The development of Uzbek legal terminology during the period of independence]. Tashkent, 2005, p. 17.
7. Ko'chimov Sh.N. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari tili [Language of the Laws of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 1995, p. 12.
8. Gulyamova G. Relationships of legal terms. *European of Research and Reflection in Educational Sciences*, 2019, vol. 7/11, pp. 166–174.
9. Hojiyev A. Termin tanlash mezonlari [Term selection criteria]. Tashkent, Fan Publ., 1996.
10. Yuridik ensiklopediya [Legal encyclopedia]. Tashkent, Sharq Publ., 2001, pp. 542, 655.
11. Kuchimov Sh.N. O'zbekiston Respublikasi qonunlarining tili [Language of the laws of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 1995, p. 12.
12. Bokirov F.S. Huquqiy atamalarning lug'ati [Glossary of legal terms]. Tashkent, Fan Publ., 1959, p. 43.
13. O'zbek tilining izohli lug'ati [Explanatory dictionary of the Uzbek language]. Moscow, 1981, vol. 1, p. 118.

14. O'zbek tilining izohli lug'ati [Explanatory dictionary of the Uzbek language]. Moscow, Russian language Publ., vol. 2, 1981, p. 134.
15. Russko-uzbekskiy uchebnyy slovar' pravovoy leksiki [Russian-Uzbek educational dictionary of legal vocabulary]. Tashkent, 1991, p. 101.
16. Yuridik atamalar va iboralar lug'ati [Glossary of legal terms and phrases]. Tashkent, Adolat Publ., 1993, p. 105.
17. Doniyarov R. Terminlarni o'zlashtirish mezonlari haqida [About the criteria for mastering terms]. Uzbek language and literature Publ., 1991, vol. 6, pp. 38–45.
18. Ahmedov G., Bektemirov X. Ruscha-o'zbekcha yuridik atamalar lug'ati [Russian-Uzbek dictionary of legal terms]. Tashkent, Adolat Publ., 2002, p. 327.
19. Yuridik atamalarning ensiklopedik lug'ati [Encyclopedic Dictionary of Legal Terms]. Tashkent, Adolat Publ., 2003, p. 431.
20. Mahmudov N.M., Ko'chimov Sh.N., Sharipova N.Y. Yuridik terminlarning ruscha-o'zbekcha lug'ati [Russian-Uzbek Dictionary of legal terms]. Tashkent, Zamin nashri Publ., 2021, pp. 4–87, 49.
21. Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N., Aminov A. O'zbek tilida ish yuritish [Business correspondence in Uzbek]. Tashkent, Editor-in-Chief of the Uzbek Soviet Encyclopedia, 2023, p. 220.

Kelib tushgan / Получено / Received: 13.01.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 28.01.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 17.02.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.1./LUFN6495

UDC: 811.512.133(045)(575.1)

O'ZBEKISTONNING YANGI KONSTITUTSIYASIDA QO'LLANGAN *-LAN, -LASH, -LAT, -LANTIR, -LASHTIR* AFFIKSLARINI YURIDIK TA'LIMDA O'RGANISH BO'YICHA MULOHAZALAR

Ziyamuxamedova Shahnoza Tolkunovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti
ORCID: 0000-0002-4101-7066
e-mail: shahnozaziyo@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilida qo'shma affiks va affikslar tizmasidagi omonimiyaga oid masalalar o'rganilib, ularning guruhlariga ajratilishi, semantik munosabatlari hamda semantik-struktur xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, omoaffikslarni tizimlashtirish va tartibga solish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqotda O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi lisoniy jihatdan o'rganilib, yuridik ta'limda omoaffikslar, xususan, *-lan, -lash, -lat* hamda *-lantir, -lashtir* affikslarining qo'llanishi tadqiq qilingan. Fe'l so'z turkumi o'zining murakkabligi va munozarali jihatlari bilan ajralib turadi. Shu bois tilshunos olimlar uzoq yillardan beri ushbu affikslarning semantik xususiyatlarini o'rganish va baholashga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Mazkur affikslar yordamida yasalgan fe'llarning so'z shakllari Bosh qomusimiz misolida tahlil qilinib, yuridik til o'rgatiladigan darslarda foydalanish imkoniyatlari o'rganilgan. Maqolada fe'l turkumidagi ushbu murakkab va bir-biriga bog'liq masalalarni yoritish nazarda tutilgan. O'zbek tilshunosligida fe'l turkumiga oid tadqiqotlar ko'rib chiqilib, mazkur mavzuga bag'ishlangan ilmiy ishlar tahlil qilingan. Xususan, *-lan, -lash, -lat* hamda *-lantir, -lashtir* affikslar tizmalari bilan yasalgan fe'llar "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan sinchiklab tanlab olindi va badiiy adabiyotlardan misollar to'plandi. Ushbu material mavjud nazariy qarashlar asosida tahlil qilinib, ilmiy xulosalar chiqarishga harakat qilindi. Tadqiqot natijalari akademik yuridik matnlar tuzish hamda dars jarayonlarida foydalanishga mo'ljallangan bo'lib, talabalarning grammatik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: qo'shma affiks, omoaffiks, fe'l turkumi, fe'l nisbatlari, so'z shakllari, semantik munosabatlar, affikslar tizmasi, omonimiy, nisbat ko'rsatkichlari

РАЗМЫШЛЕНИЯ ОБ ИЗУЧЕНИИ АФФИКСОВ *-LAN, -LASH, -LAT, -LANTIR, -LASHTIR* В ЮРИДИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ НА ПРИМЕРЕ НОВОЙ КОНСТИТУЦИИ УЗБЕКИСТАНА

Зиямухамедова Шахноза Толкуновна,
доцент кафедры «Узбекский язык и литература»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы, связанные с омонимией в системе сложных аффиксов и аффиксальных рядов в узбекском языке, их классификация, семантические отношения

и структурно-семантические особенности. Особое внимание уделяется систематизации и упорядочиванию омоаффиксов. В исследовании также проводится лингвистический анализ новой Конституции Узбекистана, изучается употребление в юридическом образовании омоаффиксов, в частности аффиксов -lan, -lash, -lat, -lantir, -lashtir. Глагольная часть речи выделяется своей сложностью и дискуссионными аспектами. Именно поэтому лингвисты на протяжении многих лет уделяют особое внимание изучению и оценке семантических характеристик этих аффиксов. Формы слов, образованные с помощью указанных аффиксов, анализируются на примере основного закона страны, а также рассматриваются возможности их использования на занятиях по юридическому языку. В статье ставится задача раскрыть сложные и взаимосвязанные вопросы, касающиеся глагольной системы. Рассматриваются исследования в области узбекского языкознания, посвящённые данной теме, а также анализируются научные работы, касающиеся глагольной части речи. В частности, глаголы, образованные с помощью аффиксальных рядов -lan, -lash, -lat, -lantir, -lashtir, были тщательно отобраны из «Толкового словаря узбекского языка», а также собраны примеры из художественной литературы. Собранный материал был проанализирован на основе существующих теоретических концепций с целью получения научных выводов. Результаты исследования предназначены для использования при составлении академических юридических текстов и в учебном процессе, что способствует повышению грамматической грамотности студентов.

Ключевые слова: сложный аффикс, омоаффикс, глагольная часть речи, глагольные категории, формы слов, семантические отношения, система аффиксов, омонимия, показатели залоговой категории

CONSIDERATIONS ON THE STUDY OF THE AFFIXES -LAN, -LASH, -LAT, -LANTIR, -LASHTIR USED IN THE NEW CONSTITUTION OF UZBEKISTAN IN LEGAL EDUCATION

Ziyamukhamedova Shahnoza Tolkunovna,
Associate Professor of the Department of
Uzbek Language and Literature,
Tashkent State University of Law

Abstract. The article examines issues related to homonymy in compound affixes and affix systems in the Uzbek language, analyzing their grouping, semantic relations, and semantic-structural features. Special attention is also paid to the issues of systematization and ordering of homoaffixes. In the study, the new Constitution of Uzbekistan was studied from a linguistic point of view, and the use of homoaffixes, in particular, the affixes -lan, -lash, -lat, -lantir, and -lashtir in legal education was investigated. The verb is distinguished by its complexity and controversial aspects. Therefore, linguists have been paying special attention to the study and evaluation of the semantic features of these affixes for many years. The word forms of verbs formed with the help of these affixes were analyzed using the example of our Basic Law, and the possibilities of their use in legal language lessons were studied. The article addresses these complex and interconnected issues of the verb. Research on verbs in Uzbek linguistics is examined, and scientific works dedicated to this topic are analyzed. In particular, verbs formed with the help of the affixes such as -lan, -lash, -lat, -lantir, and -lashtir were carefully selected from the "Explanatory Dictionary of the Uzbek Language," and examples from fiction were collected. This material was analyzed based on existing theoretical views and attempted to draw scientific conclusions. The research results are intended for the compilation of academic legal texts and use in the educational process and serve to improve students' grammatical literacy.

Keywords: compound affix, homoaffix, verbal part of speech, verbal voices, word forms, semantic relations, affix series, homonymy, voice indicators

Kirish

O'tgan asrda o'zbek tilshunosligida so'z yasalishi va u bilan bog'liq hodisalar rus tilshunosligi hamda unga oid adabiyotlar ta'sirida morfologiyadan alohida soha sifatida ajratildi. Lekin bunda so'z va so'z shaklining yasalishi bir-biridan farqli hodisalar ekanini hisobga olingan xolos. Ularning har biri, jumladan, so'z yasalishi alohida tizim sifatida ko'rib chiqilmagan. Bu esa tabiiy holat edi [1].

So'z yasalishiga oid asosiy tushunchalarni to'g'ri belgilash va ularning mohiyatini aniq ochib berish ushbu tizim bilan bog'liq barcha hodisalarni to'liq va to'g'ri yoritish imkonini beradi [2]. Har bir tushunchaning aniq talqini esa keyingi ilmiy izlanishlar uchun yo'l ochadi. Shu sababli mazkur tadqiqotda fe'l turkumi doirasida so'z yasalishi va affiksalar omonimiya masalalariga e'tibor qaratildi [3].

Akademik yuridik nutqda ushbu affiksalar bilan yasaluvchi fe'llarning qo'llanishi yangi Konstitutsiyamiz matni misolida o'rganildi. Tadqiqot davomida to'plangan misollar mavjud nazariy qarashlar asosida tahlil qilinib, yuridik til o'rgatiladigan darslarda foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqildi. Bu natijalar akademik yuridik matnlarni tuzishda qo'llanishi bilan birga talabalarning grammatik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda o'zbek tilshunosligida qo'shma affiks va affiksalar tizmasidagi omonimiya o'rganildi hamda quyidagi natijalar olindi:

- O'zbekiston Konstitutsiyasi matni misolida *-lan*, *-lash*, *-lat* hamda *-lantir*, *-lashtir* affikslari ishtirokidagi fe'llarning leksik jihatlarini o'rganildi;

- o'zbek tili qo'shma affiks va affiksalar tizmasidagi omonimiya masalasi yana bir bor chuqurroq tadqiq qilindi;

- qo'shma affiks va affiksalar tizmasidagi omonimiyaning o'rganish asoslari ko'rsatildi;

- qo'shma affiks va affiksalar tizmasidagi omonimiyaning o'zaro semantik munosabatlari aniqlandi: ular o'rtasidagi omonimik munosabatlar tahlil qilindi;

- o'zbek tilidagi qo'shma affiks va affiksalar tizmasidagi omonimiyaning tartibga solish muammolari yuzasidan mulohazalar bildirildi.

Material va metodlar

Boshqa tilshunoslik sohalarida bo'lganidek, o'zbek morfologiyasida ham qo'shma affikslardan iborat sinonimik qator tez-tez uchraydi [4].

Hozirgi o'zbek tilshunosligi o'tgan asrning 20–30-yillaridan keyin shakllana boshlagan. Biroq bu jarayon oson kechmagan [5]. Mustaqillikka erishgach, O'zbekiston Konstitutsiyasining yaratilishi, yangi qonunchilik aktlari va hujjatlarning qabul qilinishi, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy, moddiy-madaniy hamda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar o'zbek tilining morfemikasi, xususan, affiksalar omonimiyaning shakllanishi, rivojlanishi va taraqqiy etishiga muhim omil bo'ldi [6].

Bugungi kunga kelib, o'zbek tili morfologiyasi bo'yicha ushbu mavzuda bir qancha tadqiqotlar e'lon qilingan bo'lib, uning nazariy asoslari puxta shakllangan. O'zbek tilining turli omonimik affiksalar tizimlari A. G'ulomov, A. Hojiyev, Y. Tojiyev, M. Jo'raboyeva, Q. Sapaev kabi tilshunolar tomonidan izchil ilmiy-nazariy tadqiq etilgan.

Mavjud adabiyotlar va internet manbalari tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida qo'shma affiksalar va affiksalar tizmasidagi omonimiya hali to'liq o'rganilmagan. Shunday ekan, ushbu ish o'zbek tilida affiksalar omonimiyaning o'rganishiga bag'ishlangan navbatdagi ilmiy tadqiqot sifatida e'tiborga mo'likdir.

Har qanday ilmiy tadqiqotning samaradorligi tanlangan tahlil metodlari va ularning nazariy asoslanishiga bog'liq. Shu bois ushbu tadqiqotda o'zbek yuridik tilidagi omonimik affiksalar bo'yicha bajarilgan ilmiy ishlar, fikr va mulohazalar o'rganilib, qiyosiy tahlil qilindi [7].

Maqolaning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ma'naviy meros, milliy

til va milliy madaniyat rivoji hamda taraqqiyyot yo'llari haqidagi nazariy qarashlari bilan bir qatorda, dialektikaning bilish nazariyasi (gnoseologiya) tashkil etadi.

Maqola mavzusini yoritishda qiyosiy, tavsifiy va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u zamonaviy o'zbek tili morfologiyasida shakllangan yangi affiksial tizimlarni o'rganishga bag'ishlangan keyingi tadqiqotlarga keng yo'l ochadi. Maqolada keltirilgan xulosalar va materiallar sistem morfologiya, leksikografiya hamda yurislingvistika sohalari uchun muhim manba bo'la oladi.

Maqolada 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi Konstitutsiya lisoniy jihatdan o'rganilib, *-lan*, *-lash*, *-lat* hamda *-lantir*, *-lash-tir* affikslarining qo'llanishi tahlil qilindi.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, Konstitutsiyamiz matnida *belgilanmoq*, *tayinlanmoq*, *tasdiqlanmoq*, *foydalanmoq*, *hisoblanmoq* kabi fe'llar faol qo'llangan. Mazkur fe'llarda, ko'rinib turganidek, asosan, *-la+-n* shakli ishlatilgan. Shuningdek, matnda *-lan* affiksi bilan yasalgan *rivojlanmoq*, *sudlanmoq*, *harakatlanmoq* kabi fe'llar ham uchraydi (1-jadval).

(1-jadval)

Konstitutsiyamizda qo'llangan *-lan* va *-la+-n* affiksli fe'llar ro'yxati

№	Fe'llar	-la+-n	-lan
1.	Hisoblanmoq	+	
2.	Asoslanmoq	+	
3.	Belgilanmoq	+	
4.	Rivojlanmoq		+
5.	Kafolatlanmoq	+	
6.	Isbotlanmoq	+	
7.	Aniqlanmoq	+	
8.	Ta'minlanmoq	+	

9.	Foydalanmoq		+
10.	Sudlanmoq		+
11.	Harakatlanmoq		+
12.	Jabrlanmoq		+
13.	Cheklanmoq	+	
14.	Tugallanmoq	+	
15.	Taqiqlanmoq	+	
16.	Tayyorlanmoq	+	
17.	Tayinlanmoq	+	
18.	Mustahkamlanmoq	+	
19.	Imzolanmoq	+	
20.	Ma'qullanmoq	+	
21.	Mo'ljallanmoq	+	
22.	Tasdiqlanmoq	+	
23.	Ayblanmoq	+	
24.	Himoyalanganmoq		+

Misollar:

1. O'zbekiston Respublikasida referendum o'tkazish tartibi qonun bilan *belgilanadi* (9-modda).

2. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida *rivojlanadi* (12-modda).

3. Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi *kafolatlanadi* (29-modda).

4. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya *ta'minlanadi* (50-modda).

5. Mulkdor o'ziga tegishli bo'lgan mulkka o'z xohishicha egalik qiladi, undan *foydalanadi* va uni tasarruf etadi (66-modda).

6. Maxfiy jamiyatlar va birlashmalar tashkil etish *taqiqlanadi* (71-modda).

7. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlarga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqligiga *asoslanadi* (76-modda).

8. Viloyatlarning prokurorlari, tuman va shahar prokurorlari O'zbekiston Respublika-

sining Bosh prokurori tomonidan *tayinlanadi* (144-modda).

Demak, *-la+-n* tarzida yasalgan 17 ta fe'l va *-lan* affiksi bilan yasalgan 7 ta fe'l qatnashgan.

(2-jadval)

Konstitutsiyamizda qo'llangan *-lash* va *-la+-sh* affiksli fe'llar ro'yxati

№	Fe'llar	-la+-sh	-lash
1.	Ko'maklashmoq		+
2.	So'zlashmoq	+	

1. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga o'z faoliyatini amalga oshirishda ko'maklashish (95/11-modda).

2. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi (139-modda).

-lash va *-la+-sh* affiksli fe'llar, yuqoridagi jadvalda ko'rib turganimizdek, juda kam qatnashgan (3-jadval).

(3-jadval)

Konstitutsiyamizda qo'llangan *-lash+-tir*, *-la+-shtir* va *-lan+-tir* affiksli fe'llar ro'yxati

№	Fe'llar	-lash+-tir	-la+-shtir	-lan+-tir
1.	Yengillashtirmoq	+		
2.	Shakllantirmoq			+
3.	Rag'batlantirmoq			+
4.	Rivojlantirmoq			+
5.	Moliyalashtirmoq	+		
6.	Chetlashtirmoq		+	

Misollar:

1. Siyosiy partiyalar o'z faoliyatining *moliyalashtirilishi* manbalari haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga yoki u vakolat bergan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar taqdim etadilar (74-modda).

2. Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi (79-modda).

3. Sudyani muayyan ishning muhokamasidan *chetlashtirishga*, uning vakolatlarini bekor qilishga yoki to'xtatib turishga, boshqa lavozimga o'tkazishga faqat qonunda belgilangan tartibda va asoslarga ko'ra yo'l qo'yiladi (136-modda).

4. Jinoyat uchun hukm qilingan har kim qonunda belgilangan tartibda hukmning yuqori turuvchi sud tomonidan qayta ko'rib chiqilishi huquqiga, shuningdek, afv etish yoki jazoni *yengillashtirish* to'g'risida iltimos qilish huquqiga ega (29-modda).

Tadqiqot tahlili

Jadvaldan ma'lum bo'lyaptiki, *-lash+-tir* tarzida yasalgan fe'llar 2 ta, *-la+-sh+-tir* bilan yasalgani 1 ta va *-lan+-tir* tarzida yasalgan fe'llar 3 tani tashkil qilar ekan.

Biz shu yerda mazkur fe'llarning qo'llanish chastotasiga ham to'xtalmoqchimiz. Konstitutsiyamizda eng faol qo'llangan fe'l – *belgilanmoq* fe'li bo'lib, matnda 39 marta uchraydi.

Foydalanmoq – 11; hisoblanmoq – 10; kafolatlanmoq – 9; tayinlanmoq – 9; taqiqlanmoq – 7; imzolanmoq – 6; asoslanmoq – 5; ma'qullanmoq – 4; rivojlanmoq – 3; harakatlanmoq – 3; cheklanmoq – 2; tasdiqlanmoq – 2; jabrlanmoq – 2 marta ishlatilgan.

Qolgan *sudlanmoq*, *himoyalanmoq*, *tayyorlanmoq*, *mustahkamlanmoq*, *tugallanmoq*, *aniqlanmoq*, *isbotlanmoq* hamda *mo'l-jallanmoq* fe'llari bir marotabadan qo'llangan.

Xulosalar

1. Maqolada O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasida qo'llangan *-lan*, *-lash*, *-lat* hamda *-lantir*, *-lashtir* affikslerini o'rganish bo'yicha mulohazalar ko'rib chiqilib, ushbu affikslar qatnashgan fe'llar tahlil qilindi. Jumladan, *-lan* va *-la+-n* affiksli fe'llarga 24 ta misol to'plandi. Shuningdek, 2 tasi *-la+-sh* affikslar

tizmasi qatnashgan fe'l ekanligi va *-lash+-tir*, *-la+-shtir* va *-lan+-tir* affiksli fe'llar 6 ta ekanligi aniqlandi.

2. *-lash+-tir* tarzida yasalgan fe'llar 2 ta, *-la+-sh+-tir* bilan yasalganlari 1 ta va *-lan+-tir* tarzida yasalgan fe'llar 3 tani tashkil qilishi tadqiq etildi.

3. Konstitutsiya matnida fe'llarning qo'llanish chastotasi ham tahlil qilinib, eng ko'p qo'llangan fe'l – *belgilanmoq* ekani aniqlandi. U bosh qomusimiz matnida 39 marta uchrashi qayd etildi.

Maqolada o'zbek tilshunosligida qo'shma affiks va affikslar tizmasidagi omonimiya bosh qomusimiz matni misolida o'rganildi va quyidagi yangiliklarga erishildi:

– o'zbek tili qo'shma affiks va affikslar tizmasidagi omonimiya masalasi yana bir bor chuqurroq tadqiq qilindi;

– qo'shma affiks va affikslar tizmasidagi omonimiyaning o'zaro semantik munosabatlari aniqlandi: ular o'rtasidagi omonimik munosabatlar tahlil qilindi;

– o'zbek tilidagi qo'shma affiks va affikslar tizmasidagi omonimiyaning hozirgi kundagi o'rganish jarayoni tahlil qilindi;

– qo'shma affiks va affikslar tizmasidagi omonimiyaning struktur tahlili amalga oshirildi;

– o'zbek tilidagi qo'shma affiks va affikslar tizmasidagi omonimiyani tartibga solish muammolari yuzasidan mulohazalar bildirildi.

REFERENCES

1. Askarova M., Abdurahmonov X. O'zbek tili grammatikasining praktikumi [Uzbek grammar practice]. Tashkent, 1981, pp. 58–61.
2. Tursunov U, Muxtorova A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek tili [Current Uzbek language]. Tashkent, O'zbekiston Publ., 1992, p. 98.
3. Hojiyev A. Fe'l [Verb]. Tashkent, FAN Publ., 1973, p. 41.
4. Hojiyev A. So'z yasalishi. Hozirgi o'zbek adabiy tili [Word formation. Modern Uzbek literary language]. Tashkent, O'qituvchi Publ., 1980, pp. 61–62.
5. Jo'raboyeva M.A. Affiksal omonimlarni belgilashning formal va semantik prinsiplariga doir [On the formal and semantic principles of defining affixal homonyms]. *Issues of Uzbek linguistics*, 1975, Tashkent, vol. 475, pp. 96–98.
6. A'lamova M.T. O'zbek tilidagi omomorfemalar [Homomorphemes in the Uzbek language]. Tashkent, 1964, vol. 203, pp. 154–155.
7. G'ulomov A. Fe'l [Verb]. Tashkent, 1959, pp. 37–38.
8. Kononov A.N. Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazyka [Grammar of the modern Uzbek literary language]. M-JI, 1960, pp. 87–88.
9. Koklyanova A.A. Kategoriya vremeni v sovremennom uzbekskom yazyke [The category of time in the modern Uzbek language]. Moscow, 1963, p. 43.
10. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili [Uzbek language]. Tashkent, O'qituvchi Publ., 1979, pp. 96–97.
11. Usmonov S. O'zbek tilida so'zlarning grammatik formalari [Grammatical forms of words in the Uzbek language]. Tashkent, 1964, vol. 42, 2-book, pp. 48–50.
12. O'zbek tili grammatikasi [Uzbek grammar]. Tashkent, O'zFAn, 1975, vol. 1, pp. 112–114.
13. G'ulomov A., Tixonov A., Qo'ng'urov R. O'zbek tili morfem lug'ati [Uzbek morpheme dictionary]. Tashkent, O'qituvchi Publ., 1977, pp. 158–176.
14. Hozirgi o'zbek adabiy tili [Modern Uzbek literary language]. Tashkent, O'qituvchi Publ., 1980, pp. 88–89.
15. Jo'raboyeva M.A. O'zbek tilida affiksal omonimiya [Affixal homonymy in Uzbek]. *Uzbek Language and Literature*, vol. 3, pp. 71–75.

16. Jo'raboyeva M.A. O'zbek tilidagi affiksial omonimik qatorlarni yoppasiga o'rganish natijalari [Results of a comprehensive study of affixal homonymic series in the Uzbek language]. *Issues of Uzbek Linguistics*, 1975, Tashkent, vol. 486, pp. 72–77.

17. Hojiyev A. Morfemika. Hozirgi o'zbek adabiy tili [Morphemics. Modern Uzbek literary language]. Tashkent, O'qituvchi Publ., 1980, pp. 106–107.

18. Berdialiyev A. Fonetik o'zgarish natijasida paydo bo'luvchi qo'shma affikslar [Compound affixes resulting from phonetic change]. *Uzbek Language and Literature*, 1970, vol. 3, pp. 81–83.

19. Yusupxo'jayeva H. O'zbek tilining izohli lug'atida fe'llarning ishlanishi [Verb usage in the explanatory dictionary of the Uzbek language]. Tashkent, Fan Publ., 1988, pp. 49–51.

20. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyeva A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek tili [Modern Uzbek literary language]. Tashkent, O'qituvchi Publ., 1980., vol. 1, pp. 70–71.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL 1-SON

VOLUME 5 / ISSUE 1 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.1.